

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

---

**N. A. ABDURAHIMOVA, M. S. ISAKOVA,  
Z. M. SULEYMANOVA**

# **DAVLAT MUASSASALARI TARIXI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK  
KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2007

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik bir-lashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan na-shrga tavsiya etilgan.

**T a q r i z c h i l a r :**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti  
«Manbashunoslik va maxsus tarix fanlari» kafedrası mudiri,  
tarix fanlari nomzodi **Z. Saidboboyev,**  
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy  
xodimi, tarix fanlari nomzodi **N. A. Mustafayeva.**

**N.A. Abdurahimova va boshq.**

Davlat muassasalari tarixi. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv  
qo‘llanma./N.A. Abdurahimova, M.S. Isakova, Z.M.Suleymanova  
— T.: «SHARQ», 2007. — 128 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston hududida qadimgi davrlardan XXI asr boshlarigacha mavjud bo‘lgan davlat muassasalari va boshqaruv tizimining vujudga kelishi, rivojlanishi, tanazzul va yuksalish bosqichlari tadqiq etilgan. Vatanimiz davlat muassasalari tarixini yoritishga yangicha yondoshib, turli xil jarayon va voqealarga xolisona baho berishga harakat qilingan.

O‘quv qo‘llanma arxivshunos, tarixchi, huquqshunos, siyosatshunos hamda kutubxonashunos mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar va barcha qiziquvchilar uchun tavsiya etiladi. Qolaversa, ilk marotaba atroflicha yoritilayotgan bu mavzu kelgusida yanada boyib, takomillashib boradi, shu xususda sizning kitob haqidagi fikr-mulohazalaringiz albatta inobatga olinadi, aziz o‘quvchi.

**ISBN 978-9943-00**

© «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasi Bosh tahririyati 2007-y.

---

---

## SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchi! Mustaqillik yillari O‘zbekiston uchun milliy davlatchilik a’nanalarini tiklashda muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi. Binobarin, jamiyatni demokratik talablar asosida qayta qurish va davlat hokimiyati vazifalarini taqsimlash tamoyillarini ishlab chiqish, shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlash, erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun asos bo‘luvchi poydevorni qurish mamlakatimizni jahon siyosiy maydoniga olib chiqqani ayni haqiqatdir.

Har qanday jamiyat hayotida bunday tub o‘zgarishlar bosqichma-bosqich, ba’zan bir necha o‘n yilliklar va hatto asrlar davomida amalga oshadi. Shu bois tarixiy o‘tmish saboqlarini hisobga olmasdan, mintaqamizdagi xalqlarning tarixiy tajribasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, xususan, mintaqamizdagi davlatchilik tajribalarini o‘rganmasdan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini va ahamiyatini to‘liq tushunish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov qayd etganidek: «Tarixiy xotira, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini bayon etish, milliy o‘zlikni anglash, ta’bir joiz bo‘lsa milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida nihoyat muhim o‘rin tutadi»<sup>1</sup>.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, mazkur o‘quv qo‘llanmani tayyorlashdagi asosiy vazifalardan biri sifatida mualliflar o‘zbek xalqi ajdodlari o‘z boshqaruv tizimiga qaysi davrdan boshlab ega bo‘lganligi, asrlar davomida xalqimiz bosib o‘tgan davlatchilik tarixining asosiy bosqichlari va omillarini, ushbu siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o‘ziga xos asosiy davlat muassasalari faoliyati xususiyatlarini ochib berishdan iborat, deb belgilab oldilar.

Qo‘llanmani tayyorlashda mualliflar tomonidan so‘nggi yillar ichida Respublika tarixchi va huquqshunoslari tomonidan chop etilgan O‘zbekiston davlatchiligi tarixiga oid monografiya va ilmiy maqolalardan keng foydalanildi.

Ushbu qo‘llanma quyidagi mualliflar jamoasi tomonidan yozildi: tarix fanlari doktori, professor N.A. Abdurahimova (8-mavzu), tarix fanlari

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: O‘zbekiston, 1997. — 140 b.

nomzodi M.S. Isakova (1, 4, 5, 6, 7, 10, 11-mavzular), o'qituvchi Z.M. Suleymanova (3, 12, 13, 14, 15, 16-mavzular).

So'zboshi va 9-mavzuni N.A. Abdurahimova va M.Isakova, 2-mavzu, test savollarini M. Isakova va Z. Suleymanovalar hamkorlikda yozishdi.

Qisqartma so'zlar, atamalar izohli lug'ati va o'zbek xonlari sulolalari xronologiyasi M.S. Isakova tomonidan tuzilib, ularni tayyorlashda Sh.Vohidov, R. Xoliqovalarning «Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan (XIX—XX asr boshlari)» deb nomlanuvchi risolasi va A. Sagdullayev, B. Aminov, O'. Mavlonov, N. Norqulovlarning «O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti» monografiyasi materiallaridan foydalanildi.

Mualliflar jamoasi mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda yordam bergan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rahbariyatiga hamda fotohujjatlarni tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatgan O'zbekiston Respublikasi kino, surat, ovozli hujjatlar Markaziy Davlat arxivi mehnat jamoasiga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

---

---

## 1-mavzu. DAVLAT MUASSASALARI TARIXI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

1. Davlat va davlat muassasalari tushunchasi.
2. Davlat muassasalari tarixi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
3. Davlat muassasalari tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yerlar va sug'orish kanallari bilan chegaralangan hududlarda paydo bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Dastlabki davlatlar miloddan avvalgi IV ming yillikda tashkil topgan bo'lib, ularda o'ziga xos davlat muassasalari tizimi ham shakllangan.

Davlat tushunchasi ilgari ma'lum bir hukmron sinf manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilot sifatida talqin etilgan. Bugungi kunda esa davlat tushunchasi mohiyati tubdan o'zgarib, u quyidagicha ta'riflanadi:

***Davlat — suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquqiy normalarini yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti. Davlat — butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot. U hokimiyatning bosh instituti bo'lib, jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinf va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etadi, yo'naltiradi va nazorat qiladi.*** (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3-tom. Toshkent, 2002).

*Davlatning asosiy belgilari* sifatida fuqarolarning ma'lum bir hududda birlashishini, boshqaruv apparatini mavjudligi, barcha uchun majburiy bo'lgan asosiy qonun va qonun osti huquqiy-me'yoriy hujjatlarga egaligi, ichki va tashqi siyosati hamda soliqlar tizimi shakllanganligini qayd etish joiz.

Jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar rivojlanib borishi bilan davlat shakllari ham o'zgarib borgan. Boshqaruv jihatidan davlat monarxiya va respublika, tuzilishiga ko'ra unitar (oddiy), federativ va konfederativ shaklda, siyosiy tartibi bo'yicha demokratiya, aksildemokratiya, fashistik va totalitar (mustabid) ko'rinishlarga ega bo'lgan. Birinchi bo'lib demokratiya siyosiy tartibi Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi 594-yilda o'rnatilgan bo'lsa, respublika boshqaruv shakli Qadimgi Rimda miloddan avvalgi 509-yilda joriy etilgan.

Davlat ishlarini tartibga solish, ichki va tashqi aloqalarni boshqarib turish zaruriyati maxsus davlat muassasalarini tuzilishiga olib keldi. Ular turli tarixiy davrlarda, turli siyosiy vaziyat va qonuniyatlar ta'sirida o'zgarib, rivojlanib bordi. O'z xususiyatlariga ko'ra davlat muassasalari mamlakatni boshqaruvchi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari vazifasini bajarib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda davlat muassasalari (idoralari) tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin. ***Davlat muassasasi — davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o'z tuzilishi, ijtimoiy hayotining muayyan sohasini boshqarish bo'yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo'lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismi.***

*Davlat muassasalarining asosiy* belgilari sifatida ularni maxsus qonun chiqarish yo'li bilan tashkil etilishini, unga yuklatilgan vazifalar doirasi mavjudligini, boshqaruv apparatida mustaqil o'ringa ega bo'lishini, boshqa idoralar bilan aloqalari va o'ziga xos tuzilishga egaligini aytib o'tish mumkin.

O'zbekiston davlat muassasalarini vujudga kelishi masalasining o'rganilishi tarixini yorituvchi bir qator ilmiy nashrlar mavjud bo'lib, ular hozirda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1998-yil iyul oyida bo'lib o'tgan bir guruh tarixchi olimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvida o'zbek xalqi tarixini har tomonlama tadqiq qilish, davlatchilik tarixining turli bosqichlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotini o'rganish yuzasidan bir qator takliflar ham bildirgan edi. Shundan kelib chiqqan holda respublika kasb-hunar kollejarining ish yuritish va arxivshunoslik ta'limi yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalariga O'zbekiston davlat muassasalari tarixini o'rgatish alohida ahamiyatga ega. Mazkur firkrimiz quyidagilar bilan asoslanadi:

1. Tashkilot, muassasa, idora va korxonalarda faoliyat olib borayotgan har qanday ish yurituvchi hujjat turi, uni rasmiylashtirish tartibi hamda ish yuritish tizimini to'g'ri tashkil etish uchun muassasa tushunchasiga ega bo'lishi va ularni kelib chiqish tarixini yaxshi bilishi talab etiladi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprelda «Arxivlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq Milliy arxiv fondi tashkil etildi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi davlat va nodavlat arxiv fondlarini o'z ichiga oladi. Davlat arxiv fondi hujjatlar hajmi jihatidan katta qismni tashkil etishi va davlat muassasalari faoliyati natijasida mujassamlashganligini inobatga olgan holda ularning tarixini o'rganish muhim masalalardan biri sanaladi.

3. Davlat arxivlari ishini tashkil etishda, ya'ni ularni hujjatlar bilan butlash, hujjatlar qimmatdorligini ekspertiza qilish, tartibga solish va ulardan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanishni yo'lga qo'yishda O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondini butlash manbai hisoblangan davlat muassasalarini tuzilishi, vazifalari, faoliyati to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston davlat muassasalari tarixi fani boshqa fanlarga o'xshash holda o'ziga tegishli ijtimoiy munosabatlar tizimini o'rganish va tartibga solish nazariy-amaliy qoida-tartiblar tizimiga ega. *Maxsus tarix fanlar tizimining alohida sohasi sifatida ushbu fan davlatning vazifalarini bajarish uchun tashkil etilgan muassasalar tarixi, faoliyati va ijtimoiy munosabatlarni o'rgatishni qamrab oluvchi o'z predmetiga ega.*


Davlat muassasalari fanining asosiy maqsadi davlatni boshqarish sohasidagi tarixiy tajribani o'rgatish orqali malakali ish yurituvchi, hujjat-shunos, arxivshunos kadrlarni tayyorlashda o'z ifodasini topadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni yechish talab etiladi:

- davlat muassasalarining paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;
- davlat muassasalari tuzilishi hamda faoliyatini o'rganish;
- davlat muassasalarining huquq va majburiyatlari, vazifalarini yoritish;
- zamonaviy davlat muassasalari tizimini takomillashtirishning vosita va yo'llarini tushuntirish.

Davlat muassasalari tarixi fani bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liq ravishda o'z masalalarini yoritadi.

*1-chizma*

### Davlat muassasalari tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi



**Umumiy tarix fanlari** yordamida jahon davlatchiligi evolutsiyasi, davlat muassasalari tizimi, ularni vazifalari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

**Vatan tarixi fani** o'rganilayotgan davlat tarixi, muassasalarini shakllanishi, mansabdor shaxslar vazifalarini talqin etishda ko'mak beradi.

**Yuridik fanlar** davlat va huquq asoslari tushunchasi, davlat shakllarini o'rganishda yordam bersa, **ijtimoiy-siyosiy fanlar** davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish va taqqoslash orqali ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

**Maxsus tarix fanlari**, jumladan tarixiy xronologiya, sfragistika, arxivshunoslik bilan ham chambarchas bog'liq.

**Tarixiy xronologiya** usullaridan o'tmishda mavjud bo'lgan vaqt o'lchovlari, davlat muassasalarini davriy rivojlanishini o'rganishda foydalaniladi.

**Sfragistika** — hujjatlarga qo'yilgan muhrlar orqali uning qaysi davlat, idora yoki mansabdor shaxsga tegishligini aniqlashda yordam beradi.

**Arxivshunoslik** — arxiv muassasalari saqlovxonasiga kelib tushgan hujjatlar fond tashkilotchilari, ularning tarkibiy bo'linmalari, hujjat turlarini tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, davlat muassasalari tarixini o'rganishni bir qator fanlar bilan bog'liq ravishda olib borish hamda olgan nazariy bilimlarni amaliyotda muassasalar faoliyatini takomillashtirishda qo'llash joizdir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Davlat deb nimaga aytiladi?
2. Davlat qanday asosiy belgilarga ega bo'ladi?
3. O'z xususiyatiga ko'ra davlat muassasalari qanday vazifalarni bajaradi?
4. O'zbekiston davlat muassasalari tarixini o'rganishning ahamiyati nimada?
5. Davlat muassasalari tarixi fanining predmeti nima?
6. O'zbekiston davlat muassasalari tarixi fani qaysi fanlar bilan bog'liq?



---

---

## 2-mavzu. O‘ZBEKISTON HUDUDIDA ILK DAVLAT MUASSASALARINING TASHKIL TOPISHI

1. O‘zbekiston hududida qadimgi davlat muassasalarining vujudga kelishi.


2. Ilk o‘rta asr mahalliy davlat muassasalari.
3. Turk xoqonligi davlat boshqaruvi.
4. Arab xalifaligi davlat idoralari.

O‘zbekiston hududida ilk davlatlarning vujudga kelishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga bog‘liq holda bo‘lgan. Mamlakatning tabiiy iqlimi sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanishga katta omil bo‘lib xizmat qilgan. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi, shuningdek, kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar, harbiy to‘qnashuvlar ta’sirida davlatlar vujudga kela boshlagan. Natijada yer maydonlariga bo‘lgan munosabat, ayniqsa ularga egalik qilish udumlari asta-sekin o‘zgarib borgan.

O‘zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida, ya’ni VII—VI asrlarda tashkil topgan. Davlatga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun o‘ziga xos davlat muassasalari tizimi joriy etilgan bo‘lib, davlatchilikning dastlabki bosqichida davlat muassasalari vazifasini maxsus tayinlangan shaxslar amalga oshirgan. Yil sayin ko‘payib borayotgan jamoa xo‘jaliklarida yer va suvni taqsimlash, qurilish va irrigatsiya (sug‘orish) ishlarini yuritish, jamoaning ichki va tashqi ishlarini boshqarib turish zaruriyati «**qishloq hokimlari**» deb nomlanuvchi *oqsoqol* (yoki dehqon)lar sinfini shakllanishiga olib keldi. Ularning mol-mulkini himoya qiluvchi, dushmanlarga qarshi harbiy yurishlar uyushtirish va tinch paytlarda qishloq aholisi ustidan hukmronlik qilish uchun 50—100 tadan ortiq o‘z askarlari bo‘lgan. Ma’lum bir hududda bir necha qishloqlar birlashib, tumanni hosil qilgan. Tumanni *oqsoqollar kengashi* boshqargan. Oqsoqollar kengashi esa viloyat yoki shahar hokimiga bo‘ysingan. Ba’zida esa viloyatlar biron-bir davlatga tobe bo‘lib, ularni mamlakat hokimi — *podshoh* boshqargan. Masalan, Ahamoniylar davlati (miloddan avvalgi VI asr o‘rtalari) tarkibiga kirgan O‘zbekiston hududlari satrapliklar (viloyat)ga ajratilib, ularni satraplar boshqargan. Satrap etib urushda yaxshi xizmat ko‘rsatgan sarkardalar bilan birga mahalliy hokimlar ham tayinlangan.

Davlat rivojlanishi bilan uning vazifalari doirasi kengayib, natijada davlat muassasalari tizimi ham takomillashib borgan. Har bir davlatning boshqaruv idorasi, xodimlari, budjeti va muayyan ish yuritish tizimi mavjud bo‘lgan. Ahamoniylar davrida bo‘lgani kabi **Salavkiylar** (miloddan avvalgi 312-yil) hukmronligida ham ko‘pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona

## Qadimgi davr davlat boshqaruvi tizimi



mavjud bo'lgan. Ayrim manbalarda keltirilishicha, saroydagi xat-hujjat ishlarini boshqaruvchi maxsus lavozim joriy etilgan.

Mazkur davlatlar monarxiya shaklida boshqarilib, hukmdor qo'lida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mujassamlashgan. Ayrim hollarda uning vakolatlarini cheklab turuvchi davlat organi ta'sis etilib, mamlakatni boshqarish o'zaro kelishuv asosida amalga oshirilgan. Xususan, miloddan avvalgi III asrning boshlarida tashkil topgan Qang' davlatini boshqarish shakliga ko'ra *cheklangan monarxiya* deb atash mumkin. Chunki, mamlakatni boshqarishda podshohga *Oqsoqollar kengashi* (Oliy kengash) yordam bergan. Hattoki yangi hukmdorni taxtga o'tqazish to'g'risidagi qaror Oqsoqollar kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Qadimgi Farg'ona (Dovon m.av. III asr) davlati oliy hukmdor — podshoh tomonidan boshqarilib, uning ikki yordamchisi — *vazir* (katta va kichik)*lari* bo'lgan. Vazir etib podshohning yaqin kishilari yoki qarindoshlari tayinlangan. Qadimgi Farg'onada Qang' davlati kabi hukmdorlar boshqaruvda Oqsoqollar kengashiga tayangan. Kengash mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida faol ishtirok etish bilan birga podshoh bilan bog'liq rasmiy tadbirlarda ham ishtirok etgan. Kengash qarori bilan davlatning muhim masalalari, ya'ni urush e'lon qilish, sulh tuzish, diplomatik munosabatlar o'rnatish kabi masalalar hal etilgan. Oqsoqollar kengashi hukmdorni taxtga o'tqazish va kerak hollarda taxtdan tushirish va jazolash vakolatiga ham ega bo'lgan. Masalan, xitoyliklar bosqini aybdori deb topilgan Farg'ona hukmdori Mug'uy kengash qarori bilan qatl etilgani tarixiy manbalarda ko'rsatilib o'tiladi.

Bundan tashqari davlat boshqaruvida diniy muassasalarning o'rni ham beqiyos bo'lgan. Ibadatxonalar tasarrufida mulk va yerlar bo'lib, ularni diniy arboblari — *kohinlar* boshqargan. Kohinlar faoliyatini esa bosh ruhoniylar nazorat qilib turgan.

Umuman olganda, qadimgi davrlardayoq O'zbekiston hududida o'ziga xos davlat organlari ta'sis etilib, ular boshqaruv masalalarini tartibli ijro etishga yo'naltirilgan edi.

Ilk oʻrta asrlarda 15 dan ortiq mahalliy mustaqil davlatlar ham faoliyat koʻrsatgan. Ulardan eng yirigi Soʻgʻdda, Toharistonda, Xorazmda, Choch va Eloq, Fargʻonada boʻlgan.

Mahalliy hukmdorlar ichida eng yirigi Samarqand ixshidlari boʻlib, ular Soʻgʻdning ilk feodal davlatlari konfederatsiyasi tarkibida katta siyosiy nufuzga ega boʻlgan. Mazkur ittifoq tarkibiga Buxoro, Kesh va Naxshab mulklari birlashgan. Soʻgʻd shahar va qishloq aholisi — naf, mulkdorlar — ozodkor, savdogarlar — guvokor, dehqonlar — kashovar, xizmatkorlar — korikor, tobe dehqonlar — kadivar deb yuritilgan. Aslzodalar tabaqasiga podshoh, mahalliy hukmdorlar, yirik dehqonlar kirgan. Podshoh davlat bosh hukmdori sanalib, u umumdavlat mulkidan tashqari, oʻzining shaxsiy mulkiga ham ega boʻlgan.

Jamiyatda dindor shaxslarning ahamiyati katta boʻlgan. Ular turli diniy marosimlar va udumlarni ado etish bilan bir qatorda, davlatni boshqarishda hukmdorlarga oʻz yordamlarini berganlar. Diniy yerlarni *vagʻnze*, din peshvolarini *vagʻnpat* deb atashgan.

Maʼlumki, ilk oʻrta asrlarda Oʻzbekiston hududlari bir qator koʻchmanchi qabilalar tomonidan zabt etilgan. Dastlab xioniylar, kidariylar, eftalitlar, soʻng turk xoqonligi tarkibiga kirgan. Biroq mazkur qabilalar rivojlanish nuqtayi nazaridan mahalliy aholidan ancha qoloq boʻlganligi va ularni asosan moddiy boyliklar qiziqtirgani sababli boshqaruv tizimiga deyarli taʼsir oʻtqazmagan.

Turk xoqonligi davrida maʼlum maʼmuriy boshqaruv lavozimlari nomlanishlariga oʻzgartirishlar kiritilgan. VI asrning soʻnggi choragida hozirgi Oʻzbekiston hududlari Gʻarbiy Turk xoqonligi tarkibiga kiritilib, oliy hukmdor — xoqon deb atalgan. Xoqonlik nasldan naslga oʻtib kelgan. Muhim harbiy masalalarni hal etishda xoqon yabgʻu (birinchi sarkarda) va qurultoy (oqsoqollar va harbiylar yigʻini)ga tayangan.

Davlatni boshqarishda xoqonga uning qarindoshlari, eng avvalo, hukmron sulola aʼzolari va ular tomonidan yaratilgan boshqaruv apparati yordam berar edi. U toʻrtga boʻlingan boʻlib:

- 1) qarindoshlar;
- 2) xoqonga ittifoqdosh boʻlgan qabila va xalqlar;
- 3) xoqonning oʻng tomonida turgan amaldorlar va maʼmuriy xodimlar;
- 4) xoqonning chap tomonida turgan amaldorlar va maʼmuriy xodimlardan iborat boʻlgan.


Mamlakat aholisi koʻchmanchi va oʻtroq dehqon aholiga boʻlingan, chorvador aholi «budun» deb nomlangan. Elning hokimi «yabgʻu» deb atalib, amalga faqat xoqon urugʻiga qarindosh boʻlganlarga koʻtarilgan. Shu boisdan baʼzan ular «*yabgʻu xoqon*» deb ham yuritilgan.

Oʻtroq viloyat hokimlarini xoqonlik maʼmuriyati bilan bevosita bogʻlash va ular ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga «*yabgʻu*» unvoni berilgan va ular xoqonning noibiga aylangan. Mustaqil hokimliklar ustidan nazoratni kuchaytirish uchun ular huzuriga vakillar

(ular «*tudun*» deb atalgan) yuborilib, viloyatlarni nazorat qilish, ulardan soliq yig‘ish va davlat markaziga o‘z vaqtida yetkazish uchun ham javobgar bo‘lganlar.

2-chizma

### Turk xoqonligi boshqaruv tizimi



VIII asr o‘rtalariga kelib aholi qarshilik ko‘rsatishiga qaramasdan uning hududlari arablar tomonidan zabt etildi. Amudaryoning shimolida joylashgan yerlarni arablar **Movarounnahr** — «*daryoning narigi tomoni*» deb atab, hozirgi Afg‘oniston shimoli, Eronning sharqiy qismi va Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo‘lgan hududlarni esa **Xuroson** deb yurita boshladi.

Arab xalifaligining markaziy hokimiyati dastlab Damashqda, 749-yildan esa Bog‘dodda joylashgan edi. Davlat boshlig‘i «*xalifa*», ya‘ni «*o‘rinbosar*» deb atalib, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda «*vazir ul-vuzaro*» (ulug‘ vazir)ga tayangan.

Harbiy ishlarni boshqarish «*amir ul-umaro*» qo‘lida bo‘lgan. Tobe bo‘lgan viloyatlar masalasi esa «*devon ad-dar*», ya‘ni kengashda ko‘rib chiqilgan. Devon ad-dar hududiy asosda uchta devonga: «*devon al-mashriq*», «*devon al-mag‘rib*», «*devon al-xaraj*»ga bo‘lingan. Devon al-mashriqda Movarounnahrda tegishli masalalar hal etilgan.

Zabt etilgan davlatlar hududi arab xalifaligi viloyatlariga aylantirilib, ularni «*noib*»lar boshqargan. Viloyat noiblarini lavozimga tayinlash yoki bo‘shatish xalifa ixtiyorida bo‘lgan.

Viloyat dehqonlari — yirik yer egalari xalifalik noibining mahalliy aholi orasidan bo‘lgan vakiliga bo‘ysungan. Ular «*amir*» unvoniga ega hisoblanar edi.

Mahalliy dehqonlar o‘z mulklarini saqlab qolganligiga qaramay, olgan daromadlarini ma‘lum bir qismini xalifalik xazinasiga jo‘natish majburiyatini olgan. Bog‘doddan maxsus soliq yig‘uvchi — «*omil*» viloyat markazlariga kelib soliqlarni o‘zi to‘plab olib ketgan.

Movarounnahrda o‘rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta‘minlash maqsadida arablar aholi o‘rtasida islom dinini kengroq yoyishga alohida ahamiyat bergan. Shu bilan bir qatorda musulmon qonunchilik tizimi ham joriy etila boshladi. Qonunchilikni amalga oshiruvchi shaxslar ma‘lum nomga ega bo‘lib, ular ilmiy darajalariga muvofiq muayyan pog‘onada turishgan.

*Shayx ul-islom* — eng yuqori pogʻonada turuvchi huquqshunos hisoblangan.

*Muftiy* — ayrim mamlakatlarda fatvo (dunyoviy hukmdorlarni qarorlari va farmonlarini yozma ravishda tasdiqlash) beruvchi, qaror chiqaruvchi, sud ishlarini amalga oshirgan oliy martabali shaxs sanalgan.

*Mujtahid* — oliy darajaga erishgan ilm sohibi, yaʼni ijtihod (oliy qonun ilmi)ni egallagan shaxs boʻlgan.

*Mufatiq* — vaqf (diniy yerlar) ishlarini amalga oshirgan.

*Qozi* — sud ishlarini amalga oshiruvchi va sharhlovchi shaxs boʻlib, ijtihodni bilishi shart boʻlmagan.


Sud ishlari mahkama nomidan idoralarda koʻrib chiqilib, ular machit qoshida boʻlgan. Yuqoridagi lavozimlar uchun bayt ul-mol (davlat xazinasi)dan maosh toʻlangan.

Arab xalifaligida sohaviy maʼmuriy idoralar ham faoliyat koʻrsatib, oʻziga xos devonlar tizimini tashkil qilgan.

Xususan, hujjatlarni rasmiylashtirish, harbiy ishlar, moliyaviy ishlar, pochta— xabar yetkazish kabi devonlar joriy etilgan boʻlib, ularda maxsus kotiblar ishlagan. Kotiblar ish yuritish tartiblarini bilishi va yaxshi hujjatshunos boʻlishi talab etilgan. Devonlar ishini bosh vazir boshqargan.

3-chizma

### Arab xalifaligi davlat boshqaruvi



### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qishloq hokimlari qanday vazifalarni boshqargan?
2. Oqsoqollar kengashi qanday vakolatlarga ega boʻlgan?
3. Qadimgi Qangʻ va Fargʻona davlatlari boshqaruv organlari toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
4. Turk xoqonligida qanday davlat muassasalari boʻlgan?
5. Arab xalifaligida devonlar nechta boʻlgan?
6. Arab xalifaligida qonunchilikni amalga oshiruvchi qanday unvonlar boʻlgan?

---

### 3-mavzu. IX—XIII ASR BOSHLARIDA MUSTAQIL DAVLATLAR BOSHQARUV TIZIMI

1. Somoniylar davlat muassasalari.
2. G‘aznaviylar davlat idoralari.
3. Saljuqiylar davlat muassasalari.
4. Qoraxoniylar davrida boshqaruv idoralari.
5. Xorazmshohlar davlat boshqaruvi tartibi.

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston davlat muassasalari tarixini o‘rganishda *somoniylar davlat boshqaruvi tizimi* muhim o‘rin egallaydi.

IX asr boshlarida O‘zbekiston hududida somoniylar mahalliy sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan bo‘lib, oliy hukmdor — **amir** deb atalgan.

Somoniylar markazlashgan hokimiyat yaratishga intilib, davlat boshqaruv apparatini yengillashtirib, takomillashtirdilar. Davlatning barcha boshqaruv idoralari ikki toifaga bo‘lindi:

- 1) dargoh (amir saroyi);
- 2) devonlar.

Dargoh hukmdor sulolasi, ya‘ni amir saroyiga tegishli masalalar bilan shug‘ullangan.

Dargoh qoshida quyidagi asosiy lavozimlar faoliyat ko‘rsatgan:

- sohibi haros — saroy soqchilarini boshqargan;
- bosh hojib — saroy xavfsizligiga mas‘ul bo‘lgan;
- vakil — saroy xo‘jaligiga mudirlik qilgan;
- amiri haros — oliy hukmdor farmonlarini bajargan.

Somoniylar davlati quyidagi 10 ta devonlar boshqaruvida idora etilardi:

1. **Devoni vazir yoki xojayi kalon** — eng muhim devon. Vazir — hukumat boshlig‘ini birinchi yordamchisi bo‘lgan. Ushbu devon bosh boshqaruv mahkamasi ahamiyatiga ega edi, ya‘ni davlatning barcha ma‘muriy, siyosiy va xo‘jalik muassasalari ustidan nazorat qilgan, devonlar boshliqlariga rahbarlik qilgan.


2. **Devoni mustavfiy** — moliya ishlari devoni. Ushbu devon davlat xazinasi ishlari bilan shug‘ullangan. Devon ixtiyorida maxsus hisobchilar, munshiy va kotiblar faoliyat ko‘rsatgan.

3. **Devoni ar-rasoyil** — hujjatlarni rasmiylashtirish devoni.

Ushbu devon davlat hujjatlarini ishlab chiqish va diplomatik aloqalar bilan shug‘ullangan.

4. **Devoni sohib al-ushrot.** Ushbu devon maxsus saralangan harbiy qismlarga boshchilik qilish, ularning tayyorligi, tartib-intizomi, oziq-ovqati, xo‘jalik va moliyaviy ta‘minoti ishlari bilan shug‘ullangan.

## Somoniyilar davlat boshqaruvi tizimi



### 5. Devoni sohib-al barid — xat-xabarlar devoni.

Ushbu devon markazda qabul qilingan qarorlar, rasmiy hujjatlarni viloyat, shaharlarga yetkazish va joylardan markazga yetkazish bilan shug'ullangan.

Mazkur devonning joylardagi bo'limlari mahalliy davlat idoralari, hukmdorlar faoliyati haqida ma'lumotlar to'plab, bevosita dargohga yuborish imkoniga ega edi.

### 6. Devoni muhtasib.

Ushbu devon shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslikni ta'minlash, savdogarlarning tarozilarini nazorat qilish, hunarmandlarning mahsulotlari sifatini tekshirish, narx-navo oshmasligini nazorat qilish bilan shug'ullangan.

### 7. Devoni mushrif.

Ushbu devon dargoh ta'minoti bilan bog'liq xazina sarf-xarajatlari ustidan nazorat olib borish bilan shug'ullangan.

8. **Devoni az-ziyo** — davlat mulklari devoni. Mazkur devon hukmdor sulolasiga tegishli mol-mulk, davlat yerlarini boshqarish, nazorat qilish va hisob-kitobni olib borish bilan shug'ullangan.

### 9. Devoni vaqf.

Ushbu devon bir shaxs yoki davlat tomonidan ehson maqsadida musulmon ulamolar ixtiyoriga o'tkazilgan mol-mulk, yer-suv, ya'ni vaqf ishlari bilan shug'ullangan.

### 10. Devoni qozi.

Mazkur devon qozilarning faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullangan. Devon boshida — davlat bosh qozisi turgan.

Davlat boshqaruvining markaziy organlari mahalliy idoralar bilan doimiy aloqada bo'lgan joylarda barcha devonlarning bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Shunday qilib, viloyat davlat muassasalarining bo'ysunishi ikki tomonlik bo'lgan: bir tomondan, viloyat mahalliy boshlig'iga, ikkinchi tomondan tegishli devonga bo'ysungan.

Faqat pochta-xabar devonining mahalliy bo'limlari bevosita markazgagina bo'ysunganlar. Ular davlat elchilari, mahalliy viloyat hokimlari, mansabdor shaxslar ustidan ham yashirin nazorat olib borganlar.

Viloyatlar boshliqlari katxudo, shahar boshliqlari — rais deb atalgan. Viloyat boshlig'ini oliy hukmdor, raisni katxudo lavozimga tayinlagan.

Shaharlarda diniy ishlarni boshqarish shayxulislom qo'lida edi.

Somoniylar lashkari ikki toifaga bo'lingan edi:

1) doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadigan saralangan harbiy qism (gvardiya);

2) zarur hollarda viloyatlardan yig'iladigan kuchli harbiy qo'shin.

Somoniylarda sud ishlarini yuqorida ko'rib chiqilgan qozilik devoni boshqargan. Joylardagi qozilar qozikalonga bo'ysunganlar.

*G'aznaviylar davlatiga* 962-yili G'azna hokimi Sobuqtakin asos solgan. Mahmud G'aznaviy hukmronligi davrida (988—1030) kuchli davlatga aylandi.

Davlatning oliy hukmdori — **Amir** bo'lgan. Boshqaruv tizimi dargoh va devonlarga bo'lingan.

Dargohda faoliyat ko'rsatgan hojiblar xizmati rivojlanib, ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib va boshqa shakllarda bo'lgan.

Ulug' hojibning mavqeyi davlat miqyosida katta bo'lgan. Rasmiy marosimlarda u oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan, jiddiy harbiy yurishlarda qo'shinning mas'uliyatli qismiga boshchilik qilgan, maxsus saralangan qismlar tayyorgarligini tekshirib turgan.

Dargohda saroy xizmatchisi — sipohdor, oliy hukmdorning shaxsiy hujjat, xat ishlari bilan shug'ullangan davotdor, pinhona vazifalarni bajaruvchi pardador, xazinachi kabi xodimlar faoliyat ko'rsatgan.

G'aznaviylar davlatida: bosh vazir devoni, harbiy ishlar devoni, hujjatlarni rasmiylashtirish va diplomatik ishlar devoni, moliya devoni, pochta-xabar devoni, mushrif, muhtasib kabi devonlar bo'lgan.


G'aznaviylar davlatida hujjatlarni rasmiylashtirish devoni alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Harbiy devon huzurida somoniylar davlati kabi devoni arz faoliyat ko'rsatgan. Devoni arz qo'shinni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash ishini bajargan. G'aznaviylarda devoni arz ahamiyati kuchaydi.

G'aznaviylar davlatida viloyat boshliqlari voliy deb atalgan. Voliylarni oliy hukmdorning o'zi tayinlagan. Viloyatlardagi ijroiya ishlarni amir olib borgan.



## G'aznaviylar davlat boshqaruvi tizimi



Shahar boshliqlari — rais deb atalgan. Shahar miqyosidagi lavozimlar — shihna, kutvol bo'lgan.

Shihna mirshab vazifasini bajargan, uning ixtiyorida alohida harbiy qism bo'lgan.

*Saljuqiylar davlati* 1040-yildan 1157-yilgacha mavjud bo'lgan.

Davlat boshida oliy hukmdor — **sulton** turgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan davlatlar kabi saljuqiylar davlat boshqaruvi ham dargoh va devonlarga bo'lingan.

Ulug' hojib — dargohdagi sultonga eng yaqin kishi. U dargoh bilan devonlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish, rasmiy qabullarni uyushtirish bilan shug'ullangan.

Horis amirining vazifalari — sulton chiqargan jazo, hukmlarni ijro etishga mas'ul bo'lgan.

Salohdor — saroydagi qurol-aslahani saqlash uchun javobgar shaxs.

A'lamdor — sulton bayrog'ini tutuvchi.

Jangdor — sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullangan.

Saljuqiylarning barcha devonlari bosh vazirga bo'ysungan. Bosh vazir devonlar, davlatning xazina, moliya, soliq ishlariga mas'ul bo'lgan. Uning faoliyati davlatning tashqi va ichki siyosatidagi barcha sohalariga tegishli edi. Shuningdek, u amaldorlarni ishga olish, ishdan bo'shatish vakolatiga ham ega bo'lgan.

Bosh vazir huquqlari nihoyatda keng bo'lgan. U sulton nomidan xorijiy davlatlar namoyandalari bilan muloqot va muzokarada bo'lish huquqiga ega edi. Bosh vazir faqat bir sohada, yer-mulk taqsimlash ishlarida — huquqsiz edi. Mazkur huquq faqat sulton ixtiyorida bo'lgan. Vazir huzurida markaziy hokimiyatning oliy organi — devoni a'lo bo'lgan. U bo'lim va devonlardan iborat edi. Bosh vazirning o'zini maxsus vakillari, nazoratchilari bo'lgan.

Saljuqiylar devoni ikki toifaga bo'lingan: sulolaviy va rasmiy. Sulolaviy devon hukmdorga tegishli yer-suv, xazina, mol-mulk masalasi bilan shug'ullangan.

Rasmiy devonlar: devoni tug'ro, istifo, ishrof, arz deb atalgan.

1. **Devoni tug'ro** — eng muhim devon, uning boshlig'i bosh vazir o'rinbosari mavqeyiga ega bo'lgan.

Devoni tug'ro sulton farmoni, qarorlari, rasmiy hujjatlarini tayyorlash, ularni tasdiqlash uchun taqdim etish, markazdan joylarga rasmiy hujjatlarni yuborish, joylardan markazda qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta'minlash ishlariga rahbarlik qilgan.

2. **Devoni istifo** — moliya devoni. Davlat kirim-chiqimlari, soliqlar bilan shug'ullangan, ularni ro'yxatga olishga mas'ul devon.

Devon xodimlari katta huquqlarga ega edilar: dargoh kirim-chiqimlar nazoratiga ham aralashganlar.

3. **Devoni ishrof** — davlat nazorati devoni. Ushbu devon moliya-soliq ishlarni, hisoblarni tekshirish, vaqf mulklar ustidan nazorat qilish, sulolaga tegishli yer-suv, qimmatbaho moliya qog'ozlari, zarbxonalar, bozorlar mutasaddilari, soliqchilar, amaldorlar ustidan nazorat olib borgan.


4. **Devoni arz** — harbiy devon. Qo'shinlarni maosh, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash, harbiylarning ro'yxati, tarkibi, soni masalalariga mas'ul devon.

Saljuqiylarda **otabek** lavozimi bo'lgan. Otabek unvoni bosib olingan davlatlarda vazirlik mansabiga teng bo'lgan.

Joylarda devonlar bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Istifo devoni bo'limlari markazga soliq yig'ish va boshqa teqishli tadbirlar bo'yicha hisobot berganlar.

*3-chizma*

### Saljuqiylar davlat boshqaruv organlari



Viloyat boshqaruvi voliy qo‘lida bo‘lgan. Voliylar o‘z hududiga tegishli barcha sohalariga boshchilik qilganlar. Ular huzurida alohida idoralar bo‘lgan. Voliylar hukmdor orqali lavozimga tayinlanganlar.

Shahar boshliqlari ham shaharga tegishli barcha masalalarga, harbiy sohadan tashqari, boshchilik qilganlar.

Saljuqiylarda shihna lavozimi juda muhim bo‘lgan. Shihna tartibni nazoratga olish bilan shug‘ullangan. Saljuqiylarda shihna «harbiy hokim» deb yuritilgan.

Shihna yordamchisi noib bo‘lgan. Noib vazifalari: tartibni buzganlarni imomlardan maslahat olib jazolash. Noiblar joylardagi tartibni nazorat qilganlar.

Joylarda soliq yig‘ish bilan omillar shug‘ullangan.

X asr o‘rtalarida Qoraxoniylar davlati tashkil topadi. Bu turk davlatining hukmdorlari «arslonxon» va «bug‘roxon» unvonlari bilan yuritilgan. Taxtga o‘tirgan bug‘roxon yoki arslonxonni «qoraxon», ya‘ni ulug‘ xon deb atashgan. Davlatni boshqarishda ular qoraxoniylar qabilaviy urushning og‘alik tartibiga qat‘iy rioya qilingan. Unga muvofiq‘ qabila boshliqlari orasidan yoshi ulug‘ini qoraxon etib saylashgan. Odatda, u «tamg‘achxon», ya‘ni xonlar xoni deb yuritilar edi.

Qoraxoniylar davlati markazlashmagan davlat bo‘lib, uning viloyatlari sulola namoyandalariga bo‘linib, idora qilingan. Bo‘lingan yerlarni el-yurt va viloyat deb ataganlar. El-yurt hokimlari — eloqxon deb, viloyat noiblari — «takin» deb atalgan.

Viloyatlar mustaqil siyosat yuritishga intilganlar. Natijada XI asrning uchinchi choragida Qoraxoniylar davlati g‘arbiy va sharqiy xoqonliklarga bo‘linib ketdi.

Qoraxoniylar davlat boshqaruvi dargoh va devonlarga bo‘lingan. Darqondagi yetakchi lavozim — hojib sanalgan.

Hojib — davlat va fuqarolar ishlari bo‘yicha xonning yaqin maslahatchisi deb hisoblangan. Hojib oliy hukmdor bilan joybar o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirib turgan. Hojib vazifalari: qonun va odatlarga rioya etish, rasmiy tantanalarni tashkil etish, fuqarolarning iltimos va shikoyatlarini qabul qilish va oliy hukmdorga yetkazish, shuningdek, u elchilarni qabul qilish ishlariga ham mas‘ul xodim bo‘lgan.

Dargohning muhim lavozimlaridan yana biri — **birin**. Saroy ishlarini boshqarish, mehmonlarni qabul qilish uning vazifa doirasiga kirgan.

Bundan tashqari, dargohda xazinachi, oshxona mutasaddisi, ov uyushtiruvchi va boshqa xodimlar faoliyat ko‘rsatgan.

Qoraxoniylar devonlari: bosh vazir devoni, moliya, rasmiy hujjatlarni ishlab chiqarish, soqchilik, xat-xabarlar, muhtasib, vaqf, qozilik ishlari devonlari.

Lashkar, oliy hukmdorning xavfsizligini ta‘minlash uchun maxsus saralangan gvardiya va harbiy qo‘shindan iborat bo‘lgan.

Shahar boshqaruvi rais qo‘lida bo‘lgan. Raislar orqali oliy hukmdor o‘z hukmini o‘tkazib turgan.

Shaharlarda muhtasiblar faoyliyat ko‘rsatgan.

Qoraxoniylar o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida musulmon ruhoniylar bilan yaqin munosabatlarda bo'lganlar. Shuning uchun Qoraxoniylarda imomlar, shayxlar, saidlarning ahamiyati kuchaygan.


Saidlar rais lavozimini, shuningdek, qozi lavozimini egallash huquqiga ega edilar.

Sud-tartibot ishlarini boshqarish qozi ul-quzzot qo'lida bo'lgan. Joylarda sud ishlari bilan qozilar shug'ullangan.

Yozma manbalarga ko'ra Qoraxoniylar davlatida ma'muriy va qozilik ishlarini bir shaxs boshqarishi mumkin bo'lgan.

4-chizma

### Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimi



Xorazmshohlar davlat boshqaruvi ham dargoh va devonlarga bo'lingan.

Dargohdagi lavozimlardan muhimlari — ulug' hojib sanalgan. Ulug' hojib hukmdorning eng yaqin kishilaridan tayinlangan. Hojib maxsus muzokaralar olib borish, vazirlar faoliyatini nazorat qilish ishlari bilan shug'ullangan.

— Ustozdor — Podshohlikdagi xo'jalik ishlariga mas'ul xodim.

— Amiri oxir — Oliy hukmdorga tegishli otlar parvarishi, ovlarni o'rniga qo'yish tadbirlarini uyushtirish bilan shug'ullangan.

— Tashtdor — Oliy hukmdorga yaqin kishilardan bo'lgan. Tashtdorga hukmdor o'zining eng maxfiy fikrlarni topshirgan edi.

— Qissador — Oliy hukmdorga tushgan arz, shikoyatlarni topshirish, keyin javoblarni tegishli joylarga berish bilan shug'ullangan.

Shuningdek, davotdor, bayroqdor kabi dargoh lavozimlari ham bo'lgan.

Bosh vazir devonlar tizimiga boshchilik qilgan. Unga barcha amaldorlar, noiblar, harbiylar bo'ysungan. Amaldorlarni ishga tayinlash, bo'shatish, maosh, xazina, soliq tizimini nazorat qilish ishlari bosh vazir qo'lida edi.

Bosh vazir oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi bo'lgan. U rasmiy tadbirlar, muzokaralarda oliy hukmdor nomidan ish olib borgan.

O'z faoliyatida bosh vazir faqat oliy hukmdor oldida javobgar edi.

Devonlar tizimi saljuqiylar kabi devoni tug'ro, devoni arz, devoni istifo va devoni ishroflardan iborat bo'lgan. Saljuqiylardan farqli Xorazmshohlarda yana bir devon — devoni xos faoliyat ko'rsatgan.


**Devoni xos.** Mazkur devon hukmdor sulolaga tegishli yer-suv, mol-mulk ishlari bilan shug'ullangan.

Lashkar kuchli harbiy qo'shin va oliy hukmdorning shaxsiy gvardiyasi (haros)dan iborat edi.

Harbiy nazoratchi, viloyat qo'shin boshlig'i — sohibi jaysh, askar qozisi lavozimlari bo'lgan.

*5-chizma*

### Xorazmshohlar davlat boshqaruv organlari



### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Somoniylar davlati boshqaruvi qanday bo'lgan?
2. Devon va dargohlarni ta'riflab bering.
3. Davlat muassasalari tarixida somoniylar davlat muassasalarining o'rni qanday bo'lgan?
4. G'aznaviylar davlatida qanday idoralar bo'lgan?
5. Qoraxoniylar davlat muassasalari qanday edi?
6. O'rta asrlarda davlat muassasalari xususiyatlarini sanab bering.

---

---

#### **4-mavzu. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI**

1. Amir Temur davlatining tashkil topishi.
2. Temuriylar davlati ijtimoiy-siyosiy tuzumining o'ziga xosligi:
  - a) temuriylar davlati siyosiy tuzumi;
  - b) davlat boshqaruv tizimi;
  - d) temuriylar harbiy boshqaruv tizimi.
3. Temuriylar davri davlat boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati.

XIV asr o'rtalarida Amir Temur hokimiyatining tashkil topishi Movarounnahrda o'ziga xos yangi davlat boshqaruv tizimini maydonga keltirdi.

Amir Temur Movarounnahrning qonuniy hukmdori sifatida hududlarni birlashtirishga kirishar ekan, mahalliy hukmdorlarni markaziy hokimiyatga bo'ysundirdi, o'z davlatini barpo qilishda o'tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalandi. Amir Temur davlati tarkibiy tuzilishiga ko'ra, asosan, harbiy-siyosiy tartibga tayanar edi. Uning davlat boshqaruv tizimi qo'l ostidagi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan bo'lib, o'zidan avvalgi tizimni ancha boyitgan edi. Amir Temurning Nizomulmulk tomonidan yaratilgan «Siyosatnoma» asaridan davlat ishlarida keng qo'llanma sifatida foydalanishi, «Temur tuzuklari»da «Siyosatnoma»dan fikrlar keltirishi yuqoridagi mulohazalarimizning isbotidir.

Amir Temur o'ziga qadar bo'lgan davlatchilikning sakkizta asosiga qat'iy amal qilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi zarur.
2. Davlat va jamiyatning siyosiy yaxlitligi buzilmasligi kerak.
3. Davlat va jamiyat qat'iy tartibdagi qonunlar, mafkura asosida boshqarilmog'i shart.
4. Boshqaruv tizimini muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo'lishi zarur.
5. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar doimiy tarzda davlat e'tibori va nazorati ostida bo'lishi shart.
6. Fan va madaniyat ravnaqiga doimiy tarzda e'tiborni qaratish zarur.
7. Har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi kerak.


8. Davlat tepasidagi hukmron kuchlar o'tmishni, bugunni va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparvarlik nuqtayi nazari bilan anglamog'i zarur.

Amir Temur yuqoridagi 8 ta asosga qo'shimcha tarzda to'qqizinchi asosni qo'shdi. Bu jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini ta'minlashdan iborat edi.

Davlatchilik sohasida Amir Temurning asosiy xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, u o'z davri uchun davlat boshqaruvining an'analari bo'lgan dargoh va devon tizimlarini qayta tikladi. Davlat oliy organi darg'oh sanalib, uning boshida rasman Chingizxon avlodlari, dastlab Suyurg'otmish (1370-yildan), so'ng uning o'g'li Sulton Mahmud (1388-yildan) turgan. Biroq, amalda barcha hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqargan.

*1-chizma*

### Temuriylar davlatining siyosiy tizimi



**Dargoh** qoshida maxsus kengash tuzilgan bo'lib, u mamlakatning ichki va tashqi siyosati bilan bog'liq vazifalarni bajarish bilan birga davlat lavozimlariga mansabdor shaxslarni tayinlash kabi masalalarni hal qilgan. Kengashda ko'rib chiqilgan masalalar kotib tomonidan yozib borilgan.

Amir Temur davlatni idora qilishda vazirlar, amirlar va viloyat voliyilariga alohida ahamiyat bergan.

Akademik Bo‘riboym Ahmedovning fikricha, mamlakatni boshqarishda yettita vazir yordam bergan.

1. *Vaziri a‘zam* (bosh vazir) davlatning barcha ishlari, xususan, aholining turmush tarzi, kirim-chiqim ishlari, viloyat va o‘lkalardan olinadigan soliq, mamlakatni tinchligini ta‘minlash kabi vazifalarga mas‘ul bo‘lgan. Vaziri a‘zam faqatgina podshoh oldida mas‘ul bo‘lgan.

2. *Sipoh vaziri* harbiy ishlar bo‘yicha javobgar bo‘lib, qo‘shin ta‘minoti va uning umumiy ahvolini nazorat qilib turgan.

3. *Moliya vaziri* davlat yer-suv va mulklarini boshqarish, yaylov va o‘tloqlarni nazorat qilish, boj va zakotdan tushgan daromad hisob-kitobini olib borgan.

4. *Saltanat ishlarini yurituvchi vazir* davlat muassasalarining kirim-chiqimlari, xazinadan olib sarflanayotgan xarajatlarni tasarruf qilib turgan.

5. *Adliya vaziri* nozirlar devoni (yoki devoni adl)ga rahbarlik qilgan.

6. *Mamlakatdagi barcha ishlardan xabardor bo‘lib turuvchi vazir* devoni mansabni boshqargan.

7. *Tashqi ishlar vaziri* Amir Temur davlatining xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o‘rnatish, turli muzokaralar olib borish bilan shug‘ullangan.

Amir Temur davlati tarkibiga kirgan Movarounnahrda boshqa barcha o‘lka va davlatlarni to‘rtta *ulusga* bo‘lib idora qilgan.

Markaziy hokimiyat tizimiga esa quyidagi mansab va vazifa egalari kirgan.

**Arzbegi** — aholi shikoyatlarini qabul qiluvchi va hukmdorga yetkazuvchi shaxs.

**A‘lam** — fiqh va shariat qonunlarini yaxshi biluvchi, maslahatchi, hozirgi kunda advokat vazifasini bajaruvchi shaxs.

**Amir** — qo‘shin boshlig‘i.

**Bakovulboshi** — saroy oshpazlari boshlig‘i.

**Bitikchi** — davlat kotibi, munshiy deb ham atalgan.

**Daftardor** — moliya mahkamasi xizmatchisi, soliq daftarini yurituvchi.

**Devonbegi** — hukumat devonlarining boshlig‘i.

**Jarchi** — davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan yangiliklar va bo‘layotgan muhim voqealarni xalqqa yetkazuvchi.

**Dorug‘a** — shahar hokimi.

**Zinbardor** — podshoh va shahzodalarni otlariga egar uruvchi xizmatkor.

**Kutvol** — qal‘a boshlig‘i.

**Omil** — mahalliy hokim.

**Otaliq** — shahzoda va xonzodalarning tarbiyachisi.

**Majlisnavis** — mamlakat ahamiyatiga molik ishlardan tortib to shaxsiy murojaatlargacha qayd etib boruvchi devon xizmatchisi.

**Miroxur** — podshoh otxonasi xizmatlarini nazorat qilgan.



**Mushrif** — davlat nazoratchisi.

**Muhosib** — soliq va o'lpun yig'uvchi kichik mansabdor.

**Muftiy** — musulmon qonunshunoslari boshlig'i. Mansab jihatidan qozi kalondan yuqori turgan.

**Muhtasib** — aholini shariat qonun-qoidalarini qay darajada bajarish va bozorlarga narx-navo va toshu tarozilarning to'g'riligini nazorat qilib turgan.

**Munshiy** — podshohning shaxsiy kotibi.

**Muhandis** — quruvchi-injener.

**Naqib** — qo'shinga jang oldidan o'rinlarini belgilab beruvchi mansabdor.

**Filbon** — jangovar fillarni tassaruf qilgan shaxs.

**Sadr a'zam** — sayidlar va diniy arboblarga berilgan imtiyozli yerlar (suyurg'ol) va vaqf mulklarini taftish qilib, podshohga hisobot berib turgan mansabdor.

**Sohibi devon** — hukumat devonining boshlig'i; vaziri a'zam.

**Tavonchi** — oliy hukmdor amri bilan harbiy yurishlar oldidan lashkar to'plovchi va maxsus topshiriqlarni ijro etuvchi harbiy mansabdor.

**Farrosh** — podshoh saroyi tozaligiga javobgar shaxs.

**Faqih** — huquqshunos olim.

**Xabargir** — boshqa mamlakatlar haqida ma'lumot berib turuvchi.

**Xazinador** — podshoh va davlat xazinasini tassaruf etib turuvchi mansabdor.

**Xonsolar** — dasturxonchi.

**Chuhraboshi** — podshoh va shahzodalarning shaxsiy qo'riqchisi.

**Shayxulislom** — musulmon jamoasining boshlig'i.

**Yurtichi** — harbiy yurishlar paytida qo'nib o'tiladigan manzillarga podshohning o'rdasini joylashtirishga mas'ul bo'lgan shaxs.

**Qozi kalon** — mamlakat qozisi.

**Ahdos qozisi** — fuqarolarning o'rtasidagi kelishmovchilik va tortishuvlarni dunyoviy qonunlar asosida hal qilgan mansabdor.

**Shariat qozisi** — shariat qonunlariga asoslanib ish yuritgan sudya.

**Qo'rboshi** — qurol-aslaha ombori boshlig'i.

**Qurchi boshi** — podshoh va shahzodalarning qurol-aslahasini ko'tarib yuruvchilar boshlig'i.

**Qushbegi** — podshohning ov hayvonlarini tassaruf qilib turgan xizmatkorlar (qushchilar)ni boshqargan.

**Qorovulbegi** — davlat qo'riqchilari boshlig'i.

Amir Temur saltanat ishlarida o'zining pirlari maslahatlaridan ham keng foydalangan. «Temur tuzuklari»da sohibqironning pirlari va ularning ko'rsatmalari bayoni berilgan. Masalan, xurosonlik yirik shayx Zaynuddin Abubakr Toyobodiy Amir Temurga davlat boshqaruvi ishlarida kengash, mashvaratu maslahat, hushyorlik, ehtiyotkorlik amallariga rioya etishni maslahat bergan.

Davlat boshqaruvi ishlarida Amir Temur islom qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Qur'oni Karim va Hadisi shariflarga bo'lgan munosabati samimiy bo'lgan. Davlatni kuchaytirishda payg'ambar avlodlari, shayxulmashoyixlarga tayanib ish yuritgan.

Amir Temur davrida mamlakatning ijtimoiy tuzumida ham tub buri-lishlar yuz bergan. Movarounnahrda aholining yashash darajasi va sharoiti yaxshilangan. Yagona markazlashgan davlatning shakllanishi va rivoj topishi bilan oddiy aholining tinch turmush kechirib, mehnat qilishi uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Ma'lumki, mo'g'ullar hukmronligi davrida xalq ommasi nihoyatda og'ir hayot kechirgan. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u mamlakatda qayta tiklash ishlariga katta e'tibor berdi.

Amir Temur davlatining sarhadlari Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Kavkaz, Iroq singari mamlakatlarni o'z ichiga olgan. Amir Temur mana shu ulkan mamlakatni boshqarishda aholini ma'lum ijtimoiy qatlamlarga bo'lgan. «Temur tuzuklari»da ushbu masalaga alohida to'xtalib, aholining 12 ta guruhi (ijtimoiy toifalar) mufassal bayon etiladi:

1. Sayidlar, olimlar va shayxlar.
2. Tajribali ilmi kishilar.
3. Duo qiluvchi taqvodorlar.
4. Sipohlar, sarhang va amirlar.
5. Askarlar va xalq ommasi.
6. Davlat boshqaruvini biluvchi maslahatchilar.
7. Vazirlar, kotiblar, devon boshlig'i.
8. Tibbiyot ahli, munajjim va muhaddislar.
9. Muhaddis va muarrixlar.
10. Tasavvuf vakillari va oriflar.
11. Hunarmand va san'atkorlar.
12. Ajnabiy sayyohlar va savdogarlar.

Yuqoridagi ijtimoiy qatlamlar Amir Temur davlatining ma'muriy-boshqaruv tizimidagi tartiblar bilan aloqador holda uning harbiy-siyosiy xarakterda bo'lganligini ham ko'rsatib turibdi.

Ijtimoiy tuzumni mulk egaligisiz tasavvur etish mumkin emas. Amir Temur davrida ziroatchilik bilan mashg'ul qishloq ahli orasidan ma'lum qismi imtiyozlarga ega bo'lgan, ya'ni davlatga juda oz miqdorda soliq to'lashgan. Aholining asosiy qismi ijarachi chorikorlar va jamoatchi dehqonlarni tashkil qilgan. Qishloqlar jamoa yoki qariya deb atalib, uning mulki butun jamoa ahliga qarashli bo'lgan.


Hunarmandchilik sohasida asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar ijtimoiy toifa vakili erkin hunarmandlar hisoblanib, ular shaharda yashovchi savdogarlar bilan bir qatorda madaniy markazning o'rtahol toifa vakillari bo'lgan. Bular jumlasiga o'rtahol islom peshvolarini va amaldorlarni ham kiritish mumkin.

Amir Temur o‘ziga tobe mamlakatlarning raiyat kayfiyatini, turmushini, biror kishi ularga jabr-sitam qilsa, ularni jazolash tadbirlarini qonunlarida qayd etib o‘tgan.

Har bir shaxs o‘z qobiliyati va o‘z xohish-irodasiga ko‘ra, shuningdek, bilim va tajribasiga muvofiq muayyan vazifani egallay olardi. Agar shu vazifani uddalasa, yuqoriroq darajaga ko‘tarilardi.

2-chizma

### Temuriylar davrida mahalliy hokimiyat



Amir Temur va temuriylar davrida soliq tizimida ma’lum tub islohotlar o‘tkazilgan. Temuriylar davrida quyidagi soliq turlari amalda bo‘lgan:

1. **Suyurg‘ol** — xususiy mulk turi keng tarqalgan bo‘lib, yerdan, asosan, xiroj (mol) undirilgan. Xiroj pul yoki natura shaklida olingan bo‘lib, hajmi hosilning yarmi miqdoriga borgan.

2. **Shumor (jizya)** — harbiy yurishlar natijasida mag‘lub shaharlar aholisidan olingan.


3. **Avorizot** — mamlakat katta xavf ostida qolganda favqulodda yig‘iladigan soliq turi.

4. **Ulog‘** — mamlakat hududidan chopar yoki elchilar o‘tayotganda, zarurati bilan ularga ot topib berishdir.

5. **Tamg‘o** — do‘kondor hunarmandlardan olingan.

6. **Begar** (hashar) — zaruriyat bilan aholini qasr qurilishi, sug‘orish inshootlari qurish ishlariga jalb etish. Bunda **mirobona**, **dorug‘ona** soliqlari undirilgan.

### Temuriylar davri boshqaruv tizimi



7. **Zakot** — naqd boylikning (o‘z ehtiyojidan ortiq boylikning) 2,5% ini muhtojlarga berish. U yiliga bir bor berilib, ko‘chmas mulkning 1/40 hajmida bo‘lgan.

8. **Boj** — chegara hududlarida bojxonalarning chetdan keladigan savdogarlardan oladigan soliq turi.

9. **Tagjoy** — mahalliy savdogarlar to‘laydigan soliq.

10. **Tanobona** — bog‘dorlar to‘laydigan soliq turi.

Amir Temur va temuriylar davrida huquqiy munosabatlar shariat qonunlari asosida bo‘lgan. Bundan huquqiy munosabatlar va qonuniy ushurlar «Temur tuzuklari»da mufassal bayon qilingan. Unda bayon etilishicha, dunyoviy masalalar hukmdorning o‘zi tomonidan nazorat qilingan. Shariat ishlarini boshqarish esa, shariat qozisi zimmasiga yuklatilgan. Biroq davlatning devonida, uning turli bo‘g‘inlarida ham alohida qozilar sud, jinoyat va jazo ishlarini amalga oshirganlar. Masalan, lashkar uchun maxsus qozi, raiyat uchun alohida qozi tayinlangan.

Shayxulislom — har bir mamlakatda musulmonlarni nojo‘ya ishlardan saqlash, savob ishlarga undash bo‘yicha mas’ul shaxs hisoblanadi.

Sadrlar — asosan sayyidlardan chiqqan shaxslar bo‘lib, ahli islomga boshchilik qilgan. Ularning eng muhim vazifalaridan biri mamlakatdagi vaqflarni nazorat qilish bo‘lgan. Sadrlar suyurg‘olni ham belgilab turganlar.

Mutavalliy — sadrlar tomonidan tayinlanib, vaqf mulklarini boshqarish va nazorat qilish ishlarini amalga oshiradi.


Qozi — shahar va viloyatlarda, devonning turli bo‘g‘inlaridagi qonun nazoratchisi.

Mudarris — dars beruvchi.

Muhtasib — bozorlarda tarozi, narx-navoni nazorat qiluvchi mas’ul shaxs.

4-chizma

#### Temuriylar harbiy boshqaruv tizimi



Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson madaniy hayoti, o'z mohiyati bilan Sharq renessansi davri deb nomlanadi.

Amir Temurning buyuk davlat tuzish haqidagi harbiy va ichki siyosiy tadbirlarning amalga oshirilishi madaniy yuksalishga katta ijobiy turtki bo'lgan. Mashhur me'moriy obidalar, Ulug'bek astronomiya maktabi, diniy va dunyoviy fanlar taraqqiyoti, adabiy hayotdagi muhim burilishlar Amir Temur va temuriylar davrining hosilasidir.

Temuriylar davlati siyosiy, ijtimoiy, boshqaruv va mahalliy hokimiyat tizimlari o'z mohiyatiga ko'ra o'zbek davlatchiligining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Bu hodisaning ildizlari ming yillik davlatchilik tajribalariga borib taqaladi. Ana shu ijodiy va tarixiy imkoniyatning ro'yobga chiqishi uchun esa, tarixiy zaruriyat sifatida mustahkam markazlashgan davlat barpo qilmoq, o'zaro nizolarni tugatmoq zarur edi. Ana shu tarixiy zaruriyatga Amir Temur asos solgan davlat xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning tarixdagi xizmati shundan iboratki, u davlatchilikning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatining tartib-qoidalarini, huquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi. Temuriylar davri, bevosita ana shu an'ananing davomchisi sifatida tarix sahnasidan o'rin egalladi. Bu davrdagi davlat boshqaruvi nafaqat musulmon mamlakatlari, balki dunyoning ko'plab davlatlarida boshqaruv tizimlari uchun ibrat maktabi bo'lib qolgani bilan alohida ahamiyatlidir.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Amir Temur davlatining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat edi?
2. Amir Temur davlatni boshqarishda qanday asoslarga tayanar edi?
3. Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvi qanday idoralar yordamida amalga oshirilardi?
4. Markaziy hokimiyat tizimida qanday mansab va lavozimlar bo'lgan?
5. Amir Temur va temuriylar davrida huquqiy munosabatlar qanday amalga oshirilar edi?
6. «Temur tuzuklari»da qanday ijtimoiy guruhlar qayd etilgan?

---

---

## 5-mavzu. XVI—XIX ASR OXIRLARIDA BUXORO XONLIGI (AMIRLIGI) DAVLAT MUASSASALARI TARIXI

1. Shayboniylar davri davlat boshqaruv tizimi.
2. Ashtarxoniylar davri davlat boshqaruvi.
3. Buxoro amirligi davlat muassasalari.

Ma'lumki, Buxoro xonligi tarixiga nazar tashlanganda, uch sulola hukmronligini ko'rish mumkin. Bular shayboniylar (XVI asr), ashtarxoniylar (yoki joniylar: XVII—XVIII asr o'rtalari) va mang'itlar hukmronligi davri. Mazkur sulolalar davlat tizimida umumiylik jihatlari ko'rinib-da, xonlikning siyosiy nufuzi, kuch-qudrati turlicha bo'lganligi sababli uning o'ziga xos jihatlari alohida e'tirof etish zarur. Shu sababli Buxoro xonligini quyidagicha atash maqsadga muvofiqdir:

1. Shayboniylar davlati.
2. Ashtarxoniylar davlati.
3. Buxoro amirligi.

### Shayboniylar sulolasi hukmdorlari

No	Hukmdor nomi	Hukmdorlik yillari
1.	Muhammad Shayboniyxon	1451—1510 yy.
2.	Kuchkinchixon	1510—1529 yy.
3.	Abusayidxon	1529—1533 yy.
4.	Ubaydullaxon	1533—1539 yy.
5.	Abdulazizxon	1540—1550 yy. Buxoroda
6.	Abdulatifxon	1540—1551 yy. Samarqandda
7.	Navro'z Ahmadxon (Baroqxon)	1540—1551 yy. Toshkent hokimi.
8.	Iskandarxon	1560—1583 yy.
9.	Abdullaxon Ikkinchi	1557-1583—1598 yy.
10.	Abdulmo'min	1598 yilda 6 oy taxtda o'tiradi.
11.	Pirmuhammad Ikkinchi	1598—1601 yy.


Shayboniylar sulolasiga asos solgan Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon iste'dodli shoir va bilimdon siyosatchi edi. 1494-yildan, Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzo vafotidan so'ng, temuriy shahzodalar o'rtasida nizo kuchayib, bu oilaning shuhrati so'na boshladi. Bundan foydalanishga intilgan Shayboniyxon 1497—1507-yillarda Movarounnahrni egalladi.

Shayboniylar davlati o'z mohiyatiga ko'ra yirik davlat bo'lib, oliy hokimiyat cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i — xon tomonidan boshqarilgan. Xonlik siyosiy tizimida, boshqaruvida Amir Temur va temuriylar davri tartib-qoidalari bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar an'anasi ham mavjud edi. Davlat boshqaruvi shariat qonunlari asosida amalga oshirilgan. Davlatni

boshqarishda xon saroyidagi oliy darajadagi amaldorlardan tashkil topgan **markaziy boshqaruv** va viloyat hokimlari qo‘lidagi **mahalliy boshqaruv** asosiy o‘rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar. Ular yordamida, bevosita ishtirokida xon ma‘muriy boshqaruvni amalga oshirardi. Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog‘liq barcha masalalarni hal qiladigan dargoh — saroy devonida jamlangan edi. Davlatning oliy darajali amaldorlari a‘zo bo‘lgan va odatda, bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama mamlakatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko‘rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig‘i bilangina kuchga kirar va hayotga joriy etilardi.


Davlat markaziy boshqaruvi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan:

1-chizma



Mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari qo‘lida bo‘lib, ular ham o‘z boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan. Unga qo‘shinga boshchilik qiladigan, aholidan soliqlarni yig‘ib oladigan, shariat qonunlari bajarilishini nazorat qiluvchilar kirgan. Viloyatlar o‘z navbatida, kichik ma‘muriy birliklar — tuman, qasaba, mavzelarga bo‘linib idora qilingan:

2-chizma





Shayboniylar davlatining ma'muriy tuzilishi — Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Hisor, Balx, Termez, Karmana, Qorako'l, Miyonko'l, Shosh, Turkiston, Farg'ona, O'rtepa, Marv kabi viloyatlarni o'z ichiga olgan.

Shayboniylar davri ijtimoiy tizimida quyidagi tabaqalarni ko'rsatish mumkin:

**1. Oliy tabaqa.** Unga xon va uning yaqinlari, o'zbek sultonlari, yirik saroy amaldorlari kiritilib, davlat boshqaruvini shular amalga oshirgan.

**2. Umaro.**

**3. Ulamolalar.**


**4. Fuzalo.**

**5. Raiyat (fuqaro).**

**6. Qullar.**

Mazkur ijtimoiy tizimni quyidagi chizma yordamida aks ettirish mumkin:

*3-chizma*



Shayboniylar sulolasi davrida qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik), savdo-sotiq va hunarmandchilik iqtisodning asosiy tarmoqlari hisoblangan.

Mamlakatning asosiy boyligi yer bo‘lib, mulkchilikning quyidagi shakllari mavjud bo‘lgan:

1. Mulki sultoni — davlatga qarashli yerlar.
2. Mulki xolis — xususiy shaxslarga tegishli yerlar.
3. Vaqf — diniy mahkamalarga, madrasa, masjid va qabristonlarga qarashli yerlar.

4. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar.

Shayboniylar davrida savdo-sotiq mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lgan. Savdo bilan shug‘ullangan kishilar ikki toifaga bo‘lingan:

1. Savdogarlar — yirik toifa.
2. Do‘kondorlar — kichik toifa.

Tarixiy manbalar, hujjatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Shayboniylar davrida 40 dan ortiq turli soliq va jarimalar mavjud bo‘lgan. Soliq to‘lovchilar, asosan, raiyat hisoblangan.

Soliqlar (eng asosiy turlari):

1. Xiroj — yer solig‘i, ishlab chiqarilgan mahsulotning 1/5 miqdorida pul yoki mol shaklida olingan.

2. Zakot — savdogar va chorvadorlardan olinib, daromadning 1/40 miqdorida bo‘lgan.

3. Tagjoy — do‘kondorlardan savdo rastalari ijarasi uchun olingan.

4. Jiz‘ya — g‘ayridin savdogarlardan mahsulotining 1/5 qismi hajmida olingan.

Shayboniylar davrida madaniyat, adabiyot, san‘at, tarixnavislik, (tibbiyot) fan, me‘morchilik bevosita temuriylar an‘anasining davomi sifatida rivojlandi. Ushbu sulola hukmronligi o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega davrlardan biri ekanligi ko‘rinib turibdi.

Shayboniylar sulolasidan so‘ng Buxoro taxtiga Ashtarxoniylar (yoki Joniylar) sulolasi kelgan. Oliy hokimiyatni 150 yildan ortiq (1601—1756-yy.) davr mobaynida egallagan ashtarxoniylar davrida markaziy davlat hokimiyati zaiflashdi, ma‘muriy hudud qisqardi. Markaziy hokimiyat mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilmagani sababli XVII asr boshlaridayoq Xurosonning katta qismi qo‘ldan ketdi. Ma‘muriy hudud parchalanib, Xorazmda mustaqil Xiva xonligi tashkil topdi; XVIII asr boshida esa, shimoliy chegaralarda Qo‘qon xonligiga asos solindi. Umuman, ashtarxoniylar davri yagona markaziy hokimiyatning kichik davlatlarga bo‘linishidagi ziddiyatli davr sifatida tarixda iz qoldirdi.

Bu davrga oid quyidagi tarixiy manbalar mavjud:

1. Mahmud ibn Vali «Bahr ul asror fi manojib ul-ahyor» (Olijanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi).

2. Mir Muhammad amin Buxoriy «Ubaydullonoma».

3. Muhammad Yusuf Munshi «Tarixi Muqimxoniy».

4. Xo‘ja Samandar Termiziy «Dastur al-Muluk».

5. Abulg‘oziy Bahodirxon «Shajarayi turk».

6. Muhammad Amin Buxoriy «Muhit ut-tavorix».

7. Muhammad Vafo Karmanagiy «Tuhfat ul-xoniy».

## 8. Abdurahmon To'le' «Tarixi Abulfayzxon».


Ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligini quyidagicha aks ettirish mumkin.

№	Hukmdor nomi	Hukmronlik yillari
1.	Boqi Muhammad	1601 — 1606-yy.
2.	Vali Muhammad	1606 — 1611-yy.
3.	Imomqulixon	1611 — 1642-yy.
4.	Nodir Muhammadxon	1642 — 1645-yy.
5.	Abdulazizxon	1645 — 1681-yy.
6.	Subxonqulixon	1681 — 1702-yy.
7.	Ubaydullaxon	1702 — 1711-yy.
8.	Abulfayzxon	1712 — 1747-yy.

Bu sulola vakillaridan, ayniqsa, Nodir Muhammad, Abdulazizxon va Subxonqulixon davrida mamlakatda siyosiy vaziyat izdan chiqdi, mahalliy kurashlar avj oldi. Bu kurashlarda hokimiyatning asosiy tayanchi din peshvolari edi. Shu sababli bu davrda yer maydonlari ommaviy ravishda diniy mahkamalar va yirik ulamolar ixtiyoriga o'ta boshladi. Mamlakatda kuchaygan diniy mutaassiblik dunyoviy taraqqiyotni bo'g'ar, davlat va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilardi. Subxonqulixon davrida xivaliklar tomonidan Zarafshon va Qashqadaryo vohasiga uyushtirilgan talonchilik urushlari natijasida vayronagarchiliklar bo'lib, xalqning iqtisodiy hayoti yomonlashdi. Soliqlar oshirilib, 7-yillik soliqlar birdaniga yig'ib olinib boshlandi.

XVIII asr boshlariga kelib Ashtarxoniyalar davlati inqirozi yanada kuchaydi. Ubaydullaxon davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga, mamlakatdagi boshboshdoqliklarni tugatishga harakat qilindi.

4-chizma



1708-yilda Ubaydullaxon o'tkazgan pul islohoti siyosiy-iqtisodiy vaziyatni chigallashtirdi.

Ubaydullaxon o'limidan so'ng taxtga o'tirgan Abulfayzxon davrida siyosiy parokandalik avj oldi, buning oqibatida Abulfayzxon saroy fitnasi orqali o'ldirildi. Hokimiyatni Muhammad Rahim mang'it egalladi. Garchand taxtga Abulfayzxonidan so'ng Abulmo'min (1747—1751), Ubaydullaxon II (1751—1754), Sherg'ozixon (1754—1756) Buxoro taxtiga rasman o'tqazilsa-da, amalda davlat boshqaruvi butunlay Muhammad Rahim mang'it qo'lida bo'lgan. Bu holat 1756-yil dekabrda Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola — mang'itlar hukmronligining kelishiga asosiy sabab edi.

Ashtarxoniylar davlat tizimi o'z tuzilishi va mohiyatiga ko'ra Shayboniylar hokimiyati kabi edi.

Markaziy boshqaruv, asosan, xon saroyidagi amaldorlar qo'lida bo'lib, eng katta mavqe egasi otaliq bo'lgan.

Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo'ysunish, belgilangan yillik soliqlarni to'plab, xon xazinasiga yuborib turish, xon farmoniga ko'ra harbiy yurishlarda o'z qo'shinlari bilan qatnashishidan iborat edi, xolos. Viloyat hokimlari ham o'z boshqaruv tizimiga va harbiy kuchlariga ega edi.

Ashtarxoniylar davrida harbiy va ma'muriy amaldorlar katta huquqlarga ega edi. Ular bilan bir qatorda yirik din peshvolari — **xojalar** va diniy mansab egalari — **shayx ul-islom**, qozi kalon, sadr va boshqalarning ahamiyati katta bo'lgan. Davlat boshqaruvida Jo'ybor xojalarining mavqeyi ham bu davrda yuqori bo'lib, asosiy diniy mansabdorlar ular orasidan tayinlangan.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligining avvalgi hududi keskin qisqardi. XVII asr boshlarida xonlikka bo'ysunuvchi 6 ta viloyat (Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz, G'uzor) mavjud edi. Keyinchalik Imomqulixon tomonidan Hisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Balx viloyatlari qayta bo'ysundirildi. Ammo bu paytda Hirot, Xorazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqib ketgan edi. Viloyatlar, o'z navbatida, tumanlarga, qasabalarga, qishloqlarga bo'lingan edi.

Ashtarxoniy davrida ijtimoiy tabaqalar shayboniylar davridagi kabi nomlangan bo'lsada, ularning mavqeyida o'zgarishlar yuz bergan. Rasman oliy tabaqa hisoblangan xon va yirik saroy amaldorlari ko'p hollarda, harbiy-ma'muriy mansabdorlar, viloyat hokimlari fikri bilan hisoblanishiga majbur bo'lib, bu esa ularning ijtimoiy ahvolini deyarli tenglashtirib qo'yardi.

Bu davrda Jo'ybor xojalari avlodlarining mavqeyi yanada oshdi. Asosiy soliq to'lovchi tabaqa — raiyat ahvoli og'irlashib bordi. Ijtimoiy tabaqaning eng pastida turgan qullarning, ayniqsa, saroy xizmatchisi qullarining mavqeyi oshib, xonning va yirik amaldorlarning qullariga, ba'zi hollarda amaldorlik ham tayin etildi (Muhammad Vaf o Karmanagi y «Tuhfat ul-xoniy»). Xonlarning shaxsiy qo'riqchilari ham qullardan iborat edi.

Ashtarxoniylar davrida o'zaro urushlar nihoyatda ko'p bo'lganiga qaramay, harbiy sohada biror marta islohot olib borilmagan. Zamonaviy qurollar

hisoblangan zambaraklar, mulkiylar bilan qo‘shinning ta‘minlanishi yomon ahvolda edi. Qo‘shin tarkibiga urush paytlari oddiy fuqarolar ham jalb etilgan, uyushgan markaziy harbiy qo‘mondonlik bo‘lmagan. Faqat Imomqulixon davridagina qo‘shinning jangovar qobiliyati birmuncha oshirildi.

Ashtarxoniylar davri iqtisodiyoti inqirozli ahvoli bilan alohida ajralib turadi. Qishloq xo‘jaligi o‘zaro urushlar natijasida rivojlanmadi. Yerga egalik quyidagi mulkchilik shakllariga ega edi:

1. Mulki sultoniy — xon va xon xonadonining shaxsiy boyligi.
2. Suyurg‘ol, iqto‘, tanho — harbiy-ma‘muriy amaldorlar mulki.
3. Vaqf yerlari — diniy amaldorlar mulki.

Chorvachilik ashtarxoniylar davrida qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i hisoblangan. Hunarmandchilik shahar va qishloqlarda rivojlana boshlagan. To‘qimachilik (ip yigirish, gazlama tayyorlash, tayyor kiyimlar tikish), kulolchilik, metall yoki yog‘och ishlovi, o‘ymakorlik rivojlangan.

Bu davrda tashqi savdo aloqalari ham rivojlandi. Xususan, Rossiyaning Astraxan, Orenburg, Sibirdagi shaharlariga, Hindiston, Eron, Koshg‘ar, Turkiya bozorlariga mahsulotlar olib borilgan. Bundan tashqari Rossiyaga Osiyo va Sharq mamlakatlari tovarlarini olib borishda ham O‘rta Osiyo savdogarlari katta rol o‘ynar edi.

Ashtarxoniylar davrida soliqlar davlat xazinasini boyitishning yagona usuli hisoblangan. Soliqlar soni va miqdori haddan ziyod edi. Masalan, Subxonqulixon davrida bir yilda 7 yillik soliq yig‘ib olinishi to‘g‘risida farmon qabul qilingan. Bu esa aholi turmush darajasining o‘ta yomonlashuviga olib kelgan. Asosiy soliq to‘lovchilar — raiyat (dehqonlar, hunarmand, savdogar va chorvador) hisoblangan.

Bu sulola davrida diniy amaldorlarning mamlakat boshqaruvidagi yuqori nufuzi diniy aqidaparastlikka, milliy tengsizlikni kuchayishi, ijtimoiy fikr va dunyoviy fanlar taraqqiyotining bo‘g‘ilishiga sabab bo‘ldi. Bir vaqtlar fan va madaniyat beshigi bo‘lgan Movarounnahr iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq o‘lkaga aylandi. Bu davrda 150 ga yaqin madrasalar faoliyat ko‘rsatsa-da, dunyo talabiga xos bilimlar berishdan o‘jiz edi. Ammo, tibbiyotning sharq tabobati usuli zamonaga mos ravishda rivojlangan. Xususan, Subxonqulixon davrida tibbiyotga asoslangan madrasa va shifoxona faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek, ijtimoiy fanlar sohasida ham rivojlanish davom ettirildi.

Xulosa qilib aytganda, Ashtarxoniylar davri (1601—1756-yy.) Movarounnahrda o‘zaro siyosiy kelishmovchiliklar, markaziy hokimiyatning zaiflashib borishi bilan xarakterlansa-da, madaniyatning ayrim sohalari, tarixnavislik, adabiyotdagi siljishlar bilan iz qoldirdi. O‘zbek davlatchiligi tarixi davlat boshqaruvi tizimida muhim saboq beradigan bu xonlik davri o‘zining butun faoliyati davomida yetarli xulosalar chiqarib olishimizga imkon beradi.

Buxoro xonligida XVIII asrning o‘rtalarida yuz bergan siyosiy voqealar o‘zbeklarning mang‘it urug‘i vakillarini hokimiyat tepasiga olib chiqdi. Bu bevosita yuqorida qayd etilganidek, Muhammad Rahim mang‘itning siyosiy faoliyati bilan bog‘liq. Hukmron sulola almashuvi davlatning siyosiy

maqomida ham o‘zgarish bo‘lishiga olib keldi. Yangi hukmdorlar hokimiyatni rasman «Amir» unvoni bilan boshqara boshladilar va bu davlat Buxoro amirligi nomi bilan tarixda qoldi.

#### **Mang‘it amirlari sulolasi**

№	Hukmdor nomi	Hukmronlik yillari
1.	Muhammad Rahim	1747—1756—1758-yy.
2.	Doniyolbiy	1759—1784-yy.
3.	Amir Shohmurod	1785—1800-yy.
4.	Amir Haydar	1800—1826-yy.
5.	Amir Nasrullo	1826—1860-yy.
6.	Amir Muzaffar	1860—1885-yy.
7.	Amir Abdulhad	1885—1910-yy.
8.	Amir Olimxon	1910—1920-yy.

1756-yil dekabr oyida Muhammad Rahim rasman taxtga o‘tirdi. Bir qancha siyosiy-ma‘muriy islohotlar o‘tkazib, o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgan Muhammad Rahimni Buxoroning qonuniy hukmdori ekanini tan olgani Qo‘qon, Toshkent, Marv, Balx va Qunduz bekliklaridan rasmiy elchilar tashrif buyurishdi. Muhammad Rahimdan so‘ng taxtga o‘tirgan Doniyolbiy mang‘it davrida Buxoroda davlat va din ishlarida buzuqlik ko‘paydi. Bu markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlarda ko‘rinadi.

Mamlakatdagi siyosiy boshboshdoqliklar natijasi o‘laroq, 1785-yilda Doniyolbiy hokimiyatni o‘g‘li Shohmurodga topshiradi.

Shohmurod Buxoro tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan hukmdorlardan biridir. U «amir» unvoni bilan davlatni boshqardi. Markaziy davlat boshqaruvini tiklash uchun Shohmurod o‘z hukmronligining dastlabki yillarida mamlakatdagi separatistik kuchlarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. U siyosiy vaziyatni yaxshilashga erishdi hamda qator ma‘muriy, iqtisodiy-madaniy islohotlarni amalga oshirdi.

Amir Shohmurod tomonidan o‘tkazilgan moliya, sud, ma‘muriy va harbiy sohalaridagi islohotlar natijasida mamlakat siyosiy-iqtisodiy jihatdan yuksaldi.

Shohmurod vafotidan so‘ng hokimiyatni uning o‘g‘li Amir Haydar boshqardi. (1800—1826-yy). Undan so‘ng taxtga Amir Nasrullo ko‘tarildi. Amir Nasrullo Buxoroning eng shafqatsiz va qonxo‘r hukmdori sifatida tarixda qoldi. Shu bilan birga u davlat hokimiyatini birmuncha mustahkamlagan, harbiy sohada islohot o‘tkazib, qo‘shinlar jangovar holatini oshirgan, mamlakat hududiy yaxlitligini birmuncha tiklagan hukmdor (1826—1860-yy.) edi.

Amir Nasrullodan so‘ng Buxoro taxtiga uning o‘g‘li Muzaffarxon o‘tirdi. Uning hukmronligi davrida Buxoro amirligining boy va hosildor Zarafshon vohasining yuqori va o‘rta oqimi Samarqand bilan birga ruslar tomonidan bosib olindi. Ruslar Toshkentni (1865), O‘ratepa va Jizzaxni (1866),

Samarqandni (1868) egallagach, 1868-yilning yozida Buxoroni bo‘ysundirdi. Buxoroning Rossiyaga qaram davlat ekanligi haqidagi hujjatga amir Muzaffar imzo chekishga majbur bo‘ldi. Amir Muzaffardan so‘ng Amir Abdulahad (1885—1910) va Amir Olimxon (1910—1920) o‘tirdilar. 1920-yilda amirlik bolsheviklar tomonidan butunlay tugatildi.

Mang‘itlar hukmronligi davrida ham Buxoroning davlat tizimida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirilmadi. Davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo‘lgan Amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa masalalarda Buxorodagi bosh qarorgoh — Arkda hal etilardi. Vaqti-vaqti bilan 5 tadan 20 tagacha eng yuqori amaldorlar a‘zo bo‘lgan Davlat Kengashida o‘ta muhim masalalar ko‘rib chiqilgan.



O‘zR KSOH MDA 0-15885 Buxoro amiri va uning mulozimlari general-leytenant Ivanov huzurida. — 1900-yy, joy nomi va muallifi noaniq.

Mang‘itlar davrida ham davlat boshqaruvi ikkiga bo‘g‘indan (hokimiyatdan) iborat bo‘lgan:

1. Markaziy boshqaruv.
2. Mahalliy boshqaruv.

Rossiya istilosiga qadar mang‘itlar sulolasi davrida **qo‘shbegi** eng oliy mansab hisoblangan. Aslida bu mansab egasi bosh vazir vazifasini bajargan.

Saroyda yana **devonbegi** mansabi bo‘lgan. U moliya ishlari — daromad va xarajatlar haqida, soliq yig‘ish ustidan to‘la nazorat ishlariga javob berar edi. Diniy unvon va mansablar **qozi, muftiy, muhtasib, rais** va **mudarrislik** bo‘lib, ular asosan, *sayyidlar, xo‘jalar* va *ulamo* ichidan tayinlanar edi. Diniy mansablarning eng yuqorisi **shayx ul-islom** bo‘lgan.

Mahalliy boshqaruv, o‘z navbatida viloyat (bekliklar) hokimlari — beklar va ularga bo‘ysunuvchi amaldorlardan tashkil topgan. Bu davrda davlat muassasalari bevosita davlat boshqaruviga mos tarzda tashkil etilgan.

Masalan, amirlikda qimmatbaho narsalar va amir savdo qiluvchi mollar saqlanadigan «yuqori omborxon»ni **yuqori qo'shbe**gi boshqargan. Zakotdan tushgan narsalar saqlanadigan «quyi omborxon»ni esa **quyi qo'shbe**gi boshqargan.

Jamoat tartiblarini saqlash mirshablarga topshirilgan bo'lib, odatda ular shahar mirshabboshisiga bo'ysungan. Shu narsani ta'kidlash kerakki, Buxoro shahri mirshabboshisiga bir vaqtning o'zida amirlikdagi boshqa barcha shaharlar mirshablari ham bo'ysungan.

Buxoro amirligidagi markaziy davlat boshqaruvida poytaxt shahar Buxoro alohida o'rin tutgan. Masalan, Buxoro shahri hokimi amirning birinchi vaziri va boshqa viloyat boshliqlari boshqaruvchisi hisoblangan. Buxoro shahri mirshablari boshlig'i esa, o'z navbatida, barcha bekliklardagi mirshablar ishini boshqargan. Poytaxt oliy qozisi — Qozi kalon amirlikdagi barcha qozilarning boshlig'i hisoblangan. Mana shu holat asosida Buxoro amirligida juda katta markazlashuv vujudga kelgan. Shu bilan birga, qo'shbe

gi, qozi kalon, bosh rais va Buxoro shahri mirshabboshisini birgalikda «chor hokim» (to'rt hokim) deb yuritilgan.

Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy va din peshvolarining tutgan o'rni ham o'ziga xos bo'lgan. Amirlikda din vakillari juda ko'p bo'lgan va ular ta'sirli kuchga ega bo'lishgan. Din vakillari aksariyat hollarda imtiyozli guruhlardan — sayyid va xo'jalardan tashkil topgan edi.

Chorizm istilosiga qadar bo'lgan davrda jamiyat madaniy hayotiga mas'ul bo'lgan shoirlar, mudarrislar, talabalar hayotida jiddiy o'zgarishlar bo'lmagan. Asosiy soliq to'lovchi aholi, jamiyat moddiy boyliklarini yaratuvchi ijtimoiy tabaqa bo'lgan raiyat, ijtimoiy tabaqaning quyi qismida qolib, ijtimoiy adolatsizliklarning asosiy og'irligi ular zimmasida edi. Mang'itlar davrida ham Buxoroda qulchilik saqlangan edi. Qullar asosan rus, eron millatlariga mansub bo'lib, harbiy talonchilik yurishlarida qo'lga olinar va turkmanlar yoki qozoqlar tomonidan Buxoro bozorida sotilar edi. Amirlikda davlatni ijtimoiy tabaqalarga bo'lishda aholining qaysi millat yoki urug'ga mansubligiga ham e'tibor berilgan.

Masalan, ba'zi manbalarda amirlikdagi barcha aholi quyidagi tabaqalarga bo'lingan:

1. **Oqsuyaklar:** ularga Muhammad payg'ambar avlodlari hisoblangan sayyidlar hamda xojalar kirgan.

2. **Urug'dorlar:** ularga o'z urug'iga ega barcha aholi, ya'ni o'zbeklar mansub bo'lgan.

3. **Shogird pasha:** ularga tojiklar, forslar mansub bo'lgan.

4. **Mullalar:** ularga madrasani tugatgan va yetarli bilimga ega bo'lgan o'qimishli barcha kishilar kirgan.

Bu tabaqalarning barchasi o'z navbatida sipoyi, ya'ni davlat tizimida bo'lgan amaldorlarga va fuqarolarga bo'lingan.


Buxoro amirligida davlat muassasalari tarixiga nazar tashlanganda, ijro muassasalaridan biri — sudlovchi idora alohida ahamiyatga ega. Asosiy



sudlov idorasi qozilik mahkamalari hisoblanib, qozikalon butun mam-lakatning bosh qozisi bo'lgan. Jinoyatni aniqlash va jazo belgilashda shariat qonunlari va asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan odob-axloq qoidalari asosiy mezon bo'lgan.

5-chizma

### Buxoro amirligi boshqaruv tizimi



Buxoro amirligi iqtisodiy hayotida dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog'i hisoblangan.

XVIII asr oxirlarida dehqonchilikda birmuncha tiklanish ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, chorvachilikda qorako'l teri yetishtirishga ixtisoslashtirilgan qo'ychilik rivojlanib bordi.

Hunarmandchilik sohasida kulolchilik alohida ahamiyatga ega. Uning markazlari G'ijduvon, Qarshi, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on shaharlari edi.

To‘qimachilikda Buxoro zarbof to‘nlari, Shahrisabzning iroqi do‘ppilari, Samarqand ipak buyumlari, ayniqsa, mashhur edi. Bundan tashqari, amirlikda metallga ishlov berish sohasi ham rivojlandi. Temirchilik, misgarlik, degrezlik (cho‘yan quyish), rixtagarlik (bronzadan buyumlar yasash), kandakorlik ancha takomillashdi.

Buxoro amirligidagi ta‘lim muassasalari sifatida (eski) maktablar va madrasalarni e‘tirof etish mumkin. XIX asr boshlarida, Buxoro shahrining o‘zida vaqf daromadlari hisobiga faoliyat ko‘rsatadigan 108 ta madrasa bo‘lib, ularning 60 tasi asosiy ta‘lim muassasalari hisoblangan. Madrasa ta‘limi 3 bosqichda amalga oshirilgan:

I. Past qadam.

II. Miyona.

III. Peshqadam.

Bu davrda madrasalarda asosan, diniy-axloqiy ta‘lim berishga asosiy e‘tibor qaratilib, dunyoviy bilim berish bir qadar orqada qolgan edi.

Ushbu davr madaniy hayoti haqida adabiyot, tarix, xattotlik, musiqa san‘ati yodgorliklari, me‘morchilik obidalari muhim ma‘lumotlar beradi.

Umuman olganda Buxoro amirligi boshqaruv tizimi Rossiya imperiyasi istilosidan so‘ng ham o‘zgarishsiz saqlanib qoldi. Biroq, 1886-yilda «Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom»ning qabul qilinishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar Turkiston general-gubernatorining tashqi siyosat masalalaridagi vakolatlariga ham daxldor etdi. Bu, eng avvalo, Rossiya—Buxoro munosabatlarida o‘z aksini topdi. 1886-yil yanvar oyida Buxoroda Tashqi ishlar vazirligining organi hisoblangan **Rossiya imperatorining siyosiy agentligi** ochildi. Uni boshqargan amaldor chor Rossiyasining Buxoro amirligidagi rasmiy vakili hisoblanar edi.

Siyosiy agent Buxoro hokimiyatining faoliyati ustidan umumiy siyosiy nazoratni amalga oshirardi va Rossiya—Buxoro munosabatlarining barcha masalalarini idora qilardi. Shuningdek, u Buxoro amirligida bo‘lib turgan rus fuqarolarining shaxsiy, mulkiy va savdo manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq turli konsullik majburiyatlarini ham bajarar, xristian diniga mansub xorijiy fuqarolarning manfaatlarini himoya qilardi.

Buxoro hududida rus manzilgohlari yuzaga kelganligi sababli, siyosiy agentlik umumiy ma‘muriy va sudlov vazifalarini ham bajarar edi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Shayboniylar davrida ma‘muriy boshqaruv kimlarning yordamida amalga oshirilgan edi?
2. Shayboniylar davlatida markaziy va mahalliy boshqaruv qanday ko‘rinishga ega bo‘lgan?
3. Ashtarxoniylar davlati markaziy boshqaruv tizimida otaliq qanday mavqega ega bo‘lgan?
4. Ashtarxoniy davrida ijtimoiy tabaqalar mavqeyida qanday o‘zgarish yuz bergan?
5. Mang‘itlar sulolasi hukmronligida qanday mansab va unvonlar mavjud bo‘lgan?
6. Buxoroda tashkil etilgan Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qanday vakolatlarga ega edi?

## 6-mavzu. XIVA XONLIGINING DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI


1. Xiva xonligining tashkil topishi.
2. Xiva xonligining davlat boshqaruvi tizimi.
3. Xiva xonligidagi davlat muassasalari.

Xiva xonligi Amudaryoning quyi oqimidagi qadimgi Xorazm vohasida XVI asr boshlarida shakllangan feodal davlat bo'lib, XVII asr boshlaridan mustaqil davlat sifatida boshqarilgan.

Xiva xonligining siyosiy tarixiga nazar tashlanganda, unda bevosita 2 ta bosqichni ko'rish mumkin:

1. Xiva xonlari sulolasi davri.
2. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmdorlari davri.

Har bir sulola hukmronligining xronologik ko'rinishi quyidagicha:




Xiva xonligi Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi davlatlari kabi parchalangan Ashtarxoniylar saltanatining bir bo'lagi sifatida shakllana boshladi.

XVIII asrga qadar Xivada muayyan bir sulola hukumatni egallamas edi. Chingiziy sulolasiga mansub ba'zi shaxslar Xivaga da'vat etilib, xonlik taxtiga ko'tarilardi, ammo hukumat qudrati qo'ng'iro't sulolasidan bo'lgan **inoq** qo'lida edi. XIX asrning boshida inoq faqat harbiy amallarnigina emas, balki ma'muriy va boshqaruv amallarni ham qo'lga oladi.

1804-yili inoq Eltuzar o'zini xon deb e'lon qiladi. Turli viloyatlarning bir davlat bo'lib birlashishi keyinchalik muhim davlat ishlarini hal etish uchun oliy martabali amaldorlar va urug' boshliqlaridan iborat oliy kengash ta'sis etgan va unga rahbarlik qilgan, soliq islohotini o'tkazgan va bojxonalar tashkil etgan Muhammad Rahim I davrida yuz berdi.

*1-chizma*

### Xiva xonligi boshqaruv tizimi



Olloqulixon davrida (1825—1842-yy.) Xiva xonligi katta hududlarni hukmronlik doirasiga kiritdi. XIX asr oxirida ruslar istilosidan so'ng Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi. 1920-yilda esa bolsheviklar tomonidan butunlay tugatildi.

Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimchilikka asoslangan davlat bo'lib, uning boshqaruv tizimi Buxoro va Qo'qon xonliklaridan deyarli farq qilmas edi. Eng yuqori unvon sifatida **Xon** mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan. Uning qo'lida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, diniy va sud hokimiyati mujassamlashgan edi.

Xiva xonligida davlat tili o‘zbek tili bo‘lib, Buxoro va Qo‘qon davlatlaridan farqli ravishda, bu yerda ikki tillilik hukmron emas edi. Barcha farmonlar, davlat ishlari, hujjatlar o‘zbek tilida yozilardi.

Xiva xonligi ma‘muriy jihatdan bekliliklarga bo‘lingan bo‘lib, 16 ta beklilik va 2 ta noiblik mavjud bo‘lgan. Ularni xon tomonidan tayinlangan beklar va noiblar boshqargan. Xiva shahri esa xon va bosh vazir (inoq)ning izmida bo‘lgan. Shunday qilib, Xiva xonligi ma‘muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qozog‘iston va Turkmanistonning bir qismini o‘z ichiga olgan davlat edi.

Xonlikda o‘troq dehqonchilik tumanlarida ko‘proq o‘zbeklar yashaganlar. Bundan tashqari, aholining etnik tarkibida turkman, qoraqalpoq, qozoqlar, kam miqdorda tojik, eroniy, yahudiylar va armanlar ham bor edi.

Har bir davlatning boshqaruv tizimida aholining ijtimoiy tabaqalanishi, shuningdek, amaldor shaxslarning muayyan o‘rni bo‘lgan. Xiva xonligida ham oliy hukmdor o‘z hokimiyatini maxsus amaldorlar va xizmatchilar orqali amalga oshirgan. O‘tmishda qaysi bir davlatning markazlashtirilgan hokimiyati mustahkam bo‘lsa, u davlat rivojlangan. Davlat boshqaruvi bilan bog‘liq masalalardan biri bu jamiyatdagi tabaqalar va ijtimoiy guruhlarining o‘rganilishidir.

Yakka hokimlikka asoslangan o‘rta asr musulmon davlatlarida bo‘lganidek, Xiva xonligida xon va uning a‘yonlari katta ijtimoiy huquqlarga ega edi. Lekin bu mustahkam qonunlar kafolatlanmagan bo‘lib, hokimiyatga, ya‘ni cheklanmagan ijtimoiy huquqlarga ega bo‘lishga intiluvchi kuchlar xon hokimiyatiga doimiy ravishda katta xavf solib turardi.

Saroy amaldorlari, markaziy va mahalliy boshqaruvning yuqori pog‘onalarini egallab turgan ijtimoiy tabaqalar, harbiy-ma‘muriy amaldor va mansab egalari katta huquq va imtiyozlarga ega ijtimoiy tabaqa edilar.

Daxlsiz huquqlarga, aholining barcha ijtimoiy tabaqalariga katta ta‘sir ko‘rsatish kuchiga ega bo‘lgan oqsuyak tabaqa — shayxlar va xojalar eng nufuzli ijtimoiy tabaqa hisoblangan.

Xiva xonligi qo‘shni mamlakatlarga doimiy xavf solib, tez-tez talonchilik urushlari uyushtirib turuvchi davlat sifatida mashhur edi. Xon Oliy bosh qo‘mondon hisoblanib, Inoq xondan keyingi o‘rinda turuvchi nufuzli lavozimdir. Harbiy sohada quyidagi mansablar mavjud edi:

1. Xon — Oliy Bosh Qo‘mondon.
2. Inoq — Harbiy-ma‘muriy amaldorlar yetakchisi.
3. Amir ul-umaro — inoqdan keyingi o‘rindagi harbiy mansabdor.
4. Sarkarda — qo‘shinlar boshlig‘i.



**O‘zR KSOH MDA 2-10180 —  
Xiva xoni va uning saroy  
mulozimlari. — Xiva, sana, joy  
va muallifi noaniq.**


5. Yasovulboshi — xonning shaxsiy gvardiyasi boshlig'i.
6. Mingboshi.
7. Yuzboshi.
8. Shig'ovul — ayg'oqchilar boshlig'i.
9. Kutvol — qal'aboshi.
10. Tug'begi — harbiy amaldor.

Xiva xonligida asosiy harbiy kuchlar yollangan turkman sarbozlari hamda turli o'zbek qabilalaridan tuzilgan qo'shinlar hisoblangan. Jang olib borish usuli Chingizxon va Amir Temur davridagi harbiy qonun-qoidalariga asoslangan bo'lsada, yangilik kiritilmagan, zamon talabiga ko'ra ijodiy rivojlantirilmagan edi.

Xiva xonligidagi davlat muassasalari tarixiga nazar tashlanganda, eng birinchi galda markaziy boshqaruv sifatida Devon hokimiyati idoralarini aytib o'tish kerak. Markaziy boshqaruv, bevosita qonun va farmonlar chiqaruvchi, shuningdek, ijro etuvchi bosh idora bo'lib, uni xon boshqargan. Diniy hokimiyatga kiruvchi idoralar, bevosita ijro muassasalari hisoblanadi. Bunga misol tariqasida sudlov idoralarini aytish mumkin. Asosiy sudlov idoralari qozilik mahkamalari hisoblangan. Bu mahkamalar bir necha pog'onalardan tashkil topgan. Ham qonun chiqaruvchi, ham ijro etuvchi oliy shaxs Xon bo'lib, og'ir jinoiy ishlarni shaxsan u ko'rib chiqib, hukm chiqarardi. Undan keyingi o'rinda bosh sudyaa — qozi kalon turardi. Xonlikdagi har bir viloyat, tuman, qasaba, shaharlarda xon tomonidan tayinlangan qozilar bo'lib, ular o'z yordamchilari — muftiylar yordamida mulkchilik mojarolarini hal qilish, mayda jinoyatlarni ochish va shu singari ishlar bilan shug'ullanganlar. Viloyatlardagi jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda mahalliy hokimning ham ishtirok etish huquqi bor edi. Qishloqlardagi mayda mojarolar qishloq oqsoqollari tomonidan hal qilinardi.

Umuman olganda, Xiva xonligidagi sudlov idoralari tizimini quyidagicha aks ettirish mumkin:

*2-chizma*



Xiva xonligidagi muassasalar, asosan, mulkchilik shakllariga ko'ra bir-biridan farqlangan. Masalan, xonlikda yerga egalikning quyidagi mulkchilik shakllari bo'lgan: davlat yerlari; vaqf yer egaligi; xususiy yer mulklari.

Ana shunga ko‘ra, davlat idoralari, madrasalar va diniy mahkamalarga bo‘lingan.

Xonlikdagi iqtisodiy hayot tarzi tahlil etilganda, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, to‘qimachilikni sanab o‘tish mumkin. Ayniqsa, hunarmandchilik bu o‘lkada o‘z tarixiy ildizlariga ega soha hisoblangan. Xiva, Urganch, Hazorasp, Toshhovuz, Xonqa kabi shaharlar hunarmandchilik markazlari bo‘lib, voha taraqqiyotini ta‘minlagan. Bu tashqi va ichki savdoning ham rivojlanishiga katta ta‘sir o‘tkazgan.

Xonlik davridagi asosiy davlat muassasalaridan biri soliq idoralarining faoliyatida ko‘zga tashlanadi. Soliq yig‘uvchi idoralar asosan xiroj, zakot, boj, jiz‘ya kabi soliqlarni undirganlar. Shu bilan birga aholi hashar yoli orqali quyidagi majburiyatlarni ham bajargan: kanallarni tozalash, yangilarini qazish uchun ilk bahorda 15 kun ishlashga jalb etilgan.

Bundan tashqari, qazuv va kanallarni tozalash, shuningdek, sug‘orish ishlari mutasaddisi sifatida xonlikda miroblik idoralari faoliyat ko‘rsatgan.

Davlat ta‘lim muassasalari sifatida madrasalar asosiy o‘rinni egallaydi va ularning xarajatlari vaqf mulklari hisobidan qoplangan. Quyi ta‘lim, ya‘ni boshlang‘ich maktabda xat-savod chiqarilgan, o‘qish va yozishni o‘rgangan kishilar Xiva madrasalarida, shuningdek, Buxoro madrasalarida o‘qiganlar. Masalan, XIX asrda xonlikda 1500 ga yaqin boshlang‘ich maktab, 130 ta madrasa mavjud bo‘lgan. Xivaning o‘zida 22 ta madrasa faoliyat ko‘rsatgan.

Chorizm istilosiga qadar davlat boshqaruvi tizimi sifatida Xiva xonligi o‘zbek davlatchiligi tarixini, jamiyat hayotidagi o‘ziga xosliklarni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Rossiya imperiyasi istilosidan so‘ng Xiva xonligidan ajratib olingan hududning bir qismida 1874-yilda — markazi Petroaleksandrovsk (To‘rtko‘l)da bo‘lgan Amudaryo bo‘limi tashkil qilinadi. Amudaryo bo‘limi Chimboy va Sho‘raxon uchastkalariga bo‘linardi.

1874-yil 21-mayda Amudaryo bo‘limini boshqarish bo‘yicha «Nizom» ishlab chiqilgan bo‘lib, unga asosan bo‘limni **maxsus boshliq** boshqarar edi. U Harbiy vazir, ichki ishlar vaziri va Turkiston general-gubernatori bilan oldindan kelishilgan taqdimnomaga ko‘ra, Rossiya imperatori tomonidan lavozimga tayinlanar va bo‘shatilar edi.

Amudaryo bo‘limi boshlig‘i qo‘liga ma‘muriy, politsiya, sudlov va harbiy hokimiyat berilgandi. Shu bilan bir qatorda diplomatik vazifalarni ham bajarib, u Rossiyaning Xiva xonligidagi diplomatik vakili hisoblanardi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xiva xonlari sulolasi xronologik jihatdan shartli ravishda qanday ko‘rinishga ega?
2. Inoq qanday vakolatlarga ega bo‘lgan?
3. Xiva xonligida hokimiyat necha qismga bo‘lingan?
4. Harbiy sohada qanday mansab va unvonlar mavjud edi?
5. Xonlikdagi sudlov idoralariga ta‘rif bering.
6. Amudaryo bo‘limi boshlig‘i lavozimi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

---

---

## 7-mavzu. QO‘QON XONLIGI DAVLAT IDORAVIY TIZIMI

1. Qo‘qon xonligining tashkil topishi.
2. Qo‘qon xonligining idoraviy boshqaruv tizimi.
3. Davlat muassasalari tarixi.

Qo‘qon xonligi XVIII asr boshlarida Buxoro xonligiga tobe hisoblangan Farg‘ona vodiysi hududlarida tashkil topgan. XIX asr boshlariga kelib Toshkent vohasi, hozirgi Qirg‘iziston Respublikasi, Janubiy Qozog‘iston va shimoliy Tojikiston hududlarini qo‘shib olish hisobiga yirik davlatlardan biriga aylandi.

Xonlik ashtarxoniy Subxonqulixon vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgan Ubaydullaxon davrida tashkil etilgan. Davlat zaiflashuvi natijasida mustaqil Qo‘qon xonligi tashkil topdi. Bu davlat XVIII—XIX asrlarda Turkistonning tarixiy-siyosiy, xo‘jalik va madaniy hayotida katta o‘rin tutgan.

Qo‘qon xonligining asoschisi ming qabilasining boshlig‘i Shohruhbiy hisoblanadi. Xonlikda Buxoro amirligiga o‘xshab Amir Temur davrida shakllangan davlat boshqaruv tartibi va tuzumi mavjud edi. Qo‘qon xonligida joriy etilgan har xil unvon va mansablar, vazifa va martabalar hamda amallarni o‘rganish davlatchilik tarixini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, Turkiston davlat boshqaruv muassasalari tarixi qadimiy zamonlarga borib taqaladi. Ayni choqda, Qo‘qon xonligi davlat idoraviy tizimida ham o‘zbek davlatchiligi boshqaruvi tajribalari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qo‘qon xonlari sulolasi quyidagilardan iborat:

1. Shohruhbiy 1710—1721-yy.
2. Abdurahimbiy 1721—1733-yy.
3. Abdukarimbiy 1733—1752-yy.
4. Abdurahmonbiy 1750—1751-yy.
5. Erdonabiy 1751—1753-yy.
6. Bobobek 1753—1754-yy.
7. Erdonabiy (2-marta) 1755—1769-yy.
8. Sulaymonbek 1769 (6 oy).
9. Norbo‘tabek 1770—1801-yy.
10. Olimxon 1801—1810-yy.
11. Umarxon (Amiriy) 1810—1820-yy.
12. Muhammad Alixon (Madalixon) 1821—1842-yy.
13. Buxoro noibi Is‘hoq mang‘it 1842-y. (3 oy).



14. SHERALIXON 1842—1845-yy.
15. XUDYOYORXON 1845—1858; 1863 (4 oy); 1865—1875-yy.
16. MALLAXON 1858—1862-yy.
17. SHOHMURODBEK 1862—1863-yy.
18. SULTON MUROD 1863—1865-yy.
19. NASRIDDINBEK 1875—1876-yy.

Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o‘lkamizdagi o‘rta asrlarda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Faqat davrlar o‘tishi bilan biroz islohotga uchragan shakllarni Qo‘qon xonligi idoraviy tizimida ko‘rish mumkin.

Qo‘qon davlat boshqaruv tizimida eng oliy hukmdor «xon» bo‘lib, u deyarli cheklanmagan huquqqa ega edi. Qo‘qonning dastlabki hukmdorlari «biy» unvoni bilan hokimiyatni boshqargan bo‘lib, davlat boshlig‘i rasman «Xon» deb Olimxon davridagina (1805-yildan boshlab) yuritila boshladi.

Umarxon (Amiriy) (1810—1822-yy.) esa o‘zini «amir al-mo‘minin» deb e‘lon qilib, diniy hukmdorlikni ham qo‘liga olgan edi.

Shu bilan birga saroy amaldorlari va qo‘shin boshliqlarining xonga ta‘siri kuchli edi. Buni Xudoyorxonning taxtga o‘tirgan birinchi davrida Musulmonqul qipchoqning mingboshi va otaliq lavozimini egallagan yillarida yaqqol ko‘rish mumkin.

Qo‘qon xoni saroyida muhim ishlarni ko‘rib chiqadigan Kengash tuzilgan bo‘lib, unga mingboshi boshchilik qilgan. Kengash a‘zolari dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar bo‘lgan. Davlatni boshqarishda mana shu kengashning ham o‘rni ahamiyatli edi. Saroy amaldorlari ichida mingboshi (bosh vazir) va amiri lashkar (harbiy vazir), qushbegi — xon maslahatchisi yoki viloyat hokimi, parvonachi (xon maslahatchisi), shig‘ovul (vaziri ilmiya), hudaychi, tunqator, noib (sarbозlar boshlig‘i), otaliq, dodxoh, mehtarboshi, dasturxonchi, to‘qsabo, devonbegi, mirzaboshi, sarkarda va boshqalar muhim amaldorlar hisoblangan. Ular o‘z xizmatlari evaziga yillik maosh olganlar va yer-mulklar bilan ta‘minlangan.

Davlat boshqaruv tizimini shartli ravishda 3 asosiy qismga ajratish mumkin:


1. Markaziy boshqaruv.
2. Harbiy boshqaruv.
3. Diniy boshqaruv.

Xonlikdagi unvon va mansablar ularning vazifalari va martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma‘muriy, saroyning unvon va mansablari, ma‘muriy vazifalariga hamda diniy va diniy qozixona amallariga bo‘lingan.

Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyat hayotidagi mavqeyi qo‘shni davlat — Buxoro amirligidan aytarli darajada farq qilmaydi. Davlatda xon va uning yaqinlari markaziy va mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan. Mahalliy manbalarda vazir ul-vuzaro, amir ul-umaro deb nomlangan ijtimoiy tabaqaning, harbiy-ma‘muriy amaldorlarning mavqeyi

## Qo'qon xonligi davlat boshqaruv tizimi

1-chizma



juda yuqori bo'lgan. Bu amaldorlar o'z xizmatlari evaziga muayyan maosh olishdan tashqari yer-mulklarga ham ega bo'lganlar. Butun o'rta asr musulmon davlatlarida bo'lganidek, musulmon ruhoniylar ham alohida imtiyozlarga ega bo'lgan ijtimoiy tabaqa hisoblangan. Davlat boshqaruvida, ta'lim-tarbiyada, sud ishlari va jamiyatning turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan. Oddiy xalq — fuqaro moddiy boyliklar yetishtirishning asosiy manbayi hisoblangan.

Xonlik hayotida harbiy-ma'muriy amaldorlar xonlikka qarshi ko'plab qo'zg'olon va g'alayonlarni bartaraf etgani uchun jamiyat hayotida e'tiborli o'rinni egallagan. Eng yuqori harbiy amaldor — amiri lashkar hisoblanib, bu lavozimga ko'p hollarda qipchoq urug'idan bo'lgan kishilar tayinlangan.

Qo'shinning asosini ham qipchoqlar tashkil qilgan. Buning oqibatida, saroydagi ko'pgina yuqori lavozimlar ham qipchoqlar tomonidan egalangan edi.

Harbiy-ma'muriy amaldorlar uchun saroy xazinasidan belgilangan «tanho», «tarxon» shaklidagi yer-mulklar bo'lgan. Harbiy yurishlar paytida qo'lga kiritilgan o'ljaning bir qismi ham muayyan tartibda ularga berilgan.

Iqtisodiy hayotda dehqonchilikning salmog'i juda yuqori edi. Xonlik hududida suv manbalari yetarli bo'lgani bois donli va poliz ekinlari, sabzavotchilik, sholikorlik yaxshi rivojlangan edi. XIX asrga kelib xonlik hududida paxta maydonlari kengaydi. Paxtaning asosiy xaridori Rossiya edi.

Xonlik davrida yerga egalikning mulk shakllari quyidagilar bo'lgan:

1. Davlat mulki — xonga qarashli katta-katta hosildor yerlar, yaylovlar, chorva mollari. Bu yerlarda joylashgan hunarmandchilik ustaxonalari va savdo do'konlari bilan birga xon ixtiyorida bo'lgan.

2. Tanho, tarxon mulki — harbiy-ma'muriy amaldorlarning faqat xizmat qilayotgan davridagi yer-mulki.

3. Vaqf yerlar — diniy mahkamalar va madrasalarga qarashli kishilar mulki.

Qo'qon xonligida chorvachilik ham muhim iqtisodiy soha bo'lib, tog' oldi hududlarida rivojlangan edi. Chorvachilikning eng rivojlangan sohasi — qo'ychilik, yilqichilik va shoxdor qoramolchilik edi.

Xonlikda hunarmandchilik turlari: to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqalar mavjud edi. Iqtisodning bu sohasi, asosan, yirik shaharlar: Qo'qon, Toshkent, Andijon, Marg'ilon, O'sh, Xo'jand, Turkistonda rivojlangan edi. Xonlik hududida hunarmandchilik ixtisoslanishi bilan alohida xarakterlanadi. Masalan:

Qo'qonda → temirchilik

Chust → do'ppido'zlik

Rishton → kulolchilik

Shahrixon → pichoqchilik

Marg'ilon → ipak va shoyi to'qish markazlari hisoblangan.

Savdo-sotiq sohasida ichki va tashqi bozor yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Chetdan metallar, fabrika mahsulotlari (Rossiya), chinni, choy (Xitoy va Hindiston) va boshqalar keltirilsa, tashqi bozorga chiqariladigan mahsulotlarning aksariyatini paxta, jun, ip, matolar, quruq mevalar tashkil qilgan.

Qo‘qon xonligi davrida soliq tizimi shariat qonunlari asosida tashkil etilsa-da, aholidan ko‘plab mayda soliqlar undirish keng tarqalgan edi. Asosan, soliqning quyidagi turlari mavjud edi:

1. Xiroj — pul va mol shaklida olingan.
2. Zakot — savdogarlar va chorvadorlardan olingan, mol yoki pul shaklida.
3. Tamg‘a — hunarmandlardan olinadigan joy solig‘i.
4. Tanob — dehqonlardan olinadigan yer solig‘i.



O‘zR KSOH MDA 0-97217 — Xiroj solig‘ini yig‘ish. 1871—1873-yy.  
Joy nomi noaniq. Muallif Nexoroshev.

Soliq yig‘uvchi amaldorlar **tanobchilar** yoki **zakotchilar** deb nomlangan. Qo‘qon xonligida yuqoridagi ijtimoiy davlat boshqaruvi tizimiga ko‘ra davlat muassasalari quyidagi turlarga bo‘lingan:

1. O‘rda — xon qarorgohi.
2. Harbiy-ma‘muriy mahkamalar.
3. Diniy mahkamalar: qozixonalar, mirshabxonalar va boshqalar.
4. Ta‘lim muassasalari: maktablar, madrasalar.
5. Soliq idoralari va boshqalar.

Qo‘qon xonligidagi ilm-fan taraqqiyoti, madaniyat rivoji o‘z darajasi-ga ko‘ra O‘rta Osiyodagi qo‘shni davlatlarga yaqin turadi. Asosiy madaniyat o‘choqlari xonlikdagi yirik shaharlar bo‘lib, oliy ta‘lim beruvchi ko‘pgina madrasalar shaharlarda joylashgan edi. Boshlang‘ich maktablar xonlikning har bir yirik aholi punktida bo‘lgan, ularda arab tilida xat-savod chiqarilar,

o‘qish va yozish o‘rgatilardi. Madrasalarda esa asosiy fan Qur‘on, shariat va fiqh hisoblangan.

Dunyoviy fanlardan adabiyot, tarix, nutq, mantiq, aljabr va handasa o‘qitilgan. Poytaxt shahar — Qo‘qonda 15 ta madrasa bo‘lgan, ammo xonlikda Buxoro madrasalarini tugatib kelgan kishilarning mavqeyi ancha baland bo‘lgan.

Bu davr me‘morchiligida mahalliy xususiyatlar yaqqol ko‘rinadi. Savdo-sotiq bilan bog‘liq inshootlar, bozorlar, karvonsaroylar qurilishida ham me‘morchilikning rivojlangan yo‘nalishlari ko‘zga tashlanadi.

Qo‘qon xonligining sulolaviy tarixi bilan tanishganimizda bitta umumiy xususiyat kuzatiladi: siyosiy-iqtisodiy, harbiy jihatdan qoloqlik, xon taxti uchun olib borilgan kurashlar xonlikdagi ichki nizolar hech bir hukmdor davrida barham topmagan. Shuning uchun XIX asrning ikkinchi yarmida davlat to‘la inqirozga uchraydi.

Natijada, 1864-yilda Chor Rossiyasi qo‘shinlari Turkiston va Chimkentni bosib olgach, 1865-yil bahorida Toshkentga hujum qiladi. 1865-yil 17-iyunda Toshkent chor Rossiyasi qo‘liga o‘tdi. 1866-yilda Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax qo‘ldan ketadi.

1868-yilda Qo‘qon xoni Xudoyorxon bilan shartnoma imzolanib, xonlik Rossiyaning qaramiga aylandi va Turkiston general-gubernatorligi nazorati ostiga olindi.

1875-yilda Xudoyorxon taxtni o‘g‘li Nasriddinbekka topshiradi.

1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilib, uning barcha hududi Turkiston general-gubernatorligiga qo‘shib olinadi.

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi XVIII—XIX asrlarda O‘rta Osiyoda siyosiy jihatdan yetakchi o‘rin tutmasa-da, mintaqadagi yirik davlatlardan biri sifatida iqtisodiy, madaniy hayotda ko‘pgina o‘ziga xosliklarga ega davlat sifatida o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rinni egallaydi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Qo‘qon xonligida «biy»lar qanday lavozimni egallagan edilar?
2. Qo‘qon xoni qanday hokimiyatga ega bo‘lgan?
3. Mingboshi nimaga boshchilik qilgan?
4. Xonlik davrida qanday yer mulki shakllari mavjud edi?
5. Xonlikdagi davlat muassasalari nechta turga bo‘lingan?
6. O‘zbek xonliklaridagi idoraviy boshqaruv tizimidagi o‘xshashliklarni sanab bering.

---

---

## **8-mavzu. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI BOSHQARUV TIZIMI**

1. Rossiya imperiyasining Turkistondagi markaziy boshqaruv tizimi.
2. Viloyat, shahar, tuman, qishloq boshqaruvi.
3. Sud va jazo organlari faoliyati.

Mustamlakachilik davri yurtimiz hayoti, siyosati, iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzumi va davlatchiligidagi muayyan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

— chor Rossiyasining harbiy istilosi hamda Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarining zabt etilishi;

— hokimiyatning mustamlakachilikka asoslangan tuzilmasining vujudga kelishi bilan mustaqillikning Qo'qonda to'la ravishda yoki Buxoro va Xivada qisman boy berilishi;

— chorizmning iqtisodiy va siyosiy hukmronligini mustahkamlashga xizmat qiladigan qonunchilik muassasalarining vujudga kelishi, Rossiya savdo, sanoat va moliya kapitali hukmronligining o'rnatilishi;

— Mahalliy hukumat va Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlashni kengaytirish, mustamlakachilik munosabatlarini mustahkamlash va mintaqaning iqtisodiy tuzilmasida muqarrar o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan yangi iqtisodiy sharoitlarning yaratilishi;

— mintaqa xalqlarining milliy manfaatlarini, ularning eng oddiy haq-huquqlarini mutlaqo mensimaslik va ularni ommaviy ravishda asoratga solinishi.

Chorizm istilosi XIX asrning birinchi yarmidayoq boshlandi va keng ko'lamdagi razvedkachilik ishlari, Qo'qon xonligining hududiy yaxlitligini muttasil ravishda buzishga intilish, Sirdaryo tomondan Raim va Oqmachit istehkomlari, G'arbiy Sibir tomonidan Kopal va Verniy mudofaa inshootlarining egallab olinishi bilan birga bordi. Ular chor Rossiyasining Orenburg va Sibirdagi harbiy strategik yo'lining tayanch punktlari va rossiyalik bosqinchilarning xonliklar hududlarini tobora ichkarisiga kirib borishlari uchun boshlang'ich nuqta bo'ldi. Ayrim punktlarning bosib olinishi Dandevil razvedkachi otryadlarining Kaspiy, Butakovning Amudaryo qirg'oqlari, Venyukovning Chu daryosi havzasidagi harakatlari bilan birga davom etdiki, ular Qo'qon xonligiga qarashli To'qmoq va Pishpek qal'alarining olinishi bilan nihoyasiga yetdi (1862). 1863-yilda podshoh Orenburg va Sibir yo'llarini birlashtirish haqidagi farmoniga imzo chekdi. Bu chor armiyasining alohida-alohida bosqinchilik yurishlari tugaganligi va mintaqa davlatlariga qarshi keng ko'lamdagi harbiy harakatlar boshlanganligidan darak berar edi.

1864-yilda chor qo‘shinlari So‘zoq, Cholaqqo‘rg‘on, Avliyoota, Turkiston va Chimkentni egalladilar. Toshkentni olishga bo‘lgan birinchi urinish muvaffaqiyatsiz tugadi, chunki shahar aholisi jiddiy qarshilik ko‘rsatdi va chor qo‘shinlarini uloqtirib tashladi. Faqatgina Niyozbek qo‘rg‘onini egallab, Toshkent va uning atrofi aholisini suv bilan ta‘minlaydigan Chirchiq daryosining ikki asosiy tarmog‘i ustidan nazorat o‘rnatibgina chor qo‘shini 1865-yilning 17-iyunida shaharga kirishga muvaffaq bo‘ldi.

Bosib olingan hududda Turkiston viloyati tashkil etiladi. Uning ma‘muriy bo‘linishi harbiy vazifalarni hal qilishga muvofiqlashtiriladi: o‘ng qanot keyinchalik Sirdaryo tumani deb qayta nomlanib, unga Aralsk shahri, 1-sonli qal‘a (keyinchalik Kazalinsk deb atalgan) va Perovsk (keyinchalik Qizil O‘rda deb atalgan) kirgan; so‘l qanot Avliyoota, Marki, Pishpek hamda Turkiston va Chimkent tumanlarini o‘z ichiga olgan markazdan iborat bo‘lgan.

1866-yili Turkiston viloyati tarkibida chor qo‘shinlari Buxoro amirligidan tortib olgan hududda Irjar va Zomin bo‘limlari, O‘ratepa va Jizzax tumanlari tashkil etiladi. Turkiston viloyatining o‘zi esa, podshoh farmoniga muvofiq Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiritiladi. Uni boshqarish asosan 1865-yil avgustdagi «Muvaqqat nizom» bilan belgilandi hamda harbiy va fuqarolik hokimiyatining o‘zaro uyg‘unligiga, shuningdek, ma‘muriy sud, xo‘jalik va boshqa vazifalarning bir muassasada markazlashuviga asoslandi. Viloyatning harbiy gubernatori etib general M. G. Chernyayev tayinlandi. U bu lavozimda 1866-yilning fevraligacha ishladi. Keyin (1867-yilning iyuligacha) D. I. Romanovskiy gubernator bo‘ldi.

Joylarda ma‘muriyatni bir vaqtning o‘zida harbiy komendantlar ham bo‘lib hisoblangan bo‘lim boshliqlari boshqardilar. Ularga chor amaldorlari tomonidan tayinlangan hamda mahalliy aholidan o‘lpon va soliq yig‘ish ustidan nazorat qiladigan oqsoqollar bo‘ysunganlar.



**O‘zR KSOH MDA 0-46586. Qozi sudi. Samarqand.  
Sana va muallifi noma‘lum.**

Sud sohasida o‘troq aholi uchun qozilik mahkamalari va ko‘chmanchilar uchun biylar sudi saqlab qolindi.

Ayni paytda, bu sudlar tuzilmasi va vazifalariga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan:

— qozikalon lavozimini tugatish yo‘li bilan barcha qozilarning huquqlarini tenglashtirish;

— sudyalarni uch yil muddatga saylashni joriy qilish va da’vogarga u qaysi qoziga ko‘proq ishonsa, o‘shanga murojaat etish huquqini berish;

— qaysidir darajada chorizm yoki rus aholisi manfaatlariga daxl qiladigan yoki shariat qonunlariga ko‘ra o‘lim jazosi yoki og‘ir shikast yetkazish belgilanadigan ishlar ko‘rib chiqish uchun chor sudlariga oshirilgan;

— harbiy gubernatorga qozilik va biy sudlarining alohida hukmlarini Rossiya harbiy-jinoyat qonunlariga muvofiq jazolar bilan almashtirish huquqi berildi.

Turkiston xalqlari avvalboshdanoq ikki tomonlama jabr-zulm ostida qoldi. Ular uchun saqlab qolingan xonlikka xos ma’muriy-soliq tizimi nafaqat zavolga yuz tutgan, balki, aksincha, Rossiya davlatining butun qudrati va milliy-mustamlakachi istibdod usullari bilan kuchaytirilgan bo‘lib chiqdi.

Turkiston viloyatini 1865-yildagi «Nizom»da belgilangan qoidalar asosida boshqarish tajribasi ochiqdan-ochiq istilochilikka asoslangan idora usuli yetarlicha samarali emasligini ko‘rsatdi. Chorizm nuqtayi nazaricha, u soliq yig‘ish tizimini shakllantira olmadi, eng muhimi esa, mahalliy jamiyatning musulmon ulamolari, yirik zamindorlar, ko‘chmanchilarning aslzoda urug‘lari, soliq xonlik amaldorlari kabi o‘rnatilgan rejimga ochiqdan-ochiq qarshi chiqqan ijtimoiy toifalarning siyosiy ta’siriga barham berishga yaroqsiz bo‘lib chiqdi.

Rossiyaning savdo-sanoat doiralari Turkistonning tabiiy boyliklaridan foydalanishdan nihoyatda manfaatdor bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy qurilishida ozmi-ko‘pmi darajada tub o‘zgarishlar qilish, bu jihatdan ularni Rossiyaning mahalliy viloyatlari bilan yaqinlashtirish, aloqalarning qulay yo‘lini yaratishni qat’iy turib talab qila boshladilar. Ular rus ma’muriyatining mahalliy urf-odat va qonunlarga aralashuvini tanqid qildilar va uni rossiyacha boshqaruv muassasalarini tezroq joriy etish talablari bilan mahalliy sharoit o‘rtasida o‘zaro muvozanatni izlash va topishga da’vat qildilar.



**O‘zR KSOH MDA 0-39538.**  
**Turkiston general-gubernatori**  
**K.P. fon Kaufman. — Toshkent,**  
**1866—1868-yy.**  
**Muallif Nexoroshev.**

Shu asnoda, 1867-yil 11-iyulda yangi ma’muriy birlik — Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini o‘z ichiga olgan Turkiston general-gubernatorligini tashkil etish to‘g‘risidagi qonun e’lon qilindi. Bu paytga kelib Kavkaz,



Polsha va Rossiya imperiyasining Shimoliy-Gʻarbiy oʻlkasidagi xizmatlari davomida katta maʼmuriy tajriba toʻplagan general-adyutant Konstantin Petrovich fon Kaufman birinchi general-gubernator etib tayinlandi.

1867-yildagi chor hukumati manifesti bilan K.P. Kaufmanga «siyosiy, chegaraviy va savdo ishlarini hal qilish, qoʻshni mamlakatlarga ularning Rossiya bilan oʻzaro aloqalariga tegishli muzokaralar olib borish va bitimlar imzolash, oʻzaro kelishuvga erishish va qarorlar qabul qilish uchun ishonchli vakillarni joʻnatishda cheklanmagan vakolatlar berildi».

Uning oldiga mintaqada Rossiya savdo va sanoati uchun «keng va oson kirib boradigan yoʻl» ochish vazifasi qoʻyildi. Bu vazifani bajarish uchun Kaufman 1868-yilning yanvarida Xudoyorxon bilan savdo shartnomasi tuzishga muvaffaq boʻladi. Mazkur shartnoma Qoʻqon xonligini amalda Rossiya tovarlari sotilishini nazorat qiladigan bozorga va xomashyo zaxiralarning arzon manbayiga aylantirdi.

Oʻz orqasidan xotirjam boʻlib va Qoʻqonning mustamlaka sifatidagi mavqeyini mustahkamlab, shu yilning may oyida u chor qoʻshinlarini Buxoro amirligi chegaralari tomon boshladi hamda yoʻl-yoʻlakay shafqatsiz janglar bilan Urgut, Kattaqoʻrgʻon, Zirabuloq tepaligi, Samarqandni egalladi, bu yerlarda gʻalayon koʻtargan shaharliklarni shafqatsiz jazoladi. Buxoro amirligi taslim boʻlishga va 1868-yilning 23-iyunida chor qoʻshinlari tomonidan bosib olingan hududlarning Rossiya imperiyasi tarkibiga kirishi toʻgʻrisidagi bitimga imzo chekishga majbur boʻldi. Samarqand va Kattaqoʻrgʻon boʻlimlarini oʻz ichiga olgan Zarafshon okrugi tashkil etildi (1868). Keyinchalik Kaufman mazkur okrug tarkibiga Panjikent shahrining qoʻshib olinishi, 1868-yil avgustidan boshlab Abramov uning boshligʻi boʻlishiga ruxsat berdi. 1870-yilning aprel-iyul oylarida Zarafshon okrugi tarkibiga «Togʻ tumanlari» nomi bilan Matcho, Fon, Falgar, Magʻiyon, Yagʻnob kabi togʻ qishloqlari qoʻshib olindi.

Kaufman boshchiligidagi Turkiston maʼmuriyati «Buxoro bilan barqaror tinchlik» oʻrnatish, u bilan savdo aloqalarini kengaytirishni oʻz siyosatining muhim natijasi, deb hisobladi hamda Rossiya imperiyasi uchun Buxoro xonligini qoʻshib olishga zarurat yoʻq: u yerda qoʻshin va maʼmuriy muassasalarni saqlab turishdan koʻra Buxoro ustidan itoatkor amir yordamida hukmronlik qilish koʻproq foydali ekanligini bildirdi.


Xivaga qarshi harbiy yurish qilishga Peterburgning ruxsatini olgan Kaufman 1873-yilning fevralida 12 ming kishilik qoʻshin bilan yoʻlga tushdi. Bir vaqtning oʻzida mutlaqo aloqalari boʻlmagan urush bilan bogʻliq tovonni toʻlashdan bosh tortgan turkmanlarning yovmut qabilasiga qarshi jazo ekspeditsiyasini joʻnatishga qaror qilindi. Chor qoʻshinlari jazolash ishini nihoyasiga yetkazgach, 1873-yil 12-avgustda Kaufman va Xiva xoni Muhammad Rahimxon oʻrtasida tinchlik bitimi imzolandi. Bitim shartlariga koʻra xon oʻzining Rossiya imperiyasiga tobeligini eʼtirof etdi, boshqa mamlakatlar bilan bevosita munosabatlar oʻrnatmaydigan boʻldi hamda rus savdo idoralari va omborxonalari, pristanlari qurish uchun oʻz

hududining bir qismini ajratib berish va ularning xavfsizligini ta'minlash majburiyatini oldi. Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarda alohida ma'muriy birlik — Amudaryo bo'limi tuzilib, Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritildi. Bu bo'lim boshlig'ining vazifalaridan biri Xivadagi ishlarning ahvolini nazorat qilish hamda Turkiston general-gubernatori va Xiva xoni o'rtasida vositachilik qilishdan iborat edi.

Tez orada Xudoyorxonga qarshi umumxalq qo'zg'oloni ko'tarilgan, aslzodalari Rossiyadan to'la mustaqil bo'lgan Qo'qon xonligini avvalgi holida tiklashni talab qilib chiqdi. Qo'qon xonligidagi notinch vaziyatdan foydalanib, chor qo'shinlari xonlikning asosiy aholi punktlarini bosib oldilar, qo'zg'olon rahbarlarini qo'lga oldilar, ularni qatl etdilar yoki o'lka hududidan chiqarib yubordilar.

1876-yil 19-fevralda podshohning Qo'qon xonligini Farg'ona viloyati sifatida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritish to'g'risidagi farmoni chiqdi.

*1-chizma*




Mintaqaning qolgan qismlari ham xuddi shu tarzda Rossiya tarkibiga qo'shib olindi. 1879-yildan boshlab turkman yerlari — Ko'ktepa, Ashxabat, va boshqalarni muntazam ravishda bosib olish boshlandi. 1881-yili bosib olingan turkman yerlarida Kaspiyorti harbiy bo'limi tuzilib, keyinchalik u Kaspiyorti viloyati sifatida qayta tashkil etildi (1882).

1884-yili chorizmning mintaqadagi janubiy chegaralarini belgilovchi Yolatan va Marv havzalari Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olindi. 1895-yili Pomir masalasi xalqaro miqyosda hal qilindi va chor hukumati Pomirning ichki tuzilishi bilan shug'ullandi. Qirg'iz ko'chmanchilari yashaydigan sharqiy tumanlar Pomir va Oroshordan iborat ikki viloyatga bo'linib, Farg'ona viloyati tarkibiga kiritildi. G'arbiy Pomirga kelganda Rushan, Shug'on va Shimoliy Vaxan mavqeyi bor-yo'g'i vakillikdan iborat bo'lgan Buxoro amiriga berildi.

Shunday qilib, avvalgi Turkiston general-gubernatorligi dastlab ikki viloyat — markazi Toshkent shahri boʻlgan Sirdaryo va poytaxti Verniy shahri boʻlgan Yettisuvga boʻlindi. Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobiga quyidagi maʼmuriy-hududiy birliklar tashkil etildi: markazi Samarqandda boʻlgan Zarafshon okrugi (1868); markazi Petroaleksandrovsk (Toʻrtkoʻl) boʻlgan Amudaryo boʻlimi (1874); markazi Yangi Margʻilon (Fargʻona) boʻlgan Fargʻona viloyati (1876), markazi Ashxabat boʻlgan Kaspiyorti viloyati (1881). Bu viloyat 1899-yilgacha Kavkaz noibligi tarkibida, 1899-yildan 1917-yilgacha esa Turkiston general-gubernatorligi tarkibida boʻlgan. Yettisuv viloyati esa 1882-yil Step (Dasht) general-gubernatorligi tarkibiga qoʻshilgan, 1899-yildan esa Kaspiyorti kabi yana Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan.

1886-yili Zarafshon okrugi Samarqand viloyati deb qayta nomlandi. Sirdaryo, Fargʻona va Samarqandni ularning zamondoshlari «mahalliy» viloyatlar deb ataganlar.

*2-chizma*



Turkiston general-gubernatorligini boshqarish boʻyicha ilk dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda «harbiy vaziyat» omili hal qiluvchi boʻlgan. Ular chorizmning xonliklarning yangidan-yangi hududlarini bosib olishi munosabati bilan vujudga kelgan va shuning uchun, odatda, «muvaqqat» xarakterga ega edi. Masalan, «Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish toʻgʻrisidagi Nizom» (1867) «tajriba tariqasida» uch yil muddatga joriy qilingan boʻlib, 20 yil davomida amal qildi. «Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari» (1868), «Amudaryo boʻlimini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari» (1874) va «Fargʻona viloyatini boshqarish boʻyicha vaqtinchalik Nizom» (1876) toʻgʻrisida ham shunday deyish mumkin.

Bularning barchasi oʻz mohiyat asosiga koʻra «harbiy va maʼmuriy hokimiyatning ajralmasligi va ularning bir yerda birlashtirilishi»ni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, zikr etilgan vaziyat bilan bogʻliq omil va mustamlakachi

amaldorlarning mahalliy jamiyatning an'anaviy ijtimoiy-huquqiy va sivilizatsiyaviy me'yorlarini bilmasliklari chorizmni yon berib, siyosiy xususiyatga ega bo'lmagan va oliy idoralarning «ish uslubi»ga daxl qilmaydigan, imperiyaning boshqa joylarida amalda bo'lgan holatlarga muvofiq keladigan barcha ishlarda xalq tomonidan saylanadigan ichki boshqaruvga ruxsat berishga majbur qildi.

Huquqiy munosabatlar sohasida, hujjatlarda aytilishicha, «ular to rus qonunlari bilan belgilab berilguniga qadar» shariat qoidalari va mahalliy urf-odatlardan foydalanib turishga qaror qilindi; «mahalliy boshqarishga davlat manfaatlariga jiddiy ravishda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan biror-bir narsani aralastirmaslik» ko'zda tutildi, shuningdek, «mahalliy boshqaruv talablarining vujudga kelishi va murakkablashib borishiga muvofiq ravishda» hokimiyat organlarini sekin-asta rivojlantirish rejalashtirildi.

«Xalqni harbiy yo'l bilan» boshqarishning bu umumiy qoidalari nafaqat Toshkentda, balki Peterburgda ham Turkiston general-gubernatorligi ustidan nazorat qiladigan, undan hisob talab etadigan harbiy vazirlik tomonidan nashr qilingan ko'p sonli qarorlar, yo'riqnomalar va ko'rsatmalarda rivojlantirildi va batafsil bayon etib berildi.

Hokimiyatning mustamlakachilik tizimining eng yuqori pog'onasida podshoh tomonidan tayinlanadigan general-gubernator turar edi. U tashqi siyosiy, ma'muriy, harbiy, sud, xo'jalik ishlarini o'z qo'lida birlashtirgan, Turkiston aholisidan soliq yig'ish miqdorlarini belgilagan, chet elliklarga rus fuqaroligini bergan, siyosiy sabablar bilan xohlagan kishini 5-yil muddatga o'lkadan chiqarib yuborish, ishlarni ko'rib chiqish uchun harbiy va harbiy-dala sudlariga oshirish, nafaqat chorizm sudlari, balki qozilar va biylar sudlari tomonidan chiqarilgan o'lim jazosi berish to'g'risidagi hukmni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan. Ma'lum bo'ladiki, unga Turkiston xalqlarini harbiy va noharbiy amaldorlarning butun bir armiyasi tomonidan harakatlantiriladigan byurokratik mashina yordamida tasarruf etish va boshqarish huquqi berilgan.

Bu mashinaning asosiy bo'g'ini Turkiston general-gubernatorligi devoni edi. Chorizm mustamlaka apparatining oliy byurokratik organi bo'lmish mazkur devon ko'p minglab kishilarning taqdirini hal qilgan. 1867-yili tashkil etilgan va dastlabki vaqtlarda 4, keyinchalik 9 bo'limni o'z ichiga olgan devon ma'muriy-fuqaroviy va nozirlik tartiblari, yer masalalari va majburiyatlar, yo'l qurilishi, tog' ishlari, Xiva va Buxoroning Rossiya imperiyasiga tobeligi bilan bog'liq hamda Sharqning qo'shni mamlakatlari bilan aloqalarga oid masalalar bilan shug'ullangan.

Devonning o'lkani boshqarish bo'yicha turli me'yoriy hujjatlarini tayyorlash va hayotga tadbiiq etish borasidagi roli ayniqsa sezilarli bo'lgan. Devon maxsus tuzilgan hukumat komissiyasi bilan birgalikda Turkiston bilan bog'liq barcha qonun loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etdi va ularni ko'rib chiqish uchun Rossiya vazirliklari, idoralari va Davlat kengashiga taqdim qildi. Devon Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi

ijroiya organi bo'lishiga qaramay, uning iqtisodiy va sud sohalaridagi huquqlarini keskin ravishda chegaralovchi yangi «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom» amal qila boshlagan 1886-yilga qadar boshqarishning barcha tarmoqlarida hal qiluvchi rol o'ynadi.

Devon tarkibi mustamlaka tuzumi hukm surgan butun davr mobaynida talabga javob bermay o'tdi. Chorizmga «sadoqat bilan xizmat qilish» niqobi ostida ko'pincha bu yerga ma'rifiy boshqaruv masalalarida layoqatsiz kishilar, poraxo'rlar va davlat mulkini talon-toroj qiluvchilar o'rnashib olganlar. Kaufman ma'muriyatining mahalliy aholining tomorqa xo'jaligiga nisbatan noqonuniy munosabatda bo'lgan, ularni yaylovlar va yer-mulkalaridan mahrum qilish bilan shug'ullangan, xizmat mavqeyini turli darajada suiiste'mol qilgan P. P. Kablukov, Golovachyov, Savenkov, Guyus va boshqa amaldorlarining xatti-harakatlari nafaqat mahalliy, balki Rossiya matbuotida ham keng ko'lamda fosh qilindi.


Turkiston viloyatlaridagi vaziyatning haqiqiy «xo'jayin»lari harbiy gubernatorlar edi. Ular bir vaqtning o'zida u yoki bu viloyatga joylashtirilgan qo'shinning miqdoriga bog'liq holda komandirlar korpusi yoki diviziya huquqida qo'shin qo'mondoni ham hisoblangan. Harbiy gubernatorlarga nafaqat ma'muriy, balki politsiya va sudga xos vazifalar ham yuklatilgan edi. Ularga mahalliy millatga mansub shaxslarga 100 so'mdan ortiq bo'lmagan miqdordagi jarima solish va ularni ma'muriy tartibda bir oygacha qamab qo'yish huquqi berilgan. Shuningdek, barcha sud va jazo muassasalari ustidan nazorat o'rnatish, siyosiy va jinoiy ishlar bo'yicha hukmlarni tasdiqlash, mustamlaka ma'muriyatining quyi bo'g'inlardagi qonun-buzarliklar ustidan mahalliy aholining ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish vakolati berilgan.

Viloyatlardagi muhim ma'muriy muassasa harbiy gubernatorlar huzuridagi mahkama hisoblangan. Mahkamalar bo'limlarni o'z ichiga olib, ularning soni mustamlaka tartibini o'rnatish va mustahkamlash darajasiga qarab oshib borgan. Masalan, dastlabki davrlarda boshqaruv, xo'jalik, sud va hisob-kitob sho'balaridan iborat 3—4 ta bo'lim faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, XIX asrning 80-yillariga kelib qurilish, chegaralarni belgilash, qishloq-vrachlik, veterinariya, davlat mulkini boshqarishi, yer va soliq ishlari, o'rmon sho'balari, shuningdek, har bir viloyat mahkamasi huzurida bosmaxona va statistika qo'mitalari ochiladi.

Viloyat mahkamalarida hamisha xo'jalik bo'limlari asosiy rol o'ynab, ular zimmasiga quyidagi muhim vazifalar yuklangan: o'troq va ko'chmanchi aholining yer ishlarini «tartibga solish», vaqf ishlari, mahalliy aholining suvdan foydalanish va soliq to'lash ishlarini boshqarish, davlat muassasalarini pul majburiyatlari va ularni idora qilish sarf-xarajatlari smetasini tuzish, bojxona to'lovlarini yig'ish va o'lkaning xomashyo resurslarini qazib olish uchun ruxsatnomalar berish, savdo bitimlari va pudratlarini rasmiylashtirish.

Mustamlaka hukumatining mahalliy aholi hayotining barcha sohalariga o'zboshimchalik bilan aralashuvi va har tomonlama bo'ysundirish tamoyili boshqaruvning quyi organlari tuzilishi va vazifalarini ko'rib chiqish jara-

## Tuman boshqaruvi



yonida yanada aniq-ravshan namoyon bo'radi. Bu, birinchi navbatda, uyezd boshliqlari rahbarligidagi uyezd ma'muriyatiga tegishli. Uezd boshliqlari, odatda shahar oqsoqoli, davlat muassasasi boshlig'i, yer-soliq xizmati raisi, politsiya boshlig'i, uyezdga joylashtirilgan qo'shin qo'mondoni kabi bir qancha lavozimlarni egallagan.


Tizimning bu tarmog'i ustiga volostlar va qishloqlardagi tartib-intizomni nazorat qilish, soliqlarni hisob-kitob qilish, yer va suv haqidagi doimiy janjallarni hal etish, mahalliy ma'muriy va sud organlariga saylovlar o'tkazish kabi ko'p sonli joriy ishlarining asosiy og'irligi tushar edi. Amalda bu tarmoq eng layoqatsiz, shaxsiy g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi bo'lib chiqdi va yuqori idoralardan o'zini kuchaytirish uchun ko'p bora qayta tashkil etishlarni talab qildi. Uezd ma'muriyatini politsiya va jazo vakolatlari bilan kuchaytirish, xalq qahru g'azabiga uchragan amaldorlarni o'z vaqtida qo'shni uyezdlar va viloyatlarga o'tkazish, ularning juda haddan oshganlarini javobgarlikka tortish orqali shunday «kuchaytirish»ga muvaffaq bo'lindi. Masalan, 1883-yili Farg'ona viloyatida mustamlaka amaldorlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan 238 marta tergov olib borilgani qayd etilgan, 106 holat bo'yicha tekshirish o'tkazilgan, lavozimdan foydalanib, jinoyat sodir etgani uchun 18 kishi sudga berilgan, qolgan ishlar harbiy gubernator buyrug'i bilan to'xtatib qo'yilgan.

Mahalliy aholiga qonunga xilof ravishda og'ir soliqlar solish amaldorlar axloqi nuqtayi nazaridan odatiy hodisa edi. Yo'llar, ko'priklar va boshqa inshootlarni qurish va ta'mirlash uchun aholidan yig'ilgan mablag'larni talon-taroj qilish, tamagirlik hamda volost va qishloqlar oqsoqollari lavozimini sotish, vaqf yerlari va mulklari bilan bog'liq turli qing'ir ishlar va boshqalar juda avj olgan edi. Bu jarayonlar viloyatlar harbiy gubernatorlari, general-gubernatorlarning hisobotlari va hatto F. K. Girs (1882) va K. K. Palen (1907) kabi senatorlarning taftish hujjatlarida ham deyarli aks etmagan. Senatorlar volost va qishloq oqsoqoligiga nomzodlar tayinlashdagi poraxo'rliklar, qozilik va biylik sudlarining sotqinliklari haqidagina yozishni lozim topib, saylov tizimini bekor qilish va hamma

darajalarda imperiya sudlarining faoliyat ko'rsatishini joriy etish zarurligini talab qildilar.

Volostlardagi hokimiyat tizimi boshqaruv va saylov qurultoyidan iborat bo'lgan. Volost oqsoqolligiga saylovlar ikki bosqichda o'tkazilgan. Dastlab qishloq yig'ini to'plangan. Unda har 50 xonadon sohibidan bir kishi saylangan. Keyin qishloq jamoasidan saylanganlar rus ma'muriyatining kuzatuvchiligida o'tadigan volost qurultoyiga yig'ilganlar. Saylanganlar umumiy miqdorining 2/3 qismi qatnashmasa, volost yig'ini o'tkazilmagan hisoblanadi.

4-chizma



Volost qurultoyi volost oqsoqoli, xalq sudyalari — qozilar, biylar va ularga nomzodlarni saylash; ma'muriyatning quyi lavozimdagi shaxslari — ariq-oqsoqollar, miroblar, raislar, mirshablar va boshqalarga maosh belgilash; aholini suv bilan ta'minlash va uning suvdan foydalanishini tartibga solish; yo'llar, ko'priklar, turli xo'jalik qurilishlarining ahvolini nazorat qilish maqsadlarida o'tkazilgan.


Oqsoqol alohida siyosiy vazifalarni ham bajargan: o'ziga ishonib topshirilgan volostning tinchligini nazorat qilgan; xalq sudi qaramog'ida jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergov o'tkazgan, 3 so'mgacha jarima solgan (1867-yilgi Nizomning 112-bandi).

Agar volost oqsoqoli rus ma'muriyatini qoniqtirmasa, viloyat harbiy gubernatori yangidan saylovlar o'tkazish yoki uning o'rniga vaqtincha boshqa kishini tayinlashi mumkin edi. Chor ma'muriyati bu huquqdan juda keng foydalangan. Masalan, F. K. Girsning hisobotida quyidagi ma'lumot keltiriladi: «Uch yil mobaynida Sirdaryo viloyatidagi volost oqsoqollaridan 38 kishi o'z vazifasidan ozod qilingan, bu 35% ni tashkil etadi va yiliga deyarli 13 kishiga to'g'ri keladi». Bunday hodisalar boshqa viloyatlar uchun ham xos edi.


Agar shahar boshqaruvi haqida gapirmay o'tilsa, Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy qurilishi to'g'risidagi materiallar bayoni to'la bo'lmagan bo'lar edi.

## Shahar boshqaruvi

### a) tuman shaharlari idorasi



### b) Toshkent shahri idorasi



Shaharlar dahalarga bo'linib, uy sohiblarining yig'inlari saylagan saylovchilarning qurultoyida saylangan oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Shahar tumanlarining oqsoqollari harbiy gubernator tomonidan tayinlanadigan bosh oqsoqolga bo'ysunganlar. Bosh oqsoqolga quyi politsiya xizmatchilari — mirshablar, shahar sug'orish tizimining boshliqlari — miroblar hamda sudyalar — qozilar va biylar ham tobe bo'lganlar. Ularning



barchasiga alohida to'plangan mablag' hisobidan maosh to'langan. Shaharlarning yevropalik aholi yashaydigan qismlarida ma'muriyat harbiy gubernatorlar tomonidan tayinlangan.

Turkiston general-gubernatorligining siyosiy va ma'muriy markazi bo'lgan Toshkent o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega edi. Shaharning eski va yangi qismlarida alohida-alohida xo'jalik-jamoat mahkamalari tashkil etilgan. Shu bilan birga, eski shaharda mahkama a'zolari shahar kattalarining vakillari tomonidan saylangan. Yangi «Shahar nizomi»ga muvofiq 1877-yilda butun shahar xo'jaligini boshqarish Toshkent har ikkala qismining yalpi aholisi tomonidan saylanadigan shahar Dumasi qo'liga o'tdi.

Duma a'zolariga saylovlarda ishtirok etish huquqidan ko'chmas mulk (shahar foydasiga soliq yig'iladigan vaqflar ham bunga kirgan) sohibi bo'lgan, 25 yoshdan oshgan, Rossiya fuqaroligiga ega aholigina foydalangan. Bu talablarga javob bermagan aholining mehnatkash toifasi saylovlarga qo'yilmagan.

Toshkent Dumasi a'zolarining 1/3 qismi shaharning «osiyo qismi»dan, 2/3 qismi «ruslar yashaydigan qismi»dan saylangan. Saylovchilar mulkiy holatiga ko'ra tabaqalarga bo'lingan. Har bir tabaqa uni tashkil etgan kishilar soni qanchaligidan qat'iy nazar bir xil miqdordagi a'zolarini — 24 kishini saylagan. Masalan, birinchi chaqiriq Duma tarkibiga birinchi toifali a'zo qilib 24 kishi saylangan. Ularning faqat 6 nafarini mahalliy aholi vakillari tashkil etgan. Ikkinchi toifali a'zo qilib — 8, uchinchi toifali a'zo qilib — 7 nafar mahalliy millat kishilari saylangan. Shunday qilib, 80 ming kishidan iborat bo'lgan mahalliy aholi 21 nomzodni saylash huquqiga ega bo'lganlari holda, uncha ko'p bo'lmagan, 1877-yildagi ma'lumotlarga ko'ra 3921 kishini tashkil etgan rus aholisi Duma a'zolariga 48 nomzodni saylagan. Dumaning ijroiya organi — shahar Mahkamasiga vakillar saylashda ham xuddi shunday tengsizlikka yo'l qo'yilgan.

Toshkent shahar hokimi ma'muriyat tomonidan tayinlangan va u, odatda Toshkent shahri boshlig'i hisoblangan. Bu ikki lavozimni o'z qo'lida tutgan K. P. Kaufman buni: «...mazkur lavozimga o'z vazifasiga noloyiq kishining tasodifan saylanib qolishidan ehtiyot bo'lish, eng muhimi esa, aholisining asosiy qismi yaqinda bo'ysundirilgan musulmonlar bo'lgan shaharning siyosiy ahvolini hisobga olish» bilan asoslaydi. Bu amalda shahar o'z-o'zini boshqaruvining to'laligicha mustamlaka ma'muriyatiga bo'ysunganligini ko'rsatadi. Bu pirovard natijada aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosatiga aylandi.

Mustamlakachilikka asoslangan hokimiyat tizimining umumiy tavsifi uning muhofaza qilish va jazolash muassasalarining faoliyatida ham o'z aksini topadi. XIX asrning 60—80-yillarida sud tizimining asosiy bo'g'inlari quyidagilar edi: qozilar va biylarning saylab qo'yiladigan sudlari, uyezd sudlari, muvaqqat harbiy-sud komissiyalari, viloyat mahkamalarining sud bo'limlari va Turkiston general-gubernatorligi Devonining sud bo'limi.


1867-yilgi «Nizom»ga muvofiq mahalliy aholi uchun sudning birinchi bosqichi ishni hal qiluvchi qozilar va biylarning yakka sudidan iborat bo'lib,

unga ko‘ra da‘voning miqdori 100 so‘mdan oshmagan. Ikkinchi bosqichi ishni hal qiluvchi xalq sudlarining qurultoyi bo‘lib, bunda da‘voning miqdori 1000 so‘mdan oshmagan. Bir vaqtning o‘zida ular yakka sudlarning qarorlari bo‘yicha shikoyatlarni ko‘rib chiqadigan bosqich hisoblangan. Turli volostlar va uyezdlarning aholisi o‘rtasida kelib chiqadigan murakkab va janjalli masalalarni hal qiluvchi xalq sudlarining favqulodda qurultoyi sudning oliy bosqichi bo‘lgan.

Saylov usuli hamda qozilar va biylar lavozimlariga nomzodlar oldiga bilim darajalarini birmuncha oshirish talabining qo‘yilmaganligi sud muassasalariga musulmon huquqi bo‘yicha yetarli ma‘lumotga ega bo‘lmagan, nodon va johil kishilarning suqilib kirishlariga keng yo‘l ochib berdi. Buning oqibatida juda tez-tez turli darajadagi mansabini suiiste‘mol qilish va sud ishlarini buzish hollari yuz berib, xalqning haqli ravishdagi noroziligiga sabab bo‘ldi. Uning shikoyatlari, xat va arizalari turli mustamlakachi muassasalarda, odatda, e‘tiborsiz qolib ketar edi. Ma‘murlar sudyalar «sodiqlik darajasi», chor rejimiga sadoqatidan kelib chiqar, xalq dardi ularni deyarli tashvishlantirmasdi. Ular aynan mustamlakachi tartiblarni qo‘llab-quvvatlovchi shunday toifadagi sudyalardan «ishonchli kadrlar zaxirasi»ni yaratishni ko‘zda tutganlar.

6-chizma

**Aleksandr II tomonidan 1864-yilda sud nizomlarining joriy etilishidan so‘nggi umumsaltanat sudi (XX asr boshlari)**



Sud tuzilishi va sud ishlarining umumimperiya o‘zanidagi va 1864-yilgi sud ustavlari nuqtayi nazaridan rivojlanish tamoyillariga kelganda, ularning dastlab juda arziyas ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz.

1867-yilgi «Nizom loyihasi»ga muvofiq rus aholisi uchun uyezd sud instituti tashkil etildi. Ularning vakolati va faoliyat ko‘lami Yevropa Rossiyasidagi fuqarolik ishlarini quruvchi sudlar darajasida edi. Lekin Kaufmanning buyrug‘iga ko‘ra harbiy gubernatorlar, ularning yordamchilari,

uyezd boshliqlari, harbiy-okrug boshqarmalarining bo'lim boshliqlarini sud qilish ehtiyotkorlik bilan bu sudlarning vakolat doirasidan chiqarildi. Buning ustiga, viloyatlarning harbiy gubernatorlariga sudlar faoliyatiga aralashish, uyezd sudlarini tartibga chaqirish va ularga hayfsan berish huquqi berildi. Uyezd sudlari instituti 1887-yilning 1-yanvarigacha faoliyat ko'rsatdi. Keyin 1886-yil 12-yanvardagi «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida»gi Nizomga muvofiq nafaqat uyezdlarda, balki shaharlarda ham fuqarolik ishlarini ko'ruvchi sudlar instituti bilan almashtirildi

Viloyat va o'lka darajasidagi sud vazifalarini shunday huquq va vakolatdan foydalanib, viloyat mahkamalarining sud bo'limlari va general-gubernator Devoni amalga oshirgan. Sudlarning ma'muriyatdan qisman ajralishi 1887-yilda — o'lkaning Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida viloyat sudlarining joriy etilishi bilan sodir bo'ldi. Har bir viloyat sudida prokuror va uning o'rinbosari lavozimini joriy etish ko'zda tutildi. Viloyat sudlari kelishtiruvchi sudyalardan ularga o'tgan ishlarda 1864-yilgi Sud ustavini, qolgan ishlarda — islohotdan oldingi ustavlarni asos qilib oldilar.

1899-yildan e'tiboran viloyat sudlarining vazifalari 1898-yil 2-iyunda tasdiqlanib, keyin joriy etilgan «Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv va boshqa viloyatlarga sud ustavlarini qo'llash haqidagi qoidalar loyihasi»ga muvofiq Toshkent sud palatasining okrug sudlari ixtiyoriga o'tdi. Har bir okrug sudi va Toshkent sud palatasi huzurida prokurorlar, ularning o'rinbosarlari, sud tergovchilari va advokatlar lavozimi joriy etilgan. Bu sudlarning majlislarida sudlanuvchining aybdorlik darajasi va chegarasini belgilovchi advokatlar qatnashgan. Ular ishtirok etgan okrug sudlarining qarori o'zgartirilmagan, aks holda, Toshkent sud palatasiga shikoyat tushishi mumkin edi. U Turkiston o'lkasi hududidagi shikoyatlarni ko'rib chiqadigan oliy sud bosqichi hisoblangan. Toshkent sud palatasi ustidan qilingan shikoyatlarni esa Rossiya imperiyasining hukumat Senati ko'rib chiqqan.

Sudlarning ma'muriyatdan ajralishi, shubhasiz, oldinga qo'yilgan qadam bo'ldi va chorizmnining o'z sud tizimini erkinlashtirishga yo'naltirilgan siyosatiga muvofiq keldi. Shunga qaramay, mustamlakachi ma'murlar sudlarga tazyiq o'tkazish va ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir ko'rsatish yo'llarini topdilar. Qolaversa, zikr etilgan sudlar bilan bir qatorda, harbiy, harbiy-dala va alohida sudlar faoliyat ko'rsatishda davom etdilar va alohida ahamiyatga ega bo'ldilar, xalq qo'zg'olonlari va g'alayonlari, chorizm va mustamlaka idora usuliga qarshi milliy-ozodlik harakatlari qatnashchilarini sira kechiktirmay jazolab turdilar.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvining xarakterli xususiyati shundan iborat bo'ldiki, mustamlakachi ma'muriyatning qat'iy turib talab qilishi natijasida 1892-yildan boshlab 1917-yilgacha «kuchaytirilgan» va «favqulodda» muhofaza haqidagi Nizom joriy etildi va faoliyat ko'rsatdi. Buning natijasida butun ma'muriyatning politsiya va jazolash bilan bog'liq vazifalari haqiqatda chegara bilmadi, zulm-zo'rlik va qatag'on usullari Turkiston xalqlarining milliy o'z-o'zini anglashiga jiddiy jarohat yetkazgan va ularda bu haqoratli istibdoddan xalos bo'lish ishtiyoqini yanada kuchaytirdi.

Shunday qilib, XIX asrning oxirida Turkistonda harbiy-ma'muriy boshqaruvda qarama-qarshi u yoki bu darajada mustaqil bo'lgan sud tizimini vujudga keltirish maqsadida amalga oshirilgan harakatlar Turkiston o'lkasi xalqlari uchun biror-bir darajada jiddiy ahamiyatga ega bo'lmadi. Burjua ustavlarida o'z aksini topgan «o'z huquqini tanishning yangi shakli» faqat yuqori doira vakillari va qisman rus aholisi o'rta tabaqasiga nisbatangina qo'llanildi. Qashshoq va huquqsizligi, zarurat tug'ilgan taqdirda bu sudlarning xizmatidan foydalanishga moddiy mablag'i bo'lmaganligi uchun ham mehnatkash rus xalqining quyi qatlamlarini u chetlab o'tdi.

Mustamlaka tuzumiga qarshilik ko'rsatish harakatining o'sib borishi bilan chorizmning mintaqada barqaror vaziyatni ta'minlash borasidagi vazifalarining murakkablashuvi natijasida jazo muassasalari tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari ko'rildi. Shaharning «eski» va «yangi» qismlaridagi hamda o'lkaning aholi punktlaridagi politsiya mahkamalari, jandarm-politsiya boshqarmalari hamda ularning O'rta Osiyo (1899) va Toshkent (1905—1906) temiryo'l bekatlaridagi bo'limlari hisobiga kuchaytirildi. 1907-yil avgustida chor hukumatining farmoyishiga binoan Turkiston o'lkasida tergov ishlarini tashkil etish uchun Maxsus bo'lim barpo etiladi. Mahalliy politsiya ma'murlari «mahalliy aholi ilg'or qismining kayfiyati» va umuman o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni kuzatib borishlari va barcha ma'lumotlarni ushbu bo'limga yetkazishlari kerak edi.


1907-yil oktabrda Maxsus bo'lim Turkiston mintaqasi maxfiy politsiya mahkamasi (oxranka)ga aylantirildi hamda Ashxabat, Verniy va Turkiston o'lkasining barcha yirik shaharlaridagi tergov bo'limlari uning faoliyat doirasiga kiritildi.

Oxrankaning asosiy e'tibori mahalliy aholi orasiga, maktablar, madrasalar, gimnaziyalar, bilim yurtlari, fabrika va zavodlarga yashirin ayg'oqchilarni joylashtirishga qaratildi. Hatto «tekshirilayotgan muhitdagi bo'shashgan xizmatchi qidirish yetakchilari rasman aralashib yurishi mumkin bo'lgan jamiyatdan ko'ra davlatga qarshi jinoyatlarni ochishda beqiyos darajada katta yordam beradi» — deb hisoblandi. Maxfiy chaquvlar, taftish hujjatlari, so'roqlardan iborat boshqa barcha vositalar faqat ikkinchi darajali yordamchi vositalar sifatida e'tirof etildi. Shunday hollar bo'ldiki, ayg'oqchilar ataylab, go'yoki o'lkadagi rus aholisiga qarshi yo'naltirilgan panturkistik va panisломistik harakatlar to'g'risida mish-mish tarqatganlar va bu mahalliy aholiga qarshi qatag'onlar uyushtirish uchun qulay bahona bo'lib xizmat qilgan.


Chorizmning o'lka xalqlariga qarshi kurashining muhim vositalaridan biri — jazo muassasalari — o'lka, viloyat va uyezd darajasidagi qamoqxonalar, avaxtalar, turmalar bo'lgan. Ularni tashkil etish va saqlab turish uchun ma'murlar har yili 80 ming so'mgacha sarflaganlar. Qamoqxona rejimining asosi qilib Rossiya imperiyasi qamoqxonalar Bosh bosh-qarmasining ustav va yo'riqnomalari olingan. Maxsus qonun (1886) asosida qamoqxonalar ma'muriyati va hatto xususiy pudratchilarning mahbus mehnatidan foydalanishlariga ruxsat berilgan.

**Rossiya imperiyasi ichki ishlar vazirligi politsiya departamenti  
organi — Turkiston tuman muhofaza bo'limi (maxfiy siyosiy  
politsiya — oxranka) — TTMB**

**a) Shaxsiy tarkib**



**b) Turkiston o'lkasi TTMBga bo'ysunuvchi politsiya-jandarm boshqarmasi bo'limi**



Turma nazoratchilarining xatti-harakatlari ma'murlar tomonidan deyarli nazorat qilinmagan. Tergovdagilar va mahbuslarga nisbatan kuch ishlatish usuli odatiy hodisa edi. Chorizm tomonidan qamoqxonalarda tashkil etilgan va yana o'sha amaldorlar, harbiy xizmatchilar va ulamolar namoyondalaridan iborat bo'lgan vasiylik qo'mitalari mahbuslarning muammolarini tushunib yetmadilar va ularning manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanmadilar. Keyinchalik, mustamlaka tuzumiga qarshi harakatlarning o'sib borishi bilan qamoqxonalar qurilishini kengaytirishga ehtiyoj tug'iladi, o'lkada «o'zlarining og'ir jazo berishga mo'ljallangan qamoqxonalari»ni ochish to'g'risidagi masalani muhokama qiladilar, qamoqxona tartiblaridagi qattiqqo'llikni tobora kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinadi, hukumatning barcha qonun va qoidalarini chetlab o'tib harakat qilishga imkon beradigan «favqulodda» mexanizmlari kengayadi va kuchayadi.

Shunday qilib, Turkistonni mustamlakaga aylantirish jarayonida tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatgan boshqaruv tuzilmalari va muassasalari birlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan holda, chorizmning Turkiston xalq-

larining mustamlakachi tuzumga qarshi noroziliklarining har qanday ko‘rinishlarini harbiy yo‘l bilan bostirish, davlatchilikning an’anaviy shakllarini yo‘qotish va Rossiya davlatchiligi asoslarini kuch bilan o‘rnatish, mintaqaning boy moddiy va inson resurslaridan foydalanishning arzon va samarali tizimlarini yaratishdan iborat asosiy vazifasini hal qildilar.

Boshqaruv tuzilmalari bilan bir qatorda, chorizm tomonidan Turkistonni mustamlaka sifatida talon-toroj qilishni tashkil etish uchun davlat muassasalarining keng tarmog‘i vujudga keltirildi. Moliyaviy tushumlar ustidan umumiy nazoratni 1868-yili tashkil etilgan Turkiston nazorat palatasi hamda Davlat nazorat idorasi va Moliya vazirligi qaramog‘idagi Turkiston podsholik palatasi amalga oshirganlar. 1874-yili Toshkentda Davlat bankining bo‘limi ochildi, 1881-yildan e‘tiboran esa, birinchi xususiy bank — O‘rta Osiyo tijorat banki faoliyat ko‘rsata boshladi.



**O‘zR KSOH MDA 0-98153 Davlat banki bo‘limi. — Toshkent, 1874-y.**  
**Muallifi noaniq.**

XX asr boshiga kelib Turkistonda Davlat bankining — 10 va tijorat banklarining — 40 ta bo‘limi faoliyat ko‘rsatgan. Ularning ko‘pchiligi katta foyda keltiradigan paxta operatsiyalari, shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat, ko‘mir, neft, rangli metallar qazib olish, temiryo‘llar, harbiy va noharbiy qurilishlarga sarmoya ajratish bilan shug‘ullangan. Banklar turli shakldagi monopolistik bitimlarni tuzganlar va ularni mablag‘ bilan ta‘minlaganlar, sekin-asta o‘lka iqtisodiy hayotida muhim omilga aylanib, tadbirkorlik tuzilmalariga yo‘nalish berganlar.

1886-yildan Toshkentda Aksiz boshqarmasi faoliyat ko‘rsata boshlaydi. U spirtli ichimliklar, tamaki, gugurt, neft mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish, shuningdek, tamg‘a, sud, pasport va boshqa qo‘shimcha yig‘imlar bilan shug‘ullangan.

Turkiston bo‘jxonasi (1890) Turkistonning savdo aloqalari ustidan nazorat o‘rnatgan. Buxoro va Xiva xonliklari ham uning faoliyat doirasiga kiritilgan. 1889-yil 9-maydagi qonunga binoan Moliya vazirligi rahbarligidagi

solliq nozirlari muassasasi ta'sis etiladi. U aholiga soliqlarni taqsimlash va yig'ib olish, yer-mulk, sanoat va savdoga soliq solish ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan.

O'lkaning tabiiy boyliklari ustidan 1897-yilda ta'sis etilgan Dehqonchilik va davlat mulki Boshqarmasi nazorat qilgan. Boshqarma faoliyatining asosiy yo'nalishi Rossiya hukumatining uzoq muddatga mo'ljallangan ruslashtirish rejasining tarkibiy qismi hisoblangan ko'chish-ko'chirish siyosatini amalga oshirishdan iborat bo'lgan.

Chorizm tomonidan tashkil etilgan hakamlik va birja qo'mitalari turli-tuman savdo bitimlari va bank operatsiyalarini amalga oshirishda ko'maklashganlar.

Rossiya vazirliklari va idoralariga bo'ysungan hamda bevosita Turkistondagi mustamlaka hukumati tasarrufida bo'lgan, yuqorida sanab o'tilgan muassasalar o'z faoliyatlari davomida sekin-asta o'lkaning boy moddiy va inson resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanishni tartibga soldilar va metropoliya budjetiga moliyaviy tushumlarni jadallashtirishga imkon yaratdilar.

Sekin-asta Rossiya kapitalizmi va mintaqa an'anaviy iqtisodining o'zaro birlashib ketishi sodir bo'ldi. Turkistonni o'zining paxta bazasiga aylantirishga muvaffaq bo'lib, savdo-sanoat doiralari bilan mushtarak manfaatlarga ega bo'lgan chor hukumati «sanoat paxtachiligi»ni vujudga keltirish va rivojlantirishga homiylik qildi, O'rta Osiyo, Orenburg—Toshkent va ichki temiryo'l magistrallarini qurish, aksionerlik jamiyatlari, paxtachilik firma va shirkatlarini keng yoyish, ko'proq daromad olish maqsadida paxtachilik xo'jaliklarida qarz berish tizimini yaratishga yordam berdi. Lekin bu barcha o'zgarishlarning pirovard maqsadi mustamlaka o'lkadan qat'iy markazlashtirilgan holda qo'shimcha mahsulot olinishini ta'minlash va uning aholisi ustidan politsiya nazoratini kuchaytirishdan iborat bo'lib qolaverdi.

Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asrning boshida faoliyat ko'rsatgan jamiyatning mustamlakachilik tizimi uning xalqlarini milliy davlatchilikdan mahrum qildi, ularni taraqqiyotning umumsivilizatsiya jarayonlarida mustaqil ishtirok etish yo'llarini kesib qo'ydi, jamiyatning ijtimoiy-madaniy parametrlariga jiddiy zarar yetkazib, uning keyingi davrdagi zo'rlab sovetlashtirilishi uchun zamin yaratdi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Turkiston general-gubernatori boshqaruv sohasida qanday huquqlarga ega bo'lgan?
2. Turkiston general-gubernatorligi devoni qanday bo'limlardan iborat edi?
3. Harbiy gubernatorlar qanday vakolatlarga ega edi?
4. Viloyat mahkamalari nima bilan shug'ullangan?
5. Markaziy boshqaruv tizimi qanday tuzilishga ega bo'lgan?
6. Sud muassasalari faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?

---

---

## 9-mavzu. XX ASR BOSHLARIDA JADIDLARNING MILLIY DEMOKRATIK DAVLAT QURISH G‘OYALARI

1. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar.
2. «Yosh buxoroliklar» faoliyati.
3. «Yosh xivaliklar»ning davlatchilikka oid qarashlari.

Ma’lumki, jadidchilik ijtimoiy rivojlanishning tub burilishi bosqichida yuzaga keldi. Mahalliy taraqqiyparvarlarning mustamlaka Turkistonda inqirozli holatni, o‘lkaning umumjahon jarayonlaridan tobora ortda qolayotganini, tub aholining erkparvarlik harakatlariga keskin zarba berilib, hamma joylarda bostirilishini, ma’naviyat sohasidagi turg‘unlikni idrok etishlari jamiyatni atroflicha isloh etish kerak degan g‘oyaning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi.

Turkistonda dastlabki jadid guruhlari XX asr boshlarida yuzaga keldi. Jadidlarning taniqli vakillari milliy ziyolilarning o‘zagini tashkil etgan kishilar edi.

Jadidchilik harakati ma’rifatchilik va siyosiy bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lishiga qaramay davlatchilik masalasi ularning g‘oyaviy maqsadlari asosini tashkil etgan.

Birinchi bosqichda milliy ziyolilar davlatni boshqarish uchun ma’rifatli kishilarni tarbiyalash, ya’ni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ular yordamida milliy davlat manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratdilar. Ular xalqning turmush sharoitini yaxshilash uchun mustamlaka — feodal zulmi va og‘ir majburiyatlardan xalos bo‘lish, ma’naviy erkinlikka erishish zarur, deya hisoblagandilar.

1917-yil Rossiya Fevral demokratik inqilobi arafasida, Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar Birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo‘lsalar, fevral voqealaridan so‘ng ular bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o‘lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o‘tkazish, o‘lkada Davlat Dumasidan aholi soniga qarab o‘rin berish, asosiy demokratik erkinliklar bilan ta’minlanish va konstitutsion tuzum o‘rnatishni talab qildilar.

Shu yilning bahoridan jadidlar o‘lka tub aholisining taraqqiyoti va mustaqilligi to‘g‘risidagi o‘z g‘oyalarini o‘lkadagi demokratik inqilob bilan bog‘lab, o‘zlari e’lon qilgan tamoyillarni amalga oshirishga faol kirishdilar. Bu hol mahalliy hokimiyat tuzilmalarini shakllantirish chog‘ida ancha to‘liq namoyon bo‘ldi.

Bir tomondan, o‘lkada ishchi va soldat deputatlari Petrograd Sovetining da’vatiga muvofiq, ishchi deputatlari Sovetlari bilan soldat deputatlari Sovetlari tuzila boshladi. Toshkent ishchi va soldatlari ana shu ishning tashabbuskorlari



bo'ldi. Dastlab ishchi deputatlarning Toshkent Soveti, keyinchalik esa soldat deputatlari Soveti tashkil qilindi. Ko'p o'tmay, ular yagona Toshkent Sovetiga birlashdilar. Tez orada shu Sovetning chaqirig'i bilan Turkiston shaharlari va ishchi posyolkalarida Sovetlar barpo etila boshladi.

Sovetlarni tuzish bilan bir vaqtda jamoat tashkilotlari ijroiya qo'mitalarining va jamoat xavfsizligi qo'mitalarini tashkil etish boshlandi. Qo'mitalar joylarda muvaqqat hukumat organlari o'rniga da'vo qilib, barcha demokratik tashkilotlarni birlashtiruvchi sifatida faoliyat olib bordilar. Mazkur organlarning qonuniy huquqqa ega ekanligi o'lka milliy jamoatchiligi tomonidan hamma joyda e'tirof qilindi.

1917-yil 14 martda Toshkentda chaqirilgan birinchi musulmonlar qurultoyida umumiy milliy markaz «Sho'royi Islom» tashkil qilindi. Unga milliy-liberal, progressiv harakat — jadidlar va ruhoniylarning «Jumhuriyati Ulamo» tashkiloti vakillari kiritildi. Ishchi va soldat deputatlari Sovetlaridan farqli o'laroq yangi tuzilgan milliy tashkilot islom diniga e'tiqod qiluvchi tub aholidan saylangan deputatlar Soveti deb tushunildi.

Boshqaruvning dastlabki majlisida 15 kishidan iborat boshqaruvni tuzish va muvaqqat Nizom qabul qilish qaror qilindi. Nizomga muvofiq Turkistonning barcha shaharlari va qishloqlarida «Sho'royi Islom» tuzish zarurligi qayd etildi. Shuningdek, o'lka musulmon aholisini jipslashtirishga, siyosiy ongini rivojlantirishga, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilishga harakat qilish zarur deb hisoblandi.

Umuman olganda «Sho'royi Islom» tashkilotining xalq ommasi o'rtasidagi ta'sirini kuchayib borishi Turkistonda Markazga o'xshab qo'sh hokimiyat emas, balki siyosiy maydonda **uch hokimiyatni** yuzaga keltirgan edi:

— *Turkiston Sovetlari* — inqilobiy demokratiyaning xohish — irodasini ifodalovchi yevropalik ishchi va soldatlarning organi bo'lib, jamiyatga ta'sir o'tkazish uchun yetarli kuchga ega edi. Shu boisdan ham ular Muvaqqat hukumat davlat muassasalari faoliyati ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo'lishga da'vo qilardilar;

— *ijroiya qo'mitalar* — Sovetlarga nisbatan aholining ancha keng ijtimoiy milliy guruhlarini namoyandalari bo'lib, ularning tarkibiga turli partiyalar, jamoat tashkilotlari kirgan. Ular barcha demokratik tashkilotlarni birlashtiruvchilar sifatida ish ko'rdilar va joylarda muvaqqat hukumat organlari rolini bajarishga da'vo qildilar;

— «*Sho'royi Islom*» tashkiloti — tashkiliy jihatdan tarkib topish paytidayoq musulmon aholining vakolatli organlari sifatida faoliyat olib borib, shu aholini xohish-irodasini ifoda etdi va uning manfaatlarini himoya qildi.

Keyinchalik Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o'z tasavvurlarini hayotga joriy etishda taraqqiyparvar namoyandalari «Sho'royi Islomiya», konservativ qismi «Sho'royi Ulamo» tashkilotlariga ajralib ketdi. Ammo Ta'sis majlisida o'rin olish masalasining muhimligini anglash, ularni birlashtirishga va «Turk Adami markaziyati» nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi.

Biroq Turkistondagi oktabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi ularga o'z maqsadlarini amalga oshirishga imkon bermadi. Turkiston bolsheviklari ham o'lkaga va mahalliy davlat apparatining yangi hokimiyatga xizmat qilishi kerak bo'lgan totalitar — mustamlaka tizimini vujudga keltira boshladilar. Shunga qaramay, jadidlar yangi bolsheviklar hokimiyatining «Millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi to'g'risida»gi deklaratsiyasida ko'rsatilgan huquqlaridan foydalanib, markazi Qo'qonda bo'lgan, Turkiston Muxtoriyati deb atalgan mustaqil muxtor respublika e'lon qildilar.

1917-yil 28-noyabrda tashkil topgan davlat Turkiston Muxtoriyati Ta'sis syezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to'la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo'lida jamlanadi. Muvaqqat Kengash a'zolaridan 12 kishilik hukumat tuziladigan bo'ldi.

Xalq majlisi (unga 54 o'rin belgilandi) tarkibidan shaharlar mahalliy boshqarmalaridan ham 4 vakilga va o'lkadagi turli tashkilotlarning yevropalik vakillariga 18 o'rin ajratildi.

Tashkil etilayotgan hukumat tarkibiga turli milliy guruhlar vakillarining qatnashishi mo'ljallandi. Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati tarkibiga muxtoriyatchilik harakatining faol ishtirokchilari kirdi. Quyidagi kishilar hukumat a'zolari bo'ldilar:

1. Muhammadjon Tinishpayev — bosh vazir, ichki ishlar vaziri, 2-chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a'zosi, yo'l muhandisi.

2. Islom Sulton Shoahmedov (Shoshahmedov) — bosh vazir o'rinbosari, Butunrossiya musulmonlari kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

3. Mustafo Cho'qayev — Turkiston Musulmonlari Markaziy Sho'rosi raisi, huquqshunos.

4. Ubaydulla Xo'jayev — harbiy vazir, Butunrossiya Musulmonlari kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

5. Yurali Agayev — yer va suv boyliklari vaziri, agronom.

6. Obidjon Mahmudov — oziq-ovqat vaziri, Qo'qon shahar Dumasining rais o'rinbosari, tog'-kon sanoati mutaxassisi.

7. Abdurahmon O'razayev — ichki ishlar vazirining o'rinbosari, huquqshunos.

8. Solomon Abramovich Gersfeld — moliya vaziri, huquqshunos.

Qo'shimcha 4 kishi yevropalik aholi vakillari ichidan nomzodlar ko'rsatilgach, qayd etilishi ko'zda tutilgan edi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko'rdi. 1918-yil 22(9)-fevralda sovet hokimiyati tomonidan kuch bilan tor-mor qilindi. O'lkada yangi ma'muriy-boshqaruv tizimi joriy etildi.

XX asr boshida Rossiyada amalga oshirilgan demokratik jarayonlar, 1908-yilda Turkiyada bo'lgan yosh turklar inqilobi, Petrograddagi 1917-yil fevral inqilobidan keyin Buxoro amirligi hududida jadidchilik harakati kuchaydi. Buxoro jadidchiligi Turkistonga nisbatan kechroq yuzaga kelgan bo'lsada, amirlikdagi og'ir ijtimoiy-siyosiy vaziyat uni rivojlanishini tezlashtirdi. Da-

stlab ma'rifatparvarchilik bilan o'z faoliyatini boshlaganligiga qaramasdan ular tez orada mamlakatdagi tuzumni o'zgartirmasdan, o'z maqsadlarini amalga oshirish qiyinligini anglab yetdi.

Buxoro jadidlari ikki oqimga bo'lingan edi, biri eskicha fikrlaydigan bo'lsa, ikkinchisi Fitrat boshchiligidagi yoshlar edi. Bu holat esa kelishib olinmagan harakatlarga sabab bo'ldi. Natijada, amir manifestini qo'llash uchun o'tkazilgan tinch namoyish quvg'in etildi va jadidlarga qarshi qatog'onlar boshlandi.

Buxoro jadidlari amirlikni tark etib Samarqand, Toshkent va Moskvaga ketishga majbur bo'lishdi. Yosh buxoroliklarning bir qismi 1918-yil yozida Toshkentda Buxoro Kompartiyasini tuzishdi.

Fayzulla Xo'jayev Moskvadagi muhojirlik davrida — 1918-yil oktabrda Turkiston Respublikasining RSFSR hukumati huzuridagi muxtor vakolatxonasi qoshida Yosh buxoroliklar partiyasining bo'limini tashkil qildi. 1920-yil yanvarda Toshkentda F. Xo'jayev boshchiligidagi Yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi tashkil qilindi.

Yosh buxoroliklar partiyasi o'z islohotlar dasturiga ega bo'lib, unda Buxoro davlatining tuzilishiga oid qarashlar aks ettirilgan edi. Dastur loyihasi Fitrat tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy qo'mita tomonidan qabul qilingan edi. Unda boshqaruvning monarxiya shaklini o'zgartirmagan holda ikki asosiy maqsadni: Buxoroda huquqiy davlatchilikni joriy qilish, o'rta asr Sharq mustabidligini Yevropa namunasidagi ma'rifatli monarxiya bilan almashtirish va Buxoro xalqining farovonligini, madaniyatini oshirish asosida davlatni iqtisodiy, siyosiy, harbiy jihatdan mustahkamlash ko'zda tutilgan edi.

Ichki ishlar sohasida qat'iy ma'muriy bo'linishni o'tkazish, hukumat tomonidan maosh to'lanadigan boshqaruvning mahalliy organlarini ta'sis etish va boshqaruvni markazlashtirish talab qilingan edi. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish juda cheklangan holda rejalashtirilgan bo'lib, faqat hokimiyatning quyi bo'g'ini — oqsoqollar xalq tomonidan saylanar edilar. Adliya organlari ilgorigidek shariat qonunlariga suyanishlari lozim bo'lib, ular din peshvolarining qo'lida bo'lishi ko'zda tutilgandi. Bundan tashqari Dehqonchilik vazirligi, Vaqflar, Harbiy ishlar bo'yicha, Moliya, Ichki ishlar, Adliya, Aloqa yo'llari, Kon qazish va qayta ishlash sanoati, Ta'lim, Tashqi ishlar vazirliklarini joriy etish taklif etilgandi. Biroq ularning saylanishi va mas'uliyatlari qayd etilmagan edi.

Yosh buxoroliklarning dasturida ta'lim masalasiga ham e'tibor berilib, uni rivojlantirishda ta'lim vazirligiga nisbatan vaqflar vazirligini ustun qo'ydi.

Mustaqil davlat barqarorligini ta'minlashda armiyaning o'rnini anglab yetgan yosh buxoroliklar mamlakatda umumiy harbiy majburiyat, qo'mondonlar tarkibi uchun harbiy maktablar yaratish, harbiy xizmat uchun maoshlar tayinlash va armiyani rivojlantirishda Yevropacha usullar joriy etish zarur, deb hisobladilar.

Moliya sohasida amirning shaxsiy mablag'larini umumdavlat jamg'armalaridan ajratish, soliqlarni tartibga solish va qat'iy nazorat qilib borish, budjetni har yili e'lon qilib turish ta'kidlangandi.

Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar o'zgarib borishi bilan yosh buxoroliklar amirlikni ag'darib tashlash, umumxalq saylov huquqini joriy etish va demokratik xalq respublikasini tuzishga kirishdi.

Rejalarni amalga oshirilish yo'llari borasida yosh buxoroliklar umumiy bir qarorga kela olmadilar. Yosh buxoroliklarning kommunistik guruhi ham mavjud bo'lib, ular Turkiston Markaziy byurosi yordamida ishlab chiqilgan so'nggi g'oyalari kommunizm maqsadlariga zid deb hisoblardi. Tez orada RKP(b) MK Turkbyurosining majburiy qarori bilan Rossiya Kommunistik partiyasining bir qismi sifatida Buxoro Kompartiyasi tashkil etildi. Yosh buxoroliklarning yangi tartiblardan norozi bo'lgan qismi siyosatdan chetlashdi, kommunistik g'oyalarga xizmat qilgan qismi sovet hokimiyatining qatag'onlik siyosati qurbonlariga aylandi.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi va Buxoro amirligida bo'lgani kabi Xiva xonligida ham taraqqiyparvar demokratik g'oyalar tarqala boshladi. Dastlab ma'rifatparvarlik harakati sifatida ish boshlab, tobora jiddiy ijtimoiy kuchga aylanib borayotgan mahalliy ziyoli vakillardan iborat bo'lgan guruh 1914-yildan boshlab o'zlarini «Yosh xivaliklar» deb atay boshladilar. Yosh xivaliklar partiyasiga Polvonniyoz Hoji Yusupov rahbarlik qildi. Partiyaning e'lon qilgan dasturida Xivada Konstitutsion monarxiya o'rnatish, demokratik tadbirlarni amalga oshirish mo'ljallangan edi.

Xivada ro'y berayotgan siyosiy chiqishlardan qo'rqib qolgan Asfandiyorxon 1917-yil 5-aprelda «Yosh xivaliklar»ning barcha talablarini qabul qilishga majbur bo'ldi va ular taqdim etgan manifestni imzoladi.

Yetti banddan iborat mazkur hujjatda Xiva xoni Said Asfandiyorxon Bahodirxon fuqarolarga «Idorayi mashrutiya» tuzishga va'da berdi. Shuningdek, mamlakatni shariat asosida boshqarish, maslahat bilan saylov qilib, odil odamlarni lavozimlarga tayinlash, xalq norozi bo'lganda zudlik bilan amaldorlar va beklarni vazifalaridan bo'shatish, davlat xizmatidagi shaxslarni maosh bilan ta'minlash, yangi usul maktablarni ochish, mamlakatda temir yo'l, pochta va telegraf qurish ta'kidlangan edi. Yuqori lavozimli amaldorlarning ish faoliyatini nazorat qilish uchun xalq saylovi bilan 30 kishidan iborat muvaqqat qo'mita tashkil etilishi belgilandi.

Mamlakatni boshqarish uchun «Yosh xivaliklar» «Idorayi mashrutiya» va nozirlar kengashini tuzishga kirishdilar. Xonlikning barcha beklklaridan majlisga saylanish uchun vakillar yuborildi. Avvaliga majlis a'zolari soni 30 kishi edi. Keyinchalik Boboovxon Salimovning taklifi bilan turkman, qozoq, qoraqalpoq vakillari kiritilib, 49 vakildan iborat «Idorayi mashrutiya» tashkil etildi.

1917-yil 8-apreldan mamlakatni boshqarish uchun Xivada xon huzurida Majlis (raisi — B. Salimov) va Nozirlar kengashi (raisi — Xusaynbek Matmurodov) tuzildi. Majlis va Nozirlar kengashi tarkibiga «Yosh xivaliklar»dan 21 kishi saylandi. P. Yusupovga Rossiya hukumati va harbiylar bilan muzokaralar olib borish vazifasi topshirildi. Biroq Yangi bo'lgan boshqaruvning bu usulini amalga oshirish uchun hukumat a'zolarida tajriba

yetishmas edi. O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun yosh xivaliklar sovet hukumatining va dalariga ishonib bolsheviklar bilan hamkorlik qildilar.

1918-yil may oyida Toshkentda yashayotgan yosh xivalik muhojirlar Markaziy inqilobiy qo'mita tuzadi. U Rossiya kommunistik partiyasi musulmon tashkilotlari o'lka byurosi tarkibiga kiritiladi.

1919-yil yosh xivaliklar Markaziy inqilobiy qo'mitasi majlisida yangi dastur qabul qilinadi. «Xiva inqilobiy partiyasining yaqin oradagi vazifalari» deb nomlangan mazkur dastur 12 moddadan iborat manifest shaklida bayon qilingan. Ushbu dasturda xon tuzumini tugatish, Xivani Turkistonga birlashtirib, Rossiya tarkibiga qo'shish, xon, shahzodalar, amaldorlarning yerlarini xalq mulki deb e'lon qilish, xonlik, shahar va qishloqlarda bepul maktablar va bepul tibbiy yordam ko'rsatuvchi kasalxonalar ochish, yo'l va ko'priklarni yaxshilash, barcha mehnat majburiyatlarini bekor qilish, xon hukumatini ag'darib, xalq hokimiyatini tashkil etish kabi masalalar bayon qilingan edi.

Majlisda yosh xivaliklarning ayrimlari dasturning Xivani Turkistonga qo'shilishiga qarshi chiqdilar. Biroq bolsheviklar bundan norozi bo'lib, yordam bermasliklarini hisobga olib majlis qatnashchilari dasturni o'zgarishsiz qabul qildilar.

1920-yil 2-fevralda xon hokimiyati ag'darib tashlangandan so'ng oradan ko'p o'tmay yosh xivaliklar manifest e'lon qiladilar, unda mamlakatni demokratik rivojlantirish yo'lidagi keng ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy chora-tadbirlar nazarda tutilgan edi. 1920-yil 4-aprelda Rossiya bolsheviklarining sa'y-harakatlari bilan yosh xivaliklar partiyasi tarqatilib, o'rniga Xorazm kompartiyasi tuzildi. Yosh xivaliklarning qismati Turkiston va Buxoro jadidlari kabi ayanchli tarzda yakun topdi.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish joizki, Turkiston jadidlari, yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar mustaqil, demokratik va milliy hukumat tuzishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar. Buni amalga oshirishda esa, bolsheviklar yordamidan foydalanmoqchi bo'ldilar. Biroq sovet hukumati mintaqa hududidagi davlatlarni tugatib, Rossiya tarkibiga qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va «Sho'royi Islom» tashkiloti o'rtasidagi farq nimada edi?
2. «Sho'royi Islom» tashkiloti faoliyatining kuchayichi natijasida Turkistonda qanday uch hokimiyat shakllandi?
3. Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq Majlisi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Yosh buxoroliklarning davlat tuzilishiga oid qarashlari qanday bo'lgan?
5. Yosh xivaliklar tomonidan tuzilgan «Idorayi mashrutiyi» boshqaruv tizimida qanday o'rin egallagan?
6. Nima sababdan jadidlarning milliy demokratik davlat qurish g'oyalari amalga oshmay qoldi?

---

---

## 10-mavzu. O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINING SHAKLLANISHI

1. Turkiston Sovet Avtonom Respublikasining boshqaruv tizimi.
2. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davlat boshqaruv.
3. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi boshqaruv organlari.

XX asrning 20-yillar boshlariga kelib hozirgi O‘zbekiston hududi tarkibida sovetlar «andozasi» asosida bolshevikcha boshqaruv tizimi shakllana boshladi. Xususan, 1918-yil o‘lkada Turkiston Muxtoriyatiga qarshi Turkiston Sovet Avtonom Respublikasini tuzish masalasi ko‘tarildi. Biroq bolsheviklar taklifiga boshqa so‘l guruhlar, jumladan eserlar va mensheviklar qarshi chiqdilar.

Ayni vaqtda bolsheviklar zo‘r berib o‘z mavqelarini kengaytirish maqsadida mahalliy sovetlarni qayta saylash yuzasidan keng tadbir o‘zkazdi. Buning natijasida sovetlardan eserlar va mensheviklar siqib chiqarildi, ularning o‘rnini bir tomondan, bolshevik deputatlar va so‘l eserlar egalladilar, ikkinchi tomondan, sovetlarga «mehnatkash qatlamlar»dan bo‘lgan mahalliy aholi vakillari jalb qilindi.

Shaharlarda ishchi va soldat deputatlari kengashlarini qayta saylash bilan bir qatorda sovetlar Turkiston qishloqlari va ovullarida ham keng tarqala boshladi. 1918-yil bahorida Samarqand, Qo‘qon, Andijon, Namangan, Skobelev (Farg‘ona) va boshqa bir qator uyezdlarning ko‘pgina hududlarida bo‘lim va qishloq kengashlari tashkil etildi.

Xalq komissarlari kengashi va mahalliy sovetlar tomonidan avvalgi hokimiyat organlari — ijroiya qo‘mitalar, jamoat xavfsizligi qo‘mitalari, shahar dumalari va zemstvo mahkamalari tarqatib yuborildi. Muvaqqat hukumatning uyezd komissarlari lavozimlari bekor qilindi. Joylardagi hokimiyatning butun vakolatlari to‘laligicha mahalliy sovetlar qo‘liga o‘tdi.

Mustabid tuzum tartibotining asosiy zarbasi milliy siyosiy tashkilotlarga, xususan o‘sha paytda tub aholi qo‘llab-quvvatlagan va totalitar tartibot uchun eng katta xavf tug‘dirgan «Sho‘royi Ulamo» va «Sho‘royi Islom»ga qaratildi. Ularga qarshi kurash avval boshdanoq keskin ma‘muriy tus oldi. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti «Sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati uchun» bir qator dekretlar qabul qilib «Sho‘royi Islom»ning Samarqanddagi, Xo‘janddagi va «Sho‘roi Ulamo»ning Toshkentdagi hamda boshqa bir qancha joylardagi tashkilotlarini tarqatib yubordi. Shuningdek, ularning «Izoh», «Izhor-ul haq» kabi matbuot organlari yopib qo‘yildi. «Ulug‘ Turkiston» gazetasi Tashqi ishlar xalq komissarligi ixtiyoriga o‘tkazildi.

Tuzumga nisbatan muxolifatda bo'lgan barcha rus gazetolari, shu jumladan «Turkestanskiy kurer» ham «Ishchi-dehqon hukumatiga oshkora qarshilik ko'rsatish va uni ag'darib tashlash»ga chaqirgani uchun yopib qo'yildi. Ularning o'rnida esa yangi hokimiyatga bajonidil xizmat qiladigan hukumat matbuot organlari vujudga keltirildi.

Bundan tashqari o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida bolsheviklashgan sovetlar va sovet Turkiston hukumati «proletar» mustabid davlatning ajralmas qismini tashkil etuvchi apparatni shakllantirishga bor kuch-g'ayratlarini sarfladilar. Shu maqsadda umumrossiya chizmasiga muvofiq qisqa muddat ichida «inqilob dushmanlari»ni yo'q etishga da'vat qilingan «inqilobiy» sudlar, prokuraturalar, favqulodda komissiya organlari, inqilobiy tribunallar tashkil etildi.

Shunday vaziyatda 1918-yil 20-aprel — 1-may kunlari Toshkentda Turkiston sovetlarining V o'lka syezdi bo'lib o'tdi. Unda Rossiya Federatsiyasi tarkibida **Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasini** (TASSR) tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

30-aprelda syezd «Turkiston Sovet Federativ Respublikasi to'g'risida Nizom»ni tasdiqladi. Unda Turkistonda davlat qurilishi asoslari, uning hududi, oliy qonunchilik va ijroiya organlari, mahalliy organlar tuzilishi, vazifalari va ularning RSFSR bilan o'zaro munosabatlari belgilab berildi. «Nizom»ga muvofiq, Buxoro va Xivadan tashqari, Turkiston o'lkasining geografik chegaralaridagi butun hudud Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi. Shuningdek, Turkiston Respublikasi avtonom ravishda boshqarilib, o'z xatti-harakatlarini Rossiya Sovet Federatsiyasi markaziy hukumati bilan muvofiqlashtiradi», deya qayd etildi. Syezdda «Markaziy hukumat bilan o'zaro munosabatlarni belgilash uchun» 5 kishidan iborat maxsus komissiya tashkil etish va Moskvaga yuborishga qaror qilindi.

Syezdda Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi (TurkMIQ) saylandi, u Sovetlar syezdlari oralig'idagi davrda o'lkada oliy hokimiyat vazifalarini bajaruvchi oliy qonunchilik organi bo'ldi. Turkiston MIQ partiyaviy tegishliligi bo'yicha 36 kishi miqdorda tuzildi, ulardan 18 nafari bolsheviklar va 18 nafari so'l eserlar edi. TurkMIQ raisi etib P. A. Kobozev saylandi.

Yangi saylangan Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetiga (XKS) ijroiya funksiyalar bilan bir qatorda o'lkani boshqarish yuklatildi. XKS raisi etib bolshevik F. I. Kolesov saylandi.

Adliya komissari etib X. Ibragimov (bolshevik), oziq-ovqat komissari — K. Ya. Uspenskiy (so'l eser), sog'liqni saqlash komissari — S. Tursunxo'jayev (so'l eser), millatlar ishlari bo'yicha komissar — T. Ashurxo'jayev (bolshevik), harbiy komissar — K. P. Osipov (bolshevik), tashqi ishlar bo'yicha komissar — P. A. Domogatskiy (so'l eser), sanoat komissari — N. I. Chernevskiy (so'l eser), aloqa yo'llari komissari — E. P. Dubiskiy (bolshevik), pochta va telegraf komissari — A. T. Bocharov (bolshevik), ichki ishlar komissari — I. Obidov (so'l eser), mehnat komissari — P. G. Poltoraskiy (bolshevik), moliya

komissari — Ya. X. Remeslans (bolshevik), XKS ish boshqaruvchisi — Petrenko (soʻl eser), yerni oʻzlashtirish ishlari komissari — V. A. Lavenkov (soʻl eser) saylandi. Shu tariqa, syezdda milliy davlat qurilishi sovet modelining lenincha koʻrsatmasi amaliy mustahkamlandi.

Yuqorida qayd etib oʻtilgan muxtor Turkistonning federal hukumat bilan oʻzaro munosabatlarini aniqlash uchun yuborilgan 5 kishilik komissiya tarkibida faqat bittasi — Sobirjon Yusupov mahalliy aholi vakili edi. Komissiya markaziy hokimiyat vakillari bilan birgalikda harbiy, moliyaviy va temir yoʻl tarmoqlari sohalarini markazlashtirish, davlat boshqaruvining boshqa tarmoqlarini Turkiston Respublikasining oʻz ixtiyoriga berish, «mahalliy aholiga taalluqli» boʻlgan ayrim Markaz delegatlarini oʻzgartirish huquqini berish toʻgʻrisida bitimga erishdi. Biroq, Markaz respublikaning ichki ishlariga muntazam ravishda aralashib keldi.

Keyinchalik, 1918-yil oktabrda sovetlarning VI oʻlka syezdida bolsheviklar tahririda TASSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga asosan boshqaruvning mudofaa, tashqi aloqa, temir yoʻllar, savdo va moliya kabi eng muhim sohalari federal hukumat tassarufiga berildi. Konstitutsiyada koʻrsatib oʻtilishicha, sovetlarga saylash va saylanishga faqat «boshqalar mehnatini ekspluatatsiya qilmaydigan, mehnat bilan topiladigan daromadga yashaydigan shaxslar: sanoat, savdo va qishloq xoʻjaligida hamda boshqa sohalarda band boʻlgan barcha tur va toifadagi ishchilar, xizmatchilar, boylik orttirish maqsadida yollanma mehnatdan foydalanmaydigan dehqonlar, kazaklar va fuqarolarning boshqa ayrim toifalari» haqli edilar. Ayni vaqtda «mehnatsiz daromad» hisobiga yashaydigan shaxslar, din peshvolari, rohiblar, xususiy savdogarlar, tijoratchilar, tadbirkorlar va hokazolar saylash va saylanish huquqidan butunlay mahrum etildi. Shu tariqa, qonun yoʻli bilan Turkiston jamiyatining koʻpgina ijtimoiy qatlamlari va toifalari davlatni boshqarishda ishtirok etishdan chetlashtirilgan edi. Syezd bolsheviklar bilan soʻl eserlar oʻrtasidagi keskin kurash bilan oʻtdi. Bu kurash pirovard natijada 1919-yilning bahorida soʻl eserlar partiyasini tarqatib yuborish bilan yakunlandi. Ana shu vaqtdan boshlab bolsheviklar Turkistonda yagona hukmron partiya boʻlib oldilar, ularning Markazdagi partiyasi ham 1918-yilning yozida shunday partiyaga aylangan edi. Oʻzlarining asosiy aqidalaridan chekinmagan holda, bolsheviklar yerli aholi vakillariga biroz yon berdilar; ular partiyaga qabul qilindilar, mahalliy (va qisman markaziy) boshqaruv shoʻbalariga jalb etildilar. 1919-yil mart oyida musulmon kommunistlari byurosi tuzildi, unga rais etib Turor Risqulov (1894—1938-yy.) tayinlandi.

Ammo oʻlkada koʻp tomonlama inqiroz kuchayib bordi. Noyabr oyi boshida bolsheviklar hokimiyatini saqlab qolish uchun Moskvadan RKP(b) MK, Butunrossiya MIQ va RSFSR XKSning Turkiston ishlari boʻyicha komissiyasi Turkistonga taklif etildi. Uning raisi Sh. Eliava, boshqa aʼzolari koʻzga koʻringan bolsheviklar edi. Turkkomissiyaga cheksiz huquq berilgan boʻlib, Turkistonda TurkMIQ va XKS emas, balki u hukmron edi. Respublikada amalga oshirilishi zarur boʻlgan barcha ijtimoiy-siyosiy,



iqtisodiy va madaniy masalalar faqat Turkkomissiya ruxsati va ko'rsatmasi bilan qilindi.

Xiva xonligi va Buxoro amirligini tugatilishida Turkkomissiya «boshqosh» bo'ldi. Bu davlatlarga nisbatan bosqinchilik rejaları Turkkomissiya a'zolari M. Frunze, V. Kuybishev, Ya. Rudzutak, F. Goloshchenkinlar tomonidan ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Buxoro va Xorazmda sovetlar andozasidagi davlatlarni (BXSR, XXSR) tashkil qilinishi ham Turkkomissiya yo'riqnomasi asosida qilindi.

1920-yil iyulda RKP(b) MQ Turkiston byurosi tashkil qilinishi munosabati bilan Turkkomissiyaning partiyaviy vakolati to'xtatildi. 1923-y. RKP(b) MQning qarori bilan uning faoliyati butunlay tugatildi.

Turkbyuro Markazning Turkistondagi ishonchli «mafkuraviy idorasi» edi. Turkbyuroni tashkil qilinishiga O'rta Osiyo mintaqasi respublikalaridagi istiqbolchilik harakatining kuchayib borishi, TASSR, BXSR, XXSRdagi bir qator rahbar kadrlarning milliy manfaatlarini qat'iylik bilan himoya qilishi, respublikalarda «sovetlashtirish» jarayonining jadallik bilan amalga oshmayotganligi va eng asosiysi, Markazning O'rta Osiyo respublikalaridagi mahalliy rahbar kadrlarga ishonmasligi sabab bo'lgan.

1922-yil mayda Turkbyuro — RKP(b) MKning O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro)ga aylantirildi. Unga Turkbyuro zimmasidagi barcha vazifalar yuklatildi, shu bilan birga uning g'oyaviy-siyosiy ta'sir doirasi kengaydi. Sredazbyuro Markazning O'rta Osiyo respublikalari ustidan nazorat qiluvchi maxsus boshqaruv organi hisoblanib, respublikalar bu tashkilotga so'zsiz bo'ysunishga majbur edilar. 1934-yil 2-oktabrda SSSR XKK va BIKP(b) MQning qarori bilan uning faoliyati tugatildi.

Sovet hokimiyati tub aholi vakillariga bolsheviklar mafkurasini singdirish maqsadida maorif tizimini ham isloh qilishga kirishdi. Buning uchun 1918-yil 23-martida RSFSR Maorif xalq komissarlari farmoyishiga binoan Turkiston Xalq Komissarlari Kengashi O'lka xalq ta'limi kengashini tashkil etish haqida buyruq chiqardi. Kengash Turkiston hududida xalq ta'limi tizimiga rahbarlik qilishi lozim edi. Joylarda ularning viloyat, shahar, uyezd xalq ta'lim kengashlari tashkil etildi.

Xalq Komissarlar Kengashining 1918-yil 14-maydagi buyrug'iga asosan respublikada umumiy maktabni tashkil etishga kirishildi. Turli tipdagi o'quv yurtlari «ular o'qishni xohlaydiganlar uchun yoshi, millati, qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar guvohnomalarsiz» ochiq qilib qo'yildi. Iyun oyida Maorif xalq komissarligi barcha maktablarda bepul o'qitish joriy etilishini e'lon qildi.

Oliy ta'lim masalasida milliy ziyolilar va ilg'or rus olimlari Toshkentda universitet ochish masalasini ko'tarib chiqdilar. 1918-yilning fevralida Toshkentda «Oliy ta'lim do'stlari jamiyati» faoliyat ko'rsata boshladi. Jamiyat oliy tipdagi o'quv yurti tashkil etishga qadar dastlab bepul ta'lim beradigan keng ixtisosdagi o'quv yurti tashkil etishga harakat qildi. Bu xildagi o'quv shakli oliy o'quv yurtlariga tayyorlov kurslari vazifasini bajarishi kerak edi.



**O‘zR KSOH MDA 2-12188. — Xorazm Xalq Sovet Respublikasining birinchi qurultoyining ochilishi. 1920 y. Xiva. Muallif noaniq.**

1918-yil 21-aprelda tantanali ravishda ochilgan Turkiston xalq universiteti shu tariqa vujudga keldi.

Umuman olganda TASSRda bolsheviklar joriy etgan boshqaruv apparati mahalliy aholiga emas, birinchi navbatda ularning manfaatlariga xizmat qilgan edi.

Xiva xoni hokimiyati ag‘darib tashlanganidan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay, ya‘ni 1920-yil 4-aprelda Rossiya bolsheviklarining sa‘y-harakatlari bilan Xiva shahrida kommunistlarni umumiy yig‘ilishi o‘tkazilib, unda Xorazm kompartiyasining tashkilot qo‘mitasi saylandi. 7-aprelda inqilobiy qo‘mitaning va XKP tashkilot qo‘mitasining kengaytirilgan majlisida Xivada xalq-demokratik tuzumi o‘rnatilishi haqidagi masala muhokama qilindi. Barcha ishlar Turkkommissiya ko‘rsatmasi bilan amalga oshirildi.

26-aprel kuni xalq vakillarining Butunxorazm I qurultoyi Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilganini e‘lon qildi, respublika hukumati — nozirlar kengashi tayinlandi. Qurultoy XXSRning Muvaqqat Konstitutsiyasini ham qabul qildi. Hukumat raisi etib Polvonniyoz Hoji Yusupov, uning muovinnari qilib Jumaniyoz Sultonmurodov va turkman Qo‘shmamedxon Sapiyev saylandilar.

Shuningdek, yangi hukumat eski, xon davridagi boshqaruv mahkamlarini tarqatib yuborish, yangi hokimiyat organlari, xususan oliy hokimiyat — Butunxorazm qurultoyi, keyinchalik sovetlar qurultoyi deb ataluvchi boshqaruv organini joriy etdi. Ijroiya hokimiyat vazifasini xalq nozirlar soveti, shuningdek, mahalliy tuzilmalar — mahalliy Sovetlar bajarar edi. Shahar beklari, mahalliy hokimlar lavozimlari bekor qilinib, ularning o‘rniga 3—5 kishidan iborat xalq vakillari sovetlari tashkil etildi.

Sud va jazo organlari tartibiga ham o‘zgartirishlar joriy etildi. Qozikalon lavozimi saqlanib qolingan bo‘lsada, respublikada oliy sud — qozilik



**O‘zR KSOH MDA 0-81574. — XXSR hukumat a‘zolari: P.H. Yusupov, B. Salimov, Nazirov. Xiva, sana va muallif noaniq.**

kollegiyasi joriy qilindi. Joylarda qozilar o‘rniga adliya mahkamalari tashkil etildi.

Rus harbiylari va bolsheviklar tashabbusi bilan tashkil qilingan tribunallar xohlagan ishini o‘z tasarrufiga olib ko‘rar, inqilobiy qonunchilik asosida hukmlar chiqarar va ularni ijro etar edi.

XXSR ning xo‘jalik tizimi 1923-yilda tashkil etilgan Xorazm Iqtisodiy Kengashi tomonidan boshqarilar edi. Kengash Turkiston Iqtisodiy Kengashi (1921-y mart) vorisi hisoblangan O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (1923-y. mart)ga bo‘ysunar edi. Kengash respublika iqtisodini Markaz manfaatlariga moslashtirish, qishloq xo‘jaligida paxta yakkahokimligini yuzaga keltirish va sanoatni bir tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni joriy etishda muhim rol o‘ynardi.

XXSR hukumati madaniy-ma‘rifiy ishlarga ham e‘tibor berishga harakat qildi. 1920-yil bahorida yangi hukumat tarkibida Mulla Bekchon Rahmonov boshchiligida maorif va madaniyat nozirligi tashkil etildi. Nozirlik respublikada yangi tipdagi maktablar tashkil etish, savodsizlikni tugatish, malakali kadrlar tayyorlash masalalari bilan shug‘ullandi.

Bundan tashqari XXSR da madaniy oqartuv muassasalari, xususan shahar va qishloqlarda klublar, kutubxonalar, qizil choyxonalar ham tashkil etildi. Aholi salomatligini yaxshilash maqsadida bir qator kasalxonalar ochildi.

Mazkur muassasalar aholini ijtimoiy-ma‘naviy hayotini yaxshilashga xizmat qilsada, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni tubdan o‘zgartira olmas edi.

1923-yil 21-oktabrda Umumxorazm qurultoyi Xorazm Xalq Sovet Respublikasini Sotsialistik Respublikaga aylantirish va yangi Konstitutsiyani qabul qilishi to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Yangi Konstitutsiyaga muvofiq joylarda hokimiyat Sovetlarga topshirilib, unga faqatgina «mehnatkash» xalq vakillari saylanishi mum-

kinligi qayd etildi. Qishloqlardagi oqsoqollar ham qishloq Sovetlari bilan almashtirildi.

1924-yil aprel oyida Xorazm Respublikasi tarkibida Turkman va Qozoq-Qoraqalpoq avtonom viloyatlarini tashkil etish masalasi hal qilindi. Viloyatlarda hokimiyat organi sifatida inqilob komitetlari (revkom) tayinlandi.

Buxoro amiri bolsheviklar tomonidan taxtdan ag‘darilgandan so‘ng, amirlikdagi hokimiyat muvaqqat Butunbuxoro inqilobiy qo‘mitasi ixtiyoriga o‘tdi. Muvaqqat inqilobiy qo‘mita Turkkommissiya rahbarligida ilgari-dan tayyorlab qo‘yilgan Manifestni e‘lon qildi. Unda Buxoro davlati «Mustaqil Buxoro Sovet Respublikasi» deb ko‘rsatilgan edi. 1920-yil 11-sentabrda inqilobiy yosh buxoroliklar partiyasi tarqatib yuborilib, Buxoro Kommunistik partiyasi tashkil etildi.

1920-yil 14-sentabrda BKP MQ Muvaqqat Umumbuxoro inqilobiy qo‘mitasi va Xalq Nozirlari Kengashining birlashgan majlisida Abdulqodir Muhitdinov boshchiligidagi **Umumbuxoro inqilobiy qo‘mitasi** — oliy qonun chiqaruvchi organ va Fayzulla Xo‘jayev raisligida respublika hukumati — Xalq Nozirlar Kengashi tashkil qilindi.



**O‘zR KSOH MDA 2-1329 BXSX xalq komissarlari.  
Buxoro, sana va muallif noaniq.**

6-oktabrda I Umumbuxoro qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi deb e‘lon qilindi.

1921-yil 18—23-sentabrda bo‘lgan Butun Buxoro xalq vakillarining II qurultoyida demokratik ruhda BXSX Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga ko‘ra respublikaning oliy organi — Butun Buxoro xalq vakillari qurultoyi bo‘lib, u 2000 saylovchiga bir vakil saylanadigan 350 a‘zodan iborat edi. Qurultoy har yili bir marta chaqirilar, unda Respublika Konstitutsiyasini qabul qilish va o‘zgartirishlar kiritish, hukumatning hisoboti va davlat budjetini tasdiqlash kabi muhim masalalar ko‘rilar edi. Konstitutsiyaga

ko'ra, qurultoylar o'rtasida qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi oliy organ — Butun Buxoro MIQ hisoblangan. **Xalq Nozirlar Soveti** davlat hokimiyatini ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organ sifatida o'z vazifasini saqlab qoldi.

Mamlakatda tobora avj olib borayotgan milliy ozodlik harakatlarini bostirish uchun «xalq militsiyasi» tuzildi.

Respublika iqtisodiy hayotini boshqarish maqsadida XXSR dagi kabi Buxoro Iqtisodiy kengashi tashkil etildi.

1923-yil yozi — kuzida tashqi kuchlar tazyiqi bilan hukumat tarkibi va mavqeyida jiddiy o'zgarishlar qilindi. Respublikaning ma'muriy bo'linishi qayta ko'rib chiqilib, 5 ta okrug, 48 ta tuman, 195 kent tuzildi. Qishloqlarda oqsoqolliklar o'rniga sovetlar tashkil qilindi.

BXSR hukumati maorif va madaniyat sohalarini ham rivojlantirishga e'tibor qaratdi. Bu borada Buxoro hukumati tarkibida tashkil qilingan Maorif nozirliqi, uning birinchi noziri Abdurauf Fitrat faollik ko'rsatdi. Inqilobiy qo'mitaning 1920-yil 20-oktabrdagi qaroriga ko'ra respublikadagi barcha eski maktablar va madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy bilimlarni kengroq o'qitishni joriy qilish ko'zda tutildi. Shu bilan bir qatorda yangi tipdagi maktablar tarmog'i ham shakllantirildi. Xorazm Respublikasi kabi madaniy-oqartuv muassasalari tashkil etildi.

Shunday qilib, mustabid sovet hokimiyati Buxoroda ham o'ziga xos boshqaruv organlari tizimini rivojlantirdi. 1924-yil kuzidan boshlab Buxoroda sosialistik taraqqiyot tomon yo'nalish tan olindi.

1924-yil 18—20-sentabrda bo'lib o'tgan Butun Buxoro xalq vakillarining V qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasiga (BSSR) aylantirildi.

Davlat boshqaruv apparatini qisqartirish maqsadida 1924-yil sentabrda Xorazm va Buxoro respublikalarini ma'muriy-hududiy bo'linishi o'tkazildi. Buning natijasida bo'lis va uyezdlar hududlari kengaytirilib, viloyatlar okruglarga birlashtirildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan saylovlar O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralashga tayyorgarlik olib borilayotgan davrga to'g'ri kelib qoldi va ulardan sovet hokimiyati o'z manfaati yo'lida foydalandi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. TASSRda inqilobiy tribunallar qanday vazifani bajarar edi?
2. Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi qanday davlat organi edi?
3. Turkkommissiya qanday vakolatlarga ega bo'lgan?
4. Turkbyuro faoliyati to'g'risida nima bilasiz?
5. XXSR boshqaruv organlari qanday tuzilgan edi?
6. BXSR boshqaruv tizimi to'g'risida nimalarni bilasiz?

## 11-mavzu. O‘ZBEKISTON SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKASI DAVLAT MUASSASALARI

1. 1924—1936-yy. O‘zbekiston SSR boshqaruv organlari.
2. 1937—1960-yy. davlat muassasalar tizimi.
3. 1970—1980-yy. davlat hokimiyati organlari.

1924-yil 31-oktabrda O‘zbekiston SSR Inqilobiy Qomitasi (revkom) tuzildi, u O‘zbekiston Respublikasi tuzishni boshqarib bordi.

Buxoroda maxsus qurilgan «Xalq uyi»da 1925-yil 13-fevralda Sovetlarning umumo‘zbek qurultoyi ochildi. Unda «O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risida» Deklaratsiya qabul qilindi. O‘zbekiston hukumatining boshlig‘i qilib Fayzulla Xo‘jayev saylandi. Syezd respublika hokimiyatining oliy organlarini rasmiylashtirdi. Respublika sovetlari Markaziy Ijroiya Qomitasi (MIQ) raisi etib Farg‘ona vodiysidan



O‘zR KSOH MDA 6-144. O‘zSSR birinchi ishchi-dehqon hukumati a‘zolari. —  
Toshkent, 1925-y. Muallif Nappelbaum.

chiqqan dehqon, «Qo‘shchi» ittifoqining arbobi Yo‘ldosh Oxunboboyev saylandi. Shu yilning fevral oyida O‘zbekiston kommunistik partiyasi rasmiylashtirildi. 1930-yilgacha O‘zbekiston SSR tarkibiga Tojikiston ASSR kiritildi.

1927-yil 30-martda Ikkinchi Umumo‘zbek Sovetlar Syezdi va O‘zSSR MIQ Prezidiumining qarorlariga ko‘ra O‘zSSR ning konstitutsiyasi qabul qilindi. O‘zSSRning asosiy qonuni deb e‘lon qilingan mazkur huquqiy hujjat Sovet mafkurasiga mos ravishda davlat boshqaruv organlari tizimini mustahkamladi. Unga muvofiq O‘zSSRda hokimiyat **markaziy** va **mahalliy** organlarga bo‘lingan edi.

O‘zSSR hududida oliy hokimiyat organi vazifasini **Umumo‘zbek Sovetlar Syezdi** amalga oshirar edi. Sovetlar Syezdi okrug sovetlari syezdlaridan 10 000 aholiga bitta deputat va shahar sovetlaridan 200 saylovchiga bitta deputat hisobidan tarkib topgan edi. Umumo‘zbek Sovetlar Syezdi O‘zSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (MIQ) tomonidan ikki yilda bir marta chaqirilar edi. Umumo‘zbek Sovetlar favqulodda Syezdlari O‘zSSR MIQ tomonidan syezdning o‘z xohishiga binoan yoki mahalliy sovetlarni 1/3 qismi va Tojikiston Avtonom Respublikasi Sovetlar Syezdi talabiga binoan chaqirilar edi. Shuningdek, Umumo‘zbek Sovetlar Syezdi respublika MIQ nomzodlarini saylar va ularning sonini ham belgilab berar edi.

O‘zSSR Markaziy Ijroiya Qomitasi (MIQ) Umumo‘zbek Sovetlar Syezdlari oraliq‘idagi vaqtda respublika oliy hokimiyat organi vazifasini bajarar edi. Ushbu vaqtda O‘zSSR MIQ tassarufiga respublikaning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va nazorat organlari o‘tar edi. Faqatgina respublika Konstitutsiyasini qabul qilish yoki o‘zgartirishlar kiritish masalalarini Umumo‘zbek Sovetlar Syezdi hal etardi.


Qonun chiqaruvchi organ sifatida O‘zSSR MIQ kodekslar, dekret va qarorlar qabul qilish bilan birga, O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti ishlab chiqqan qonun loyihalarini ham tasdiqlar edi.

Shuningdek, O‘zSSR MIQ Xalq Komissarlari Soveti, MIQ Prezidiumi va Tojikiston Avtonom Sovet Respublikasi Syezdi qabul qilgan qaror va farmoyishlarni bekor qilish huquqiga ega edi.

O‘zSSR MIQ o‘z faoliyati va mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy ahvol va boshqa masalalar bo‘yicha Umumo‘zbek Sovetlar Syezdi oldida hisobot berar edi.

O‘zSSR MIQ Prezidiumi MIQ sessiyalari oraliq‘ida uning boshqaruv vakolatlariga ega bo‘lardi, ya‘ni respublikadagi qonunlar ijrosini nazorat etish, yangi qarorlar yoki farmonlar qabul qilish, ularni bekor qilish uning zimmasiga yuklatilar edi.

O‘zSSR MIQ ijroiya hokimiyat organi sifatida Xalq Komissarlar Soveti (XKS) va ma‘lum bir sohani boshqarish uchun xalq komissariatlarini tashkil etdi. O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti quyidagi tarkibga ega edi:



Har bir Xalq komissari tarkibida Kollegiya tashkil etilib, uning tarkibi O'zSSR Xalq Komissarlar Soveti tomonidan belgilanib va tasdiqlanib berilgan. Xalq komissarlari o'zlari boshqarayotgan sohada zaruriy qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan. Agar kollegiya ushbu qarorga qarshi chiqsa, unda masala O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan hal qilingan.

Xalq komissariatlari **birlashgan** va **alohida** qismlarga bo'lingan. Birlashgan komissariatlar O'zSSR MIQ va XKS ga bo'sinish bilan birga SSRI xalq komissariatlari buyruqlariga ham rioya qilgan.

Alohida komissariatlar faqatgina O'zSSR MIQ va XKS ga bo'ysingan. Ularning tarkibiga adliya, maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, dehqonchilik, suv xo'jaligi boshqarmasi xalq komissariatlari kirgan.

O'zbekiston SSR tarkibiga kiritilgan Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining oliy hokimiyat organi Respublika Sovetlar Syezdi, ularning oralig'ida esa Sovetlarning Markaziy Ijroiya Qo'mitasi hisoblangan. Tojikiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi ham o'zining ijro etuvchi organlari — Xalq Komissarlari Sovetini tashkil etgan edi. O'zSSR qonunlari Tojikiston ASSR hududida ham majburiy hisoblangan.

1931-yil Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, alohida sotsialistik respublika sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Joylarda mahalliy hokimiyat okrug yoki rayon sovetlar syezdi tomondan amalga oshirilgan, ularning oralig'ida esa uning vazifalarini ijroiya qo'mitalar bajargan.

Okrug sovetlar syezdlari rayon syezdlaridan 3 000 nafar aholiga bitta deputat, shahar syezdlaridan 600 saylovchiga bitta deputat hisobidan tarkib topgan. Bunda bitta viloyatning deputatlari soni 350 tadan oshmasligi kerak edi. Tuman sovetlar syezdlari deputatlari soni 200 tadan oshmasligi hisobga



olingan holda, qishloq sovetlaridan 500 aholidan bitta, tuman shaharlaridan 100 saylovchidan bitta hisobida saylangan.

Ushbu Sovetlar syezdi o'zining ijroiya organi ijroiya qo'mitalarni saylab olgan. **Ijroiya qo'mitalar** O'zSSR MIQ va XKS ga bo'ysingan. Ma'lum bir hudud ishini boshqarish uchun mahalliy ijroiya qo'mitalar o'z **prezidiumlarini** saylagan. Ijroiya qo'mitalar prezidiumi saylovchilar oldida javobgar edi. Ijroiya qo'mita esa sovetlar syezdiga hisobot berardi.

Shuningdek, shahar va qishloqlarda deputatlar sovetlari (kengashi) tuzilgan edi. Shaharlarda ularning umumiy soni 350, qishloqlarda esa 50 dan oshmasligi belgilab qo'yilgan edi. Deputatlar bir yil muddatga saylanar edi. Deputatlar soveti o'z tarkibi hisobidan prezidium yoki ijroiya qo'mita tashkil etar va ular o'z navbatida saylovchilari oldida javobgar hisoblanardi. O'z vakolati doirasida deputatlar kengashi joylashgan hududning oliy hokimiyat organi hisoblangan.

Umuman olganda okrug va tuman ijroiya qo'mitalari, ularning prezidiumlari, shuningdek deputatlar kengashlari mahalliy ijroiya hokimiyat vazifasini bajargan.

1937-yil 17-fevral O'zSSR ning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan boshqaruv tizimiga ham bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, O'zSSR da oliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruv organi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sud va prokuratura tizimi joriy etildi. O'zSSR Oliy davlat hokimiyati organi deb Respublika Oliy Kengashi rasmiylashtirildi. Oliy Kengashga deputatlar 15 000 aholi soniga bitta deputat 4 yil muddatga saylanar edi. U Respublika hududida yagona qonun chiqaruvchi davlat organi hisoblanardi.

Oliy Kengash a'zolaridan uning raisi va 2 ta o'rinbosari saylanar edi. Oliy Kengash tarkibida saylangan mandat komissiyasi deputatlarning ish faoliyatini nazorat qilar, uning taqdimnomasiga asosan Oliy Kengash



**O'zR KSOH MDA 0-128357. O'zSSR Oliy Kengash Prezidiumi yig'ilishi. — Toshkent, 1982-y. Mualliflar Sharapov, Gorokrik.**

deputatlar ishlariga baho berar edi. Zaruriy hollarda Oliy Kengash tergov va reviziya (taftish) komissiyalarini ham tayinlash huquqiga ega bo'lgan. Joylardagi barcha amaldor shaxslar komissiya talablarini bajarishlari shart deb belgilangan edi.

O'zSSR Oliy Kengashi o'z Prezidiumini saylardi.

Oliy Kengash Prezidiumi tarkibiga rais, 3 ta o'rinbosar, Prezidium kotibi va 13 ta a'zosi saylanar edi. O'z o'rnida Prezidium O'zSSR Oliy Kengashi sessiyalarini chaqirar, qonunlarga sharh berar, referendumlar o'tkazar, Xalq Komissarlari Soveti qarorlari va farmoyishlarini bekor qilard edi.

Oliy Kengash sessiyalari oralig'ida XKS raislarini tavsiyasi asosida ayrim xalq komissarlarini lavozimdan bo'shatar va lavozimga tayinlar edi. Shuningdek, fuqarolarni O'zSSR faxriy unvonlariga taqdim etish, sudlanganlarga avf (amnitstiya) e'lon qilish huquqlariga ega bo'lgan.

Oliy Kengash vakolati tugagandan so'ng, yangi tarkib saylanguncha Oliy Kengash Prezidiumi o'z vakolatlarini saqlab qolgan.

O'zSSR davlat boshqaruv organi vazifasini Xalq Komissarlari Soveti bajargan. U respublikada ijro etuvchi organ vakolatini saqlab qolgan. Tarkib jihatidan XKS **ittifoq-respublika** va respublika ahamiyatiga molik ravishda bo'lingan.

Ittifoq-respublika XKS ga:

- oziq-ovqat sanoati;
- yengil sanoat;
- o'rmon sanoati;
- dehqonchilik;
- don va chorvachilik sovxozlari;
- moliya;
- ichki savdo;
- adliya;
- sog'liqni saqlash xalq komissarliklari kiritilgan edi.

Respublika XKS ga:


- sanoat;
- mahalliy sanoat;
- kommunal xo'jalik;
- ijtimoiy ta'minot kiritilgan.

Oliy Kengash deputati O'zSSR hokimiyatiga yoki xalq komissarligiga murojaat etgan bo'lsa, ular 3 kun ichida yozma yoki og'zaki javob qaytarishlari shart bo'lgan.


1937-yil 23-martda O'zSSR tarkibiga kiritilgan Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi ham oliy va davlat boshqaruv organlari, ya'ni Qoraqalpog'iston Oliy Kengashi va XKS ga ega bo'lgan. O'z navbatida Qoraqalpog'iston XKS O'zSSR XKSga ham bo'ysingan.

Mahalliy boshqaruvda deputatlar Kengashi saqlanib qoldi. Ular tarkibida ijroiya organlar tashkil etilgan bo'lib, quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan:


2-chizma



3-chizma



4-chizma



XX asrning 30-yillar boshiga kelib O‘zbekiston hududida sovet sud idoralari tizimi ham yaratilgan edi. O‘zSSR sud tizimi Oliy sud, Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy sudi, okrug sudlari, xalq sudlari va SSRI Oliy Soveti qaroriga asosan tuziluvchi SSRI maxsus sudlaridan iborat bo‘lgan.

O‘zSSR Oliy sudi respublika va Qoraqalpog‘iston hududidagi barcha sudlar faoliyati ustidan nazorat qilar edi. U O‘zSSR Oliy Soveti tomonidan **5 yil** muddatga saylangan. Qoraqalpog‘iston ASSR, okrug sudlari ham joylardagi deputatlar soveti tomonidan 5 yil muddatga saylanar edi. Faqat xalq sudlari tuman fuqarolari tomonidan yashirin ovoz berish orqali 3 yil muddatga saylanardi.

Sudlar boshqa hokimiyat organlaridan mustaqil holda faoliyat olib borgan.

O‘zSSR hududida XKS va unga qarashli bo‘limlar tomonidan joylarda qonunlarni to‘g‘ri bajarilishini ta‘minlash va nazorat qilish vazifasini SSRI Prokurori yoki O‘zSSR Prokurori amalga oshirar edi.

O‘zSSR va Qoraqalpog‘iston Prokurorlari Ittifoq Prokurori tomonidan 5 yil muddatga tayinlanar edi. O‘z navbatida O‘zSSR Prokurori okrug, rayon, shahar prokurorlarini ham 5 yil muddatga lavozimga tayinlar edi. O‘z faoliyati davomida respublika Prokurori SSRI Prokuroridan boshqa hokimiyat organlariga bo‘ysunmas edi.

1938-yil Respublika Oliy Kengashi qarori bilan Xalq Komissarlar Soveti Ichki ishlar Xalq Komissariyatiga, 1946-yilda esa Ministrlar Sovetiga, xalq komissariatlari — ministrliklarga aylantirildi. Bu esa boshqaruv tizimida o‘ziga xos o‘zgartirishlar kiritilishiga sabab bo‘ldi.

Xususan, O‘zSSR Ministrlar Soveti davlat hokimiyatining ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi deb e‘tirof etildi. Uning tarkibi O‘zSSR Oliy Soveti tomonidan tayinlangan rais, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, O‘zSSR ministrleri, davlat komitetlarining raislaridan iborat bo‘lgan.

Qoraqalpog‘iston ASSR Ministrlar Sovetining raisi o‘z lavozimi bo‘yicha O‘zSSR Ministrlar Soveti tarkibiga kiritildi.

O‘zSSR Ministrlar Soveti o‘z vakolatlari doirasida Xalq xo‘jaligiga va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qilar, respublika iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi davlat rejalari, davlat budjetini ishlab chiqadi va Oliy Sovetga taqdim etardi.

Shuningdek, davlat manfaatlarini himoya qilish, sotsialistik mulkni va jamoat tartibini saqlash, fuqarolarni huquq va erkinliklarini ta‘minlash va himoya qilish tadbirlarini amalga oshirardi.

Respublikaning xalqaro diplomatik aloqalarini SSRI belgilab qo‘ygan umumiy tartibga asoslanib rivojlantirardi. Zaruriy hollarda xo‘jalik, sotsial-madaniy qurilish ishlari yuzasidan Ministrlar Soveti huzurida qo‘mitalar, bosh boshqarmalar va boshqa idoralar tuzish huquqiga ega bo‘lgan.

Xalq xo‘jaligiga rahbarlikni ta‘minlash bilan bog‘liq masalalarni va davlat boshqaruvining boshqa masalalarini hal etish uchun Ministrlar Sovetining Raisi, Raisning Birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlaridan, shuningdek hukumatning boshqa a‘zolaridan iborat tarkibda O‘zSSR Ministrlar Soveti Prezidiumi ish olib borardi.

O‘zSSR Ministrlar Soveti ixtiyoriga berilgan va davlatni boshqarishga oid bo‘lgan barcha masalalarni hal etishga haqli bo‘lgan, chunki bu masalalar qabul qilingan konstitutsiyaga muvofiq O‘zSSR Oliy Sovetining Prezidiumi vakolatiga kirmagan.

5-chizma


### O‘zSSR ministrlar soveti tarkibi

#### a) ITTIFOQ – RESPUBLIKA ahamiyatiga molik



6-chizma

#### b) RESPUBLIKA ahamiyatiga molik



Joylardagi mehnatkash deputatlar sovetlari mahalliy davlat hokimiyati organi hisoblangan. Mahalliy hokimiyat organlari quyidagi ijroiya qo'mitalarni tashkil qilgan.

**Respublika Ministrliklari bo'limlari:**

- yer-suv;
- moliya;
- savdo;
- sog'liqni saqlash;
- xalq ta'limi;
- mahalliy sanoat;
- kommunal xo'jalik;
- ijtimoiy ta'minot;
- yo'l qurilishi;
- avtomobil transporti;
- umumiy;
- san'at ishlari;
- reja komissiyasi;
- ijroiya qo'mita qoshidagi kadrkar masalasi bo'yicha sektor.

**Ittifoq-respublika ministrliklari bo'limi:**

- yengil sanoat;
- to'qimachilik;
- go'sht va sut sanoati;
- o'rmon sanoati.

1977-yilda O'zSSRning yangi konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan respublika sud tizimiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Unga muvofiq O'zSSR Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi Oliy sudi, tuman, shahar xalq sudlari va qurolli kuchlardagi harbiy tribunallar tashkil etildi. Respublikadagi hamma sudlar sudyalari va xalq maslahatchilarini saylash belgilandi.

Tuman, shahar xalq sudlarining sudyalari fuqarolar tomonidan umumiy, teng va to'ppa-to'g'ri saylash huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylangan. Tuman, shahar xalq sudlarining xalq maslahatchilari fuqarolar ishlaydigan yoki istiqomat qiladigan joylarda ochiq ovoz berish yo'li bilan 2,5 yil muddatga saylangan.

Harbiy tribunallarning sudyalari O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan besh yil muddatga, ularning xalq maslahatchilari esa xarbiy xizmatchilar yig'ilishida ikki yarim yil muddatga saylangan. Sudya va xalq maslahatchilari ularni saylagan organlar oldida javobgar bo'lgan.

Yuqorida qayd etilgan boshqaruv muassasalari tizimi XX asrning 90-yiligacha o'zgarishsiz saqlanib qoldi. 1990-yil noyabr oyida respublika boshqaruv tizimida Prezidentlik institutini joriy etilishi, O'zbekistonni siyosiy mustaqillikka erishishi 70 yil davomida hukmron bo'lgan va sovet

mafkrasiga xizmat qilgan davlat muassasalari tizimini yangicha demokratiya talablariga javob beruvchi boshqaruv hokimiyat organlari bilan almashtirish imkonini yaratdi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, O'zbekiston SSR tashkil qilingandan so'ng respublika davlat boshqaruv organlari ittifoq organlari tarkibida va ular andozasida shakllantirildi. Bu ittifoqdosh respublikalarni Markazdan turib boshqarishning eng oson va oddiy, shu bilan birga takomillashgan mustahkam shakli edi.

Davlat oliy organi bo'lgan O'zSSR Oliy Soveti o'z faoliyatini barcha bosqichlarida kommunistik partiya yo'riqnomasi asosida boshqarilib kelindi. Garchand huquqiy-me'yoriy hujjatlarda Oliy Sovet qonun chiqaruvchi va nazorat organi deb e'tirof etilsada, barcha qonun va qarorlar kompartiya organlari tomonidan tayyorlanar yoki ularning ko'rsatmasi bilan yozilar edi. Oliy Sovet sessiyalarida esa ular nomigagina tasdiqlanar edi.

Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari va ularning apparati tashkil etildi. Ma'muriy-hududiy jihatdan oldiniga respublikaning viloyat bo'linishidan okrug bo'linishiga o'tildi, keyin yana viloyat bo'linishiga qaytildi, tuman va qishloq kengashlarining keng tarmog'i tuzildi. Ushbu islohotlar sovetlar hokimiyatini mustahkamlash va ularni aholiga yaqinlashtirish bahonasida o'tkazildi. Aslida esa kommunistik rejim tomonidan partiya hukmronligini mustahkamlash maqsadida amalga oshirildi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. 1920-yillar oxirida O'zSSRda hokimiyat qanday qismlarga bo'lingan?
2. Umumo'zbek Sovetlar Syezdi qanday davlat organi hisoblangan?
3. O'zSSR tarkibidagi avtonom respublikalar boshqaruv organlari qanday tuzilgan edi?
4. O'zSSR Xalq komissarlari Soveti tarkibiy jihatdan tuzilishini tushuntirib bering.
5. O'zSSR Oliy Kengashi haqida gapirib bering.
6. O'zSSR sud va nazorat tizimi qanday tashkil etilgan edi?

---

---

## **12-mavzu. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA DAVLAT MUASSASALARI TARIXI**

1. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi.
2. Mustaqil O‘zbekistonda yangi hokimiyat tizimini shakllanishi va ilk davlat muassasalarining xususiyatlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlik instituti.

1991-yil 31-avgustda XII chaqiriq Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Qonuni qabul qilindi. 1-sentabr — Mustaqillik kuni deb e‘lon qilindi.

Bundan buyon O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat mustaqilligiga ega, o‘z milliy davlat tuzumini mustaqil belgilay oladi.

O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni — O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — Oliy Kengashning o‘n ikkinchi chaqiriq o‘n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi.

Yangi Konstitutsiya mustaqil davlat shakllanish jarayonining tarkibiy qismidir. U O‘zbekiston davlat mustaqilligini va suverenitetini, ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlab berdi.

Konstitutsiya to‘la demokratik tamoyilarga ko‘ra, xalq hokimiyatchiligi asoslarini mustahkamlab beradi. Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasining xalqi — hokimiyatning yagona manbai deb belgilangan.

Shuningdek, unda O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyat tarmoqlari orasida vakolatlarni taqsimlash masalalari ham ko‘rib chiqilgan.


O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linadi.

— Qonun chiqaruvchi hokimiyat tarmog‘ini Oliy Majlis, Qoraqalpog‘iston Respublikasida — Jo‘qorg‘i Kenges;

— Ijro etuvchi hokimiyat tarmog‘ini O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, O‘zbekiston Respublikasi davlat qo‘mitalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, vazirliklar va davlat qo‘mitalari, shuningdek, viloyat, tuman va shaharlar hokimliklari;

— Sud hokimiyat tarmog‘ini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, Oliy xo‘jalik sudi, viloyat, tuman, shahar sudlari, harbiy sudlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasining sud organlari tashkil etadi.





Mustaqil O‘zbekistonda yangi hokimiyat tizimi qurish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirmoqda:

1. Eski ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi, tegishli hokimiyat va boshqaruv organlarni tugatish.

2. Davlatchilikning yangi siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish.

Zamonaviy davlat muassasalar tizimi milliy-tarixiy an‘analarni, chet el tajribasini o‘rganish va tahlil qilish, zamonaviy siyosiy, iqtisodiy talablarni hisobga olgan holda shakllantirilmogda.

Ijroiya hokimiyatning barpo etilgan yangi tizimi ilgarigi davlat muassasalaridan tubdan farq qiladi. Yangi ijroiya davlat muassasalari tizimi rejalashtaqsimlash vazifalari o‘rniga birlashtirish, muvofiqlashtirish va tartibga solish funksiyalariga ega bo‘ldi.

Ko‘p sonli vazirliklar o‘rniga ixcham, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi xo‘jalik birlashmalari, assosiatsiyalar, konsern, korporatsiya, xolding kompaniyalar tuzilmogda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida vazirlar kengashi funksiyalari Prezident apparati funksiyalari bilan birlashib ketganligi sababli Prezident huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi.

1991-yil Milliy tashqi iqtisodiy faoliyat banki tashkil qilindi, ketidan Tashqi aloqalar vazirligi va Davlat bojxona qo‘mitasi tashkil qilindi. Ushbu muassasalar yordamida O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Turizm sohasida yagona siyosatni shakllantirish uchun «O‘zbekturizm» milliy kompaniyasiga asos solindi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanishi tufayli MDH mamlakatlari bilan muvaffaqiyatli hamkorlikni olib borish maqsadida yangicha boshqaruv tizimini yaratish zaruriyati tug‘uldi.

1992-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi shakllandi.

Tugatilgan Davlat rejalashtirish bo‘limi o‘rniga yangi davlat muassasasi — Iqtisodiy komissiya tashkil qilindi. Ushbu komissiya asosida 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida Rivojlanish bo‘yicha qo‘mita barpo etildi. 1992-yil avgust oyida statistika qo‘mitasi bilan birlashib, Makroiqtisodiyot va statistika qo‘mitasi tashkil qilindi.

1997-yilda ushbu muassasa Makroiqtisodiyot vazirligiga aylantirildi.

Davlat hokimiyatining yuqori organlari — Oliy Majlis hamda Prezident hisoblanadi.

Oliy Majlis — parlament — oliy vakillik va qonun chiqaruvchi davlat organi. Parlament O‘zbekiston xalqlarining manfaatlarini ifodalaydi.

Oliy Majlis vakolatlari: O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini qabul qilish, ularga qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritish, mamlakat tashqi va ichki siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash; boj, valuta va kredit ishlarini, ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalarini tartibga solish; davlat mukofotlari va unvonlarini ta‘sis etish; tuman, shahar, viloyatlarni tashkil etish, ularni tugatish, nomini o‘zgartirish va chegaralarni o‘zgartirishga oid masalalarni hal qilishdan iboratdir.

Mustaqillikning dastlabki yillarida qonun chiqaruvchi oliy organi Oliy Kengash bo‘lgan edi. U 1994-yilgacha faoliyat ko‘rsatgan. Oliy Kengashning ushbu yillardagi ahamiyati katta: u O‘zbekistonning birinchi Prezidentini saylash, Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Qonunni qabul qilishni amalga oshirgan.

1994-yil 25-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov o‘tkazildi. Saylov ko‘p partiyaviy va alternativ asosida o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyat shakli bo‘yicha ilgariidagi Oliy Kengashdan tubdan farq qiladi:

- 1) Oliy Majlis deputatlarini saylash ko‘p partiyaviy va alternativdir;
- 2) Oliy Majlis doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatadigan hokimiyat tarmog‘i. Oliy Majlis — ba‘zi deputatlarning doimiy ish joyi;
- 3) Oliy Majlis vazifalarni bajarish jarayonida deputatlar saylovchilar bilan yaqin aloqalarni saqlab qolmoqda;
- 4) Oliy Majlis huzurida jahonning yetakchi davlatlar parlamentlari bilan hamkorlikda bo‘lgan parlamentlararo aloqalar bo‘yicha maxsus qo‘mitasi barpo etilgan.

Dastlabki Oliy Majlis bir palatali edi. Bir palatali parlament mustaqillikning birinchi yillarida, maxsus tarixiy sharoitda tashkil etilgan edi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimi hali rivojlanmagan; mutaxassis siyosatchilar yetishmagani sababli o‘z davri uchun bir palatali parlament zarur edi. Ushbu Oliy Majlis o‘z vazifasini butunlay bajargan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining parlamenti — ikki palatalidir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti — davlat boshlig‘i va ijro etuvchi hokimiyatining rahbari.

Ushbu lavozim O‘zbekiston tarixida birinchi marta joriy etilgan.

Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida alohida, markaziy o‘rin tutadi. U hokimiyatning barcha tomonlarini birlashtiradi.

Prezident fuqarolarning huquq va erkinliklari, konstitutsiya va qonunlarga rioya etishning kafilidir. U mamlakat ichkarisida va xalqaro

munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi; O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Bir vaqtning o‘zida Prezident Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi. U ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzadi va ularga rahbarlik qiladi. Prezident Bosh vazir va uning o‘rinbosarlarini, Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini, Bosh prokuror va uning o‘rinbosarlarini, viloyat, tuman, shahar va xo‘jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlardan ozod etadi, viloyat hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi.

Prezident davlat rahbari sifatida O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi, O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilingan taqdirda favqulodda holat joriy etadi; O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini orden, medallar va yorlig‘lar bilan mukofotlaydi. Prezident amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qiladi.

Prezident O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondonidir. U xavfsizlik qo‘mitasini tashkil etadi va unga boshchilik qiladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi ahamiyatini sanab bering.
2. O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati qanday tarmoqlardan iborat?
3. Mustaqil O‘zbekistonda davlat muassasalar tizimi qanday yo‘nalishlar va asoslar bo‘yicha shakllanmoqda?
4. Mustaqil O‘zbekistonda ijroiya davlat muassasalarning tashkil topishini tavsiflab bering.
5. Mustaqil O‘zbekistonning Oliy Majlisi faoliyati tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. Oliy Majlisni Oliy Kengash bilan qiyosiy holda aytib bering.
7. Mustaqil O‘zbekistonda ilk davlat muassasalar xususiyatlarini tavsiflab bering.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday vakolatlarga ega?

---

---

### 13-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI

1. Ikki palatali Oliy Majlisning faoliyat tartibi.
2. Ikki palatali Oliy Majlisning ustunligi.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi — ikki palatali qonun chiqaruvchi organ.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi (quyi palata) va senat (yuqori palata)dan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **Qonunchilik palatasi** hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘p partiyaviylik asosida saylanadigan 120 deputatdan iborat. Qonunchilik palatasi ishi palata barcha deputatlarining kasbiy, doimiy faoliyatiga asoslanadi.

**Senat** hududiy vakillik palatasidir. Senat a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan — saylanadi. Senatning 16 nafar a‘zosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan fah, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga



O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosi. — Toshkent, 2007.



**O‘zbekiston Respublikasi Senati binosi — Toshkent, 2007.**

ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan tayinlanadi.

Senat ishi plenar majlislarga va uning qo‘mitalar majlislariga chaqiriladigan senatorlar faoliyatida asoslanadi.

Senatda hududiy siyosiy yoki boshqa asosda guruhlar tashkil qilinishi mumkin emas.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senat mutlaq va birgalikdagi vakolatlarga ega.

Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasini, qonunlarini qabul qilish va ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish; O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish; O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish; O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarni belgilash; O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa organlarning tuzilishi va tugatilishi to‘g‘risida farmonlarini tasdiqlash.


Qonunchilik palatasi va senat o‘z vakolatlari kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanadi, keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanadi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Agar qaytarilgan qonun Qonunchilik palatasi uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan yana ma'qullansa, qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va senati vakolat muddati — 5 yil.

*1-chizma*



Ikki palatali parlamentning bir palataligiga qaraganda ustunligi:

1. O'zbekiston xalqlarining manfaatlarini butunicha va aniq hududlar manfaatlarini ifoda qilishi.

2. Qonun loyihalariga baho berish, aniqlash uchun qo'shimcha organ mavjudligi.

3. Qonun loyihalarini bosqichli ko'rib chiqish.

4. Mahalliy vakillik hokimiyat organlarining rolini ko'tarish.

5. Doimiy asosda faoliyat ko'rsatadigan Qonunchilik palatasining shakllanishi munosabati bilan saylovlarda siyosiy partiyalarning rolini ko'tarish.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining tuzilish tartibi qanday?
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining tuzilish tartibini so'zlab bering.
3. Ikki palatali Oliy Majlisning faoliyatini tavsiflab bering.
4. Mustaqil O'zbekistonda Qonunlarni qabul qilish tartibi qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
5. Ikki palatali parlamentning ustunligi nimalardan iborat?

---

---

## **14-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyati va tarkibi.
2. O‘zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyatining markaziy davlat muassasalari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi — O‘zbekiston Respublikasi hukumati — O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy doirasidagi vazifalarni amalga oshirishni, qonunlar va farmoyishlar ijrosini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi Prezidentning ijroiya apparati. U davlat boshqaruvi organlarini boshqaradi, ularning o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi barcha masalalarini hal qilishga huquqli.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, boshqa normativ huquqiy hujjatlar asosida va ularni bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida



**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi. — Toshkent, 2007-y.**

barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar uchun qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi qarorlarini bajarish barcha organlar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Vazirlar Mahkamasi qarorlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Prezident qarorlari bilan birga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimliklar axtlari uchun huquqiy asosdir.

Vazirlar Mahkamasi davlat budjetini ishlab chiqib, Oliy Majlisga taqdim etadi, uni amalga oshirish uchun choralar ko‘radi, fuqarolar huquqlari va erkinligini ta‘minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, davlat mulkini va ijtimoiy tartibini himoya qilish uchun choralar ko‘radi.

Vazirlar Mahkamasi qonun chiqarish huquqiga ega. Hukumat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar va Prezident qarorlariga tayangan holda ish ko‘radi. Demokratizm, qonuniylik, O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini himoya qilish tamoyillariga suyanadi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat va xo‘jalik boshqaruvining rahbarlari kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti shakllantiradi. Bosh vazir nomzodini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim qiladi, Oliy Majlis ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi. Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini Bosh vazir taqdim qiladi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Hukumat o‘z faoliyatida Prezident va Oliy Majlis oldida javobgardir.



**O‘zR KSOH MDA 0-147682 — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishi.  
— Toshkent, 1993-y. 12-fevral. Muallif R. Nuriddinov.**



Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.


Vazirlar Mahkamasi Prezident boshchiligida ijro etuvchi hokimiyatining yagona tizimini boshqaradi.

O'zbekiston Respublikasi, ijro etuvchi hokimiyatining markaziy davlat muassasalar tizimi quyidagilardan iborat:

- vazirliklar;
- davlat qo'mitalari;
- markaziy muassasalar;
- agentliklar;
- qo'mitalar, departamentlar;
- markazlar;
- inspeksiyalar;
- viloyat, tuman va shahar hokimlari.

Hukumat ijroiya organlarning faoliyat sohasi, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi.

*1-chizma*



**Vazirlik** — respublikaning markaziy ijro etuvchi organi bo‘lib, davlat boshqaruvining tegishli tarmog‘i (sohasi)ga rahbarlik qiladi, shuningdek, qonunda belgilangan doirada tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

**Davlat qo‘mitasi** — Respublikaning markaziy ijro etuvchi organi bo‘lib, davlat boshqaruvining tegishli tarmoqlari (sohalari)da yagona davlat siyosatini o‘tkazadi va ushbu maqsadda qonunga ko‘ra tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ijroiya davlat muassasalar tizimini takomillashtirish ishlari:

- iqtisodiyotni boshqarishda davlat rolini qisqartirish;
- ortiqcha boshqaruv qismlarini qisqartirish;
- parallel faoliyat ko‘rsatadigan bir xil qismlarini tugatish va qayta tashkil etish;
- davlat boshqaruvi organlarining javobgarligini yuksaltirish yo‘nalishlari bo‘yicha olib bormoqda.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Vazirlar Mahkamasining vazifalari va vakolatlarini sanab bering.
2. Vazirlar Mahkamasining raisi kim?
3. Vazirlar Mahkamasi tarkibiga qanday lavozimlar kiradi?
4. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kim tomonidan lavozimga tayinlanadi?
5. O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat tizimiga qanday davlat muassasalari kiradi?
6. Vazirlik vazifalarini sharhlab bering.
7. Davlat qo‘mita vazifalarini aytib bering.
8. Ijroiya davlat muassasalar tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarini tavsiflab bering.

---

---

## 15-mavzu. O‘ZBEKISTONDA SUD VA SUDLOV HOKIMIYATI

1. O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining organlari va faoliyat tamoyillari.

2. Huququiy muhofaza qilish organlari.

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasida sudlar faoliyati O‘zbekiston Respublikasi «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, viloyatlar, shahar, tuman sudlari va harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston sud organlari amalga oshiradi.

Sud hokimiyati organlarining faoliyati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- odil sudlarni amalga oshirish;
- qonuniylik;
- sudlarning mustaqilligi va faqat qonunga bo‘ysunishi;
- bamaslahat ish ko‘rish;
- fuqarolarning sud oldida tengligi;
- tomonlarning tortishuvchanligi va teng huquqligi;
- sud ishlarini yuritishning oshkoraliqi;
- aybsizlik prezumpsiyasi;
- malakali yuridik himoyaga ega bo‘lish huquqi;
- milliy til prinsipi;
- sud hokimiyati hujjatlarining barcha huquq subyektlari uchun majburiyligi;
- sudya lavozimining deputatlik mandati va partiyaga mansublik bilan sig‘ishmasligi.


O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy nazorat organidir.

Konstitutsiyaviy sudi:

- qonunlar, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar hujjatlarining konstitutsiyaga mosligini aniqlaydi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalarini sharhlaydi;

— O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko‘rib chiqadi.

*1-chizma*



**O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi** — fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sudlov ishlarini yuritish sohalarida sud hokimiyatining oliy organidir.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudlar, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlaridan iborat sud tizimini boshqaradi.

Oliy sud rais, uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari, sudlov kollegiyalarining raislari, Oliy sud sudylaridan iborat. Oliy sud tarkibida Oliy sud Plenumi, Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasi, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasi va Harbiy kollegiyasi faoliyat ko‘rsatadi.

Oliy sud vakolatlari:

- birinchi instansiya sudi sifatida alohida og‘irlikka ega jinoyat ishlari har qanday fuqarolik ishlari;
- kassatsiya tartibidagi ishlar;
- nazorat tartibida va yangi vujudga kelgan holatlar bo‘yicha ishlar;
- sud amaliyoti tajribasini o‘rganadi va umumlashtiradi, sud statistikani tahlil qiladi hamda sud amaliyoti bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha tushuntirishlar beradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Oliy xo‘jalik sudi** mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o‘rtasidagi,

tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish bilan shug'ullanadi.

Oliy xo'jalik sudi O'zbekistondagi xo'jalik sudlari tizimini boshqaradi. Xo'jalik sudlar tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahrining xo'jalik sudi kiradi.

Huquqiy muhofaza qilish organlari qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash bo'yicha aniq belgilangan vakolatga ega bo'lgan davlat muassasalari.

Huquqiy muhofaza qilish organlari tizimiga quyidagi muassasalar kiradi: prokuratura, dastlabki tergov organlari, surishtiruv organlari, Adliya vazirligi va uning organlari, notarial idoralar, advokatura.

**Prokuratura** organlari o'z vakolatlarini har qanday mahalliy organlardan mustaqil ravishda amalga oshiradi va faqat Bosh prokurorga bo'ysunadi. Prokuratura faoliyati qonun ustunligi, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlashga qaratilgan.

Prokuratura tomonidan hokimiyat organlari, mansabdor shaxslar huquqni himoya etishi nazorat qilinadi, u davlat manfaatlarini sudda ifodalash va himoya qilishga xizmat etadi.

**Advokatura** — ayblanuvchi himoyalani huquqi bilan ta'minlanadi, tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi, u fuqarolarga, korxonaga, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun faoliyat ko'rsatadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining tizimini tavsiflab bering.
2. Sud organlarining faoliyati qanday tamoyillarga asoslanadi?
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi vakolatlarini aytib bering.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudiga qanday sud organlari bo'ysunadi?
5. Huquqni muhofaza qilish organlarning ahamiyatini sharhlab bering.
6. O'zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat hayotida sud va sudlov organlarining o'rnini aniqlab bering.

---

---

## 16-mavzu. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IDORALARINING TUZILISH TARTIBI VA FAOLIYATI

1. Hokimiyatni davlat idoralari orqali amalga oshirish.
2. Hokimiyatni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi ikki xil shaklda amalga oshiriladi: davlat idoralari orqali va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali.

Mustaqil O'zbekiston davlat hokimiyatining mahalliy organlarini yangi tizimi yaratilgan.

Davlat idoralari orqali amalga oshiriladigan hokimiyat ikki xil shaklda ifodalanadi:

- 1) vakillik organlar orqali;
- 2) ijro etuvchi organlar orqali.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimiyatning vakillik organlari — **xalq deputatlar kengashlari**.

Viloyatlar, tuman va shaharlardagi xalq deputatlar kengashlari yagona kengashlar tizimini tashkil etadilar.

Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, yuqori hokimiyat organlarining qarorlariga muvofiq ravishda ma'muriy birliklarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etadilar.

Mustaqil O'zbekiston mahalliy hokimiyat organlari tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilgan. Islohotlar natijasida:

- barcha davlat, xo'jalik va ijtimoiy masalalar xalq deputatlar kengashlari orqali hal qilinadi;
- hokimiyatning xalq deputatlar kengashlariga va ijroiya organlarga bo'linishi;
- Oliy va mahalliy vakillik organlarining vakolat muddatlari tenglangan: 5 yil.

Xalq deputatlar kengashiga hokimlar boshchilik qiladilar.

**Hokim** — viloyat, tuman, shaharning oliy lavozimli shaxsi. Hokim vakillik va ijroiya hokimiyatni bir vaqtning o'zida amalga oshiradi.

Hokim lavozimi 1991-yil noyabr oyida eksperiment asosida Toshkent shahrida joriy etildi.

1992-yil boshida O'zbekiston Respublikasining barcha viloyat, tuman va shaharlarida hokim lavozimi barpo etildi.



**O‘zR KSOH MDA 0-143912 — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi bilan maslahat kengashi. — Toshkent, 1992-y. 10-avgust. Muallif R. Shagayev.**

1992-yil dekabr oyida hokimlik instituti Konstitutsiya tomonidan mustahkamlandi. Hokimlar faoliyati joylardagi davlat hokimiyati Qonuni bilan tartibga solindi.


Viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadilar va tegishli xalq deputatlar kengashi tomonidan tasdiqlanadilar.

Tuman va shahar hokimlari tegishli viloyat hokimlari tomonidan tayinlanib, tegishli xalq deputatlar kengashi tomonidan tasdiqlanadilar.

Shahar tumanlarining hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadilar va shahar xalq deputatlar kengashi tomonidan tasdiqlanadilar.

Hokim tegishli kengash hududida xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qiladi, qonunlar, Prezident farmonlarini va boshqa davlat hokimiyati hujjatlarini, tegishli xalq deputatlar kengashi qarorlarini ijro etilishini tashkil qiladi, ijtimoiy tartibni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

*1-chizma*





**O‘zR KSOH MDA 0-147395 — Keles shahri mahalla qo‘mitasi raisi T. Shomahmudov suv toshqinidan zarar ko‘rgan pensioner Z. Xasanovadan hol-ahvol so‘ramoqda. — Toshkent viloyati, 1992-y. 23-iyun. Muallif R. Shagayev.**

O‘z vazifalarini bajarish uchun hokim ixtiyorida doimiy faoliyat ko‘rsatadigan apparat — hokimiyat mavjud. Hokimiyat boshqarma, bo‘limlardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi davlat idoralari orqali amalga oshirishdan tashqari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat muassasalarining xususiyatlaridan biri — mahalliy o‘zini o‘zi idora qilishni mustahkamlashida mahallaning roli.

Qishloq, ovullar, shahar mahallalarining yashovchilari o‘z yig‘ilishlarida o‘zini o‘zi idora qilish organlarini — fuqarolar yig‘inlarini — saylash huquqiga ega. Mahalla yashovchilari mahalliy qo‘mitasi raisni — oq-soqolni — va uning ikki maslahatchilarini saylaydi. Tegishli vakolatlar ularga 2,5 yil muddatga beriladi.

Fuqarolar yig‘inlari oqsoqol tomonidan tegishli xalq deputatlar kengashi yoki hokim bilan kelishilgan holda zarur vaqtlarda chaqiriladi. Shuningdek, fuqarolar yig‘ini xalq deputatlar kengashi, hokim tomonlaridan yoki 18-yoshga yetgan, tegishli hududning uchdan bir qismidan kam bo‘lmagan fuqarolar tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin.

Oqsoqollar va uning maslahatchilari fuqarolar yig‘ini tomonidan tegishli tuman, shahar hokimi bilan kelishilgan holda saylanadilar. Maslahatchilar soni yig‘in tomonidan belgilanadi: nomzodlarni oqsoqol (rais) taqdim etadi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolarning jamoat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqini amalga oshiradi, tegishli hududda ijtimoiy va xo‘jalik vazifalarini bajarish maqsadida fuqarolarni birlashtirish, davlat




hokimiyati organlariga qonunlarni, Prezident farmonlarini, hukumat, xalq deputatlar kengashi qarorlarini bajarish ishida yordam beradi.

O'zini o'zi boshqarish organlarining joriy faoliyatini rais (oqsoqol) va uning tomonidan tayinlangan kotib tashkil qiladi va amalga oshiradi.

Rais (oqsoqol) O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, Prezident farmonlarini, hukumat va mahalliy organlarning qarorlarini bajarilishini tashkil qilish, fuqarolarning moddiy turmush sharoitlarini yaxshilashga g'amxo'rlik qilish, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish; o'z hududini obodonlashtirish; ommaviy-siyosiy choralarini ko'rish; savdo, umumiy ovqatlanish, bozorlar ishi ustidan nazorat qilish; aholi punktlarining sanitar ahvoli ustidan nazorat qilish; hududda yashovchilarni ro'yxatga olish; yerlarni himoya qilish va ulardan foydalanish ustidan nazorat qilish; aholidan soliq va boshqa to'lovlarning o'z vaqtida tushishiga yordam qilish; yong'inga qarshi choralar tekshiruvini tashkil qilish; huquqni muhofaza qilish organlariga yordam berish; qonunda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal qilishiga javobgardir.

*2-chizma*



O'zini o'zi boshqarish organlari tarixiy an'analar asosida yaratilgan. Zero, mahallaning o'zini o'zi boshqarish ijtimoiy organi sifatidagi ahamiyati doimo, qadimgi davrlardan buyon juda ulkandir.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi qanday amalga oshiriladi?
2. Mustaqil O'zbekistonda davlat hokimiyatining mahalliy organlar tizimi qanday muassasalardan iborat?
3. Mustaqil O'zbekistonda xalq deputatlar kengashining ahamiyatini sharhlab bering.
4. Hokim lavozimi qachon kiritilgan?
5. Hokimlarning majburiyatlarini va vazifalarini tavsiflab bering.
6. Hokim lavozimini joriy etish ahamiyati qanday?
7. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qanday baholaysiz?
8. Fuqarolar yig'inlarini chaqirish tartibini aytib bering.
9. Oqsoqol (rais) vazifalari va roli qanday?

## YAKUNIY TEST SAVOLLARI

1. Davlat muassasalari tarixi fanini o'rnatish orqali qanday sohadagi kadrlar tayyorlanadi?
  - A. Ish yurituvchi
  - B. Hujjatshunos
  - D. Arxivshunos
  - E. Hamma javoblar to'g'ri.
2. Qadimgi Farg'ona davlatida hukmdorni taxtga o'tqazish vakolatiga ega bo'lgan muassasa (lavozim).
  - A. Vazir.
  - B. Oqsoqollar kengashi.
  - D. Ulug' hojib
  - E. Hukmdor o'z ixtiyori bilan.
3. Qadimgi Farg'ona va Qang' davlatlarida Oqsoqollar Kengashining vakolatlar doirasi:
  - A. Davlatning ijtimoiy, iqtisodiy hayotida ishtirok etish.
  - B. Mamlakatning diniy masalalarini muhokama qilish.
  - D. Davlatning yer-mulk masalalarini muhokama qilish.
  - E. Davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotida ishtirok etish.
4. Qadimgi Farg'onada hukmdorning yordamchisi kim bo'lgan?
  - A. Ulug' hojib
  - B. Vazir
  - D. Oqsoqol
  - E. Qushbegi
5. Turk xoqoni tayangan qurultoy kimgalardan yig'ilar edi?
  - A. Yabg'ulardan
  - B. Tudunlardan
  - D. Oqsoqollardan
  - E. Oqsoqollar va harbiylardan
6. Arab xalifaligidagi devon al-mashriq, devon al-mag'rib, devon al-xaraj qanday idoralar tarkibiga kirgan?
  - A. Devoni barid.
  - B. Devoni ad-dar.
  - D. Qozi devoni.
  - E. Bosh vazir devoni.
7. Arab xalifaligidagi devoni ad-darning idoralarga bo'linish asosi nima?
  - A. Hududiy
  - B. Sohaviy
  - D. Hududiy va sohaviy.
  - E. Idoralarga bo'linmagan.
8. Somoniylar davlatida boshqaruv idoralari qanday toifalarga bo'lingan?
  - A. Dargoh va saroy.
  - B. Dargoh va devonlar.
  - D. Dargoh va Oqsoqollar Kengashi.
  - E. Dargoh va harbiylar kengashi.
9. Somoniylar davlatida devoni ar-rasoyil qanday ishlar bilan shug'ullangan?
  - A. Pochta xizmati.
  - B. Hujjatlarni ishlab chiqarish.
  - D. Diplomatik ishlar.
  - E. Hujjatlarni rasmiylashtirish va diplomatik ishlar.
10. Somoniylar davlatida devon ishlarini kim boshqargan?
  - A. Vakil
  - B. Bosh vazir.
  - D. Oqsoqollar kengashi.
  - E. Amiri haros.
11. Somoniylar davlatida diplomatik aloqalar bilan qanday devon shug'ullangan?
  - A. Devoni ar-rasoyil
  - B. Xat-xabarlar devoni.
  - D. Sohib al-barid devoni.
  - E. Devon mustavfiy.
12. Somoniylar davlatida qaysi devonning mahalliy bo'limlari bevosita markazgagina bo'ysinganlar?
  - A. Sohib al-ushrot.
  - B. Devon ar-rasoyil.
  - D. Sohib al-barid.
  - E. Az-ziyo devoni.
13. Somoniylar davlatida shahar boshlig'i kim bo'lgan?
  - A. Voliy.
  - B. Ketxuda.
  - D. Rais.
  - E. Vazir.
14. Somoniylar davlatida joylardagi diniy ishlarni boshqaruvchi shaxs kim?
  - A. Shayxulislom.
  - B. Voliy.
  - D. Rais.
  - E. Ketxuda.
15. Somoniylar davlatida lashkar nechta toifaga bo'lingan?
  - A. 2.
  - B. 3.
  - D. 4.
  - E. 5.

16. G'aznaviyalar davlatida harbiy devon huzuridagi idora?  
**A.** Dargoh.  
**B.** Devoni arz.  
**D.** Mushrif devoni.  
**E.** Xat-xabarlar devoni.
17. G'aznaviyalar davlatida viloyat boshliqlari qanday atalgan?  
**A.** Hokim.  
**B.** Voliy.  
**D.** Rais.  
**E.** Shayxulislom.
18. G'aznaviyalar davlatida shihna qanday vazifalarni bajargan?  
**A.** Moliya ishlarini.  
**B.** Xat-xabar ishlarini.  
**D.** Diniy ishlarni.  
**E.** Mirshablik.
19. Saljuqiylarda qanday lavozim rasmiy qabullarni uyushtirish bilan shug'ullangan?  
**A.** Horis amiri.  
**B.** Ulug' hojib.  
**D.** A'lamdor.  
**E.** Jangdor.
20. Saljuqiylar bosh vaziri davlat ishlarining qaysi sohasida huquqsiz edi?  
**A.** Xorijiy davlatlar namoyandalari bilan muzokarada bo'lish.  
**B.** Davlat amaldorlarini ishga olish, ishdan bo'shatish.  
**D.** Yer-mulk taqsimlash ishlarida.  
**E.** Davlatning moliya ishlarida.
21. Saljuqiylar davlatida nechta rasmiy devonlar bo'lgan?  
**A.** 4.  
**B.** 5.  
**D.** 10.  
**E.** 12.
22. Saljuqiylar davlatida eng muhim devon qaysi edi?  
**A.** Devoni istifo.  
**B.** Devoni arz.  
**D.** Devoni tug'ro.  
**E.** Devoni ishrof.
23. Saljuqiylardagi devoni arz qanday ishlar bilan shug'ullangan?  
**A.** Moliya.  
**B.** Harbiy.  
**D.** Xat-xabarlar.  
**E.** Hujjatlarni rasmiylashtirish.
24. Qoraxoniylar davlatidagi dargohning yetakchi lavozimi qaysi edi?  
**A.** Vazir.  
**B.** Xazinachi.  
**D.** Rais.  
**E.** Hojib.
25. Qoraxoniylarda sadrlar qanday ikkinchi lavozimni egallash huquqiga ega edilar?  
**A.** Hojib va vazir.  
**B.** Hojib va rais.  
**D.** Rais va qozi.  
**E.** Rais va muhtasib.
26. Xorazmshohlarda nechta devon faoliyat ko'rsatgan?  
**A.** 4.  
**B.** 5.  
**D.** 10.  
**E.** 12.
27. Xorazmshohlardagi devoni xos qanday ishlar bilan shug'ullangan?  
**A.** Harbiy ishlar.  
**B.** Xat-xabar ishlari.  
**D.** Sulolaga tegishli yer-suv, mol-mulk ishlari.  
**E.** Hukmdor hujjatlarini rasmiylashtirish.
28. Amir Temur davrida davlat boshqaruvi qaysi idoralar tomonidan amalga oshirilgan?  
**A.** Dargoh va vazirlik.  
**B.** Dargoh, devoni xos va vazirlik.  
**D.** Dargoh va devoni xos.  
**E.** Dargoh, devoni xos, oliy devon, vazirlik.
29. Amir Temur o'zigacha mavjud bo'lgan davlatning sakkizta asosiga qo'shimcha tarzda to'qqizinchi asosni qo'shgan. Ushbu asos mazmunini aniqlang?  
**A.** Fan va madaniyat ravnaqiga alohida e'tibor qaratish.  
**B.** Boshqaruv tizimini muvofiqlashtiruvchi qoidalar tizimini shakllantirish.  
**D.** Davlat va jamiyat siyosiy birligini ta'minlash.  
**E.** Jamiyat rivojini ta'minlash va ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini himoya qilish.
30. Temuriylar davrida do'kondor hunarmandlardan olingan soliq turi?  
**A.** Avorizot.  
**B.** Tamg'o.  
**D.** Shumor.  
**E.** Ulog'.
31. Shayboniylar davrida markaziy boshqaruv tizimi kimning qo'lida bo'lgan?  
**A.** Amir.

- B.** Xon.  
**D.** Hoqon.  
**E.** Podshoh.
32. Shayboniylar ularga tobe bo'lgan viloyatlarni kimlar yordamida boshqargan?  
**A.** Yabg'u.  
**B.** Tudun.  
**D.** Amir ul-umaro.  
**E.** Hokimlar.
33. XVI asrda mahalliy boshqaruv qanday birliklarga bo'lingan?  
**A.** Viloyat, qishloq.  
**B.** Viloyat, qishloq, qasaba.  
**D.** Viloyat, tuman, qasaba, qishloq.  
**E.** To'g'ri javoblar A va B.
34. Shayboniylar davri ijtimoiy tizimida qanday tabaqalar bo'lgan?  
**A.** Oliy, umaro, ulamo.  
**B.** Fuzalo, raiyat, quillar.  
**D.** Oliy, umaro, raiyat, fuzalo.  
**E.** To'g'ri javoblar A va B.
35. Ashtarxoniylar davrida markaziy boshqaruv qanday qismlarga bo'lingan?  
**A.** Harbiy boshqaruv, saroy amaldorlari, diniy boshqaruv.  
**B.** Harbiy boshqaruv, viloyat boshqaruvi, diniy boshqaruv.  
**D.** Harbiy, viloyat, tuman boshqaruvi.  
**E.** Devon, harbiy boshqaruv, saroy amaldorlari.
36. Ashtarxoniylar davri diniy boshqaruvdagi mansab va unvonlarni aniqlang?  
**A.** Xojalar, shayxulislom.  
**B.** Qozi kalon, sadr, a'lam.  
**D.** Muftiy, Rais, mudarris.  
**E.** Barcha javoblar to'g'ri.
37. Ashtarxoniylar davlati mahalliy boshqaruvda o'z o'rniga ega bo'lgan tuman hokimiga kimlar bo'ysingan?  
**A.** Soliq yig'uvchi, qasaba va qishloq oqsoqoli.  
**B.** Viloyat hokimi, harbiy boshliqlar.  
**D.** Harbiy boshliqlar, qozi, mufti.  
**E.** To'g'ri javob yo'q.
38. Qaysi sulola davrida Buxoro hukmdori «amir» unvoni bilan davlatni boshqargan?  
**A.** Shayboniylar.  
**B.** Ashtarxoniylar.  
**D.** Joniylar.  
**E.** Mang'itlar.
39. Buxoro amirligida devonbegi qanday vazifalarni bajargan?  
**A.** Davlatning moliyaviy ishlarini boshqargan.  
**B.** Davlatning harbiy ishlarini boshqargan.  
**D.** Davlatning qurilish ishlarini boshqargan.  
**E.** Davlatning sud ishlarini boshqargan.
40. Qo'shbegi bolo qanday mansab hisoblangan?  
**A.** Buxoro amirligidagi qimmatbaho narsalar va amir savdo qiluvchi mollar saqlanadigan «yuqori omborxonona»ni boshqargan.  
**B.** Qo'qon xonligida bosh vazir vazifasini bajargan.  
**D.** Xiva xonligida yuqori diniy mansabga ega bo'lgan.  
**E.** Buxoro amirligidagi zakotdan tushgan narsalar saqlanuvchi «quyi omborxonona»ni boshqargan.
41. Buxoro amirligi madrasalarida o'qish necha bosqichdan iborat bo'lgan?  
**A.** 3-bosqichdan: past qadam, miyona, peshqadam.  
**B.** 2-bosqichdan: past qadam, peshqadam.  
**D.** 4-bosqichdan: past qadam, miyona, peshqadam, yuqori qadam.  
**E.** 2-bosqichdan: past qadam va yuqori qadam.
42. Rossiya imperiyasi siyosiy agentligi qachon va qayerda ochilgan?  
**A.** 1876-yilda, Qo'qon shahrida.  
**B.** 1873-yilda, Xiva shahrida.  
**D.** 1868-yilda, Toshkentda.  
**E.** 1886-yilda, Buxoroda.
43. Rossiya imperiyasi siyosiy agentining vazifasi nimadan iborat bo'lgan?  
**A.** Buxoro amirligi ichki va tashqi siyosatini nazorat qilish.  
**B.** Rossiya va Xiva xonligi o'rtasida imzolangan shartnoma bandlari bajarilishini nazorat qilgan.  
**D.** Qo'qon xonligi hududidan imperiya xazinasiga soliqlar yig'ishni nazorat qilgan.  
**E.** Turkiston general-gubernatori faoliyatini tekshirgan.
44. Xiva xonligi tarixida nechta sulola hukmronlik qilgan?  
**A.** Ikkita: xorazmshohlar va qo'ng'irotlar.  
**B.** Ikkita: Xiva xonlari va qo'ng'irotlar.  
**D.** Ikkita: mang'itlar va qo'ng'irotlar.  
**E.** Ikkita: mang'itlar va Xiva xonlari.

45. Inoq qanday vakolatlarga ega bo'lgan?
- Xiva xonligi harbiy ishini boshqargan.
  - Xiva xonligida ma'muriy va boshqaruv amallarini bajargan.
  - Xiva xonligida xalqaro munosabatlarni idora qilgan.
  - To'g'ri javob A va B.
46. Amudaryo bo'limini boshqarish to'g'risidagi «Nizom» qachon qabul qilingan?
- 1874-yil 21-mayda.
  - 1875-yil 21-martda.
  - 1876-yil 20-mayda.
  - 1873-yil 21-martda.
47. Amudaryo bo'limi boshlig'i qanday vakolatlarga ega bo'lgan?
- Xiva xonligidan ajratib olingan hududlar ma'muriy, politsiya, sudlov ishlarini boshqargan.
  - Bo'lim hududidagi harbiy boshliq vazifasini bajargan.
  - Rossiya imperiyasining Xiva xonligidagi diplomatik vakili hisoblangan.
  - Barcha javoblar to'g'ri.
48. Qo'qonning dastlabki hukmdorlari unvonini aniqlang?
- Biy.
  - Xon.
  - Hoqon.
  - Amir.
49. Qo'qon xonligida bosh vazir nima deb atalgan?
- Qo'shbegi.
  - Qushbegi.
  - Mingboshi.
  - Qozi ul-quzzot.
50. Qo'g'on xonligidagi davlat muassasalari turlarini aniqlang?
- O'rda va harbiy ma'muriy mahkamalar.
  - Diniy mahkamalar va ta'lim muassasalari.
  - Soliq idoralari.
  - Barcha javoblar to'g'ri.
51. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi qanday vazifalarni bajargan?
- Ma'muriy, fuqarolik va nozirlik tartiblarini belgilagan.
  - Yerlar masalasi, yo'l qurilishi, tog' ishlarini boshqargan.
  - Xiva va Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga tobeligi bilan bog'liq masalalarni hal qilgan.
  - Barcha javoblar to'g'ri.
52. Toshkent shahar Dumasi qachon tuzilgan?
- 1877-yilda.
  - 1876-yilda.
  - 1878-yilda.
  - 1879-yilda.
53. Toshkent shahar Dumasining ijroiya organini aniqlang.
- Viloyat boshqarmasi.
  - Shahar mahkamasi.
  - Volost boshqarmasi.
  - Oliy Sovet.
54. Turkiston general-gubernatorligida qanday sud organlari faoliyat ko'rsatgan?
- Qozi sudlari.
  - Biy sudlari.
  - Imperiya sudlari.
  - Barcha javoblar to'g'ri.
55. Turkiston general-gubernatorligidan tushgan moliyaviy daromadlar ustidan nazorat qiluvchi muassasani aniqlang?
- Turkiston nazorat palatasi.
  - Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi.
  - Turkiston podshohligi palatasi.
  - A va B javoblar to'g'ri.
56. XX asr boshlarida Turkistonda tuzilgan dastlabki davlat ma'muriy organlarini aniqlang?
- Turkiston sovetlari, ijroiya qo'mitalar, Sho'royi Islom tashkiloti.
  - Sho'royi Islom va ishchi deputatlar sovetlari.
  - Ishchi va soldat deputatlar sovetlari.
  - Turkiston ijroiya qo'mitasi.
57. Turkiston muxtoriyati boshqaruv organi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
- Turkiston muxtoriyati ta'xis syezdi.
  - Xalq majlisi.
  - Muvaqqat kengash.
  - B va D javoblar to'g'ri.
58. Mamlakatni boshqarish uchun «Idoray mashrutiyati» kimlarning tashabbusi bilan tuzilgan?
- Turkiston jadidlari.
  - Yosh buxoroliklar.
  - Yosh xivaliklar.
  - To'g'ri javob yo'q.
59. XX asr boshida tuzilgan milliy siyosiy tashkilotlarni aniqlang?
- Ishchi va soldat, dehqon sovetlari.
  - Sho'royi Islomiy va Sho'royi Ulamo.
  - Nozirlar kengashi.
  - Turkiston Markaziy byurosi.

60. Qachon Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi tashkil etildi?
- 1918-yil 20 aprelda.
  - 1917-yil 28 noyabrda.
  - 1920-yil 20 noyabrda.
  - 1919-yil 18 iyunda.
61. Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi oliy qonunchilik organi?
- Sud organlari.
  - Prokuratura.
  - Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi.
  - Markaziy hukumat komissiyasi.
62. O'rta Osiyoda milliy davlatchilikni tugatishiga bosh-qosh bo'lgan sovet davlat organini aniqlang?
- Turkkomissiya.
  - Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi.
  - Turkiston byurosi.
  - Mahalliy ijroiya qo'mitalari.
63. XXSRda qaysi organ oliy va mahalliy hokimiyat vazifasini bajargan?
- Butunxorazm qurultoyi.
  - Butunxorazm qurultoyi va xalq vakillari sovetlari.
  - Mahalliy sovetlar.
  - Adliya mahkamasi.
64. BXSР qonun chiqaruvchi oliy organi?
- Nozirlar kengashi.
  - Umumbuxoro inqilobiy qo'mitasi.
  - Buxoro kommunistik partiyasi.
  - Inqilob qo'mitalari.
65. Butunbuxoro xalq vakillari qurultoyi qanday davlat organi hisoblangan?
- Mahalliy.
  - Oliy.
  - Hududiy.
  - Mintaqaviy.
66. Maorif nozirligi qanday ishlarni boshqargan?
- Ta'lim tizimini isloh qilgan.
  - Eski usul ta'lim tizimiga qarshi kurashgan.
  - Sovet o'quv muassasalari tizimini joriy etish bilan shug'ullangan.
  - Barcha javoblar to'g'ri.
67. O'zSSRda Umumo'zbek sovetlar syezdi qanday davlat organi bo'lgan va u qachon chaqirilar edi?
- Ijro etuvchi, har yili.
  - Oliy hokimiyat, ikki yilda bir marta.
  - Sud hokimiyati, doimiy faoliyat ko'rsatgan.
  - A va D javoblar to'g'ri.
68. O'zSSR MIQ qanday huquqlarga ega bo'lgan?
- Umumo'zbek sovetlar syezdi oraliqida respublika oliy hokimiyat organi hisoblangan.
  - Kodekslar, dekretlar, qarorlar qabul qilgan.
  - O'zSSR MIQ XKS va MIQ Prezidiumi hamda Tojikiston ASSR syezdi qabul qilgan qaror va farmonlarni bekor qilish huquqiga ega bo'lgan.
  - Barcha javoblar to'g'ri.
69. O'zSSR xalq komissariati necha qismdan iborat bo'lgan?
- Birlashgan va alohida.
  - Umumiy va ajratilgan.
  - Yuridik shaxslar: yuqori va quyi.
  - Oliy va mahalliy.
70. O'zSSR mahalliy hokimiyat organlarini aniqlang?
- Ijroiya qo'mitalar.
  - Prezidium.
  - Tuman sovetlar syezdi.
  - Deputatlar soveti.
71. Oliy Kengash deputatlari necha yil muddatga saylanar edi?
- 3 yil.
  - 4 yil.
  - 5 yil.
  - 4 yil.
72. Oliy Kengash tarkibidan saylangan mandat komissiyasi qanday vazifalarni bajargan?
- Oliy Kengash deputatlari faoliyatini nazorat qilgan.
  - Joylardagi mansabdor shaxslar faoliyatini tekshirgan.
  - Mahalliy davlat organlari faoliyatini tekshirgan.
  - To'g'ri javob yo'q.
73. Tarkib jihatidan Xalq Komissarlari Soveti necha qismga bo'lingan?
- Ittifoq va mahalliy.
  - Ittifoq va respublika.
  - Ittifoq va avtonom respublikalar.
  - Respublika va mahalliy.
74. O'zSSR nazorat organi?
- Sud.
  - Ommaviy axborot vositalari.
  - Prokuratura.
  - Ministrlar Soveti.
75. O'zSSR Ministrlar Soveti vakolati doirasiga nimalar kirgan?
- Xalq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy hayoti qurilishiga rahbarlik qilgan.

- B.** Respublika iqtisodiy va ijtimoiy rivoji rejaralarini tuzish.
- D.** Davlat budjetini ishlab chiqarish va Oliy Sovetga taqdim etish.
- E.** Barcha javoblar to'g'ri.
76. Xalq deputatlari sovetlari qanday davlat organi bo'lgan?
- A.** Markaziy.
- B.** Mahalliy.
- D.** Nazorat.
- E.** Ma'muriy.
77. 1990-yildan respublika boshqaruv tizimiga qanday o'zgarish kiritildi?
- A.** Prezidentlik instituti joriy etildi.
- B.** Oliy Majlis ta'sis etildi.
- D.** Ministrlar Soveti.
- E.** Oliy Sovet Prezidiumi ta'sis etildi.
78. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qachon shakllangan?
- A.** 1991-yil.
- B.** 1992-yil.
- D.** 2000-yil.
- E.** 2002-yil.
79. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qaysi muassasa tomonidan qabul qilingan?
- A.** Oliy Majlisning sessiyasida.
- B.** Oliy Kengashning sessiyasida.
- D.** Senat sessiyasida.
- E.** Qonunchilik palatasining sessiyasida.
80. O'zbekiston Respublikasi hokimiyat tarmog'iga kiradi.
- A.** Prezident.
- B.** Vazirlar Mahkamasi.
- D.** Davlat qo'mitalari.
- E.** Hamma javob to'g'ri.
81. Mustaqil O'zbekistonning Oliy Majlisi nechta palatali bo'lgan?
- A.** 1 palatali.
- B.** 2 palatali.
- D.** Dastlab 1 palatali, hozirgi vaqtda 2 palatali.
- E.** Dastlab 2 palatali, hozirgi vaqtda 1 palatali.
82. 1992-yilda mustaqil O'zbekistonning qonun chiqaruvchi oliy organi —
- A.** Oliy Majlis.
- B.** Oliy Kengash.
- D.** Senat.
- E.** Vazirlar Mahkamasi.
83. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaysi yildan boshlab faoliyat ko'rsatadi?
- A.** 1991-yil.
- B.** 1993-yil.
- D.** 1994-yil.
- E.** 1995-yil.
84. Qonunchilik palatasi nechta deputatlardan iborat?
- A.** 50.
- B.** 60.
- D.** 100.
- E.** 120.
85. Senatning nechta a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi?
- A.** 16.
- B.** 20.
- D.** 50.
- E.** Senat a'zolari Prezident tomonidan tayinlanmaydi, ular faqat Deputatlar orasidan saylanadilar.
86. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatning vakolat muddati necha yil?
- A.** 2 yil.
- B.** 3 yil.
- D.** 5 yil.
- E.** 8 yil.
87. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini qaysi muassasa (lavozim) ishlab chiqaradi?
- A.** Qonunchilik palatasi.
- B.** Senat.
- D.** Vazirlar Mahkamasi.
- E.** Prezident.
88. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday muassasa (lavozim) oldida javobgar?
- A.** Qonunchilik palatasi.
- B.** Senat.
- D.** Prezident.
- E.** Oliy Majlis va Prezident.
89. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir nomzodini qanday idora (lavozim) taqdim qiladi?
- A.** Qonunchilik palatasi.
- B.** Senat.
- D.** Prezident.
- E.** Oliy Majlis va Prezident.
90. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati.
- A.** Siyosiy partiyalardan mustaqil holda ish yuritadi.
- B.** Qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mustaqil holda ish yuritadi.

- D.** Ijro etuvchi hokimiyatdan mustaqil holda ish yuritadi.  
**E.** Hamma javoblar to'g'ri.
91. Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradigan idora (lavozim)?  
**A.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.  
**B.** Senat.  
**D.** Konstitutsiyaviy sud.  
**E.** Oliy sud.
92. Qaysi idora huquqiy muhofaza qilish organlari tizimiga kiradi?  
**A.** Prokuratura.  
**B.** Advokatura.  
**D.** Notarial idoralar.  
**E.** Hamma javob to'g'ri.
93. Davlat idoralari orqali amalga oshiriladigan xalq hokimiyatchiligi qanday shakllarda ifodalanadi?  
**A.** Vakillik organlari orqali.  
**B.** Ijro etuvchi organlar orqali.  
**D.** Vakillik va ijro etuvchi organlar orqali.  
**E.** O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi davlat idoralari orqali emas, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshiriladi.
94. Mahalliy vakillik organlarining vakolat muddati qanday?  
**A.** 2 yil.  
**B.** 3 yil.  
**D.** 5 yil.  
**E.** 8 yil.
95. O'zbekiston Respublikasida hokim lavozimi birinchi marta qachon joriy etildi?  
**A.** 1991-yilda.  
**B.** 1992-yilda.  
**D.** 1995-yilda.  
**E.** 1999-yilda.
96. O'zbekiston Respublikasida viloyat, tuman va shaharlarda hokim lavozimi qachon barpo etildi?  
**A.** 1991-yilda.  
**B.** 1992-yilda.  
**D.** 1995-yilda.  
**E.** 1999-yilda.
97. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari qanday idora (lavozim) tomonidan tayinlanadi?  
**A.** Vazirlar Mahkamasi.  
**B.** Prezident.  
**D.** Xalq deputatlar kengashi.  
**E.** Senat.
98. Mahalla oqsoqolining vakolat muddati necha yil?  
**A.** 2 yil.  
**B.** 2,5 yil.  
**D.** 3 yil.  
**E.** 5 yil.
99. Mahalla qo'mitasi raisi qanday nomlanadi?  
**A.** Hokim.  
**B.** Shihna.  
**D.** Oqsoqol.  
**E.** Voliy.
100. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirishlar kiritish vakolatiga ega bo'lgan muassasa (lavozim)?  
**A.** Oliy Majlis.  
**B.** Prezident.  
**D.** Vazirlar Mahkamasi.  
**E.** Senat.



## ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI

- Avtonomiya** — (yunoncha «autos» — o‘zini, «nomos» — qonun) — muxtoriyat. Ma‘lum bir davlat tarixida o‘z qonuni va davlat boshqaruv organlariga ega bo‘lish. Masalan, Qoraqalpog‘iston Avtonom Respublikasi.
- Amin** — Qo‘qon xonligida bozordagi tarozi va oldi-sotdi amallarini shariat asosida nazorat qilgan.
- Amir ul-umaro** — amirlarning amiri.
- Amirlashkar** — Qo‘qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari darajasiga teng bo‘lgan.
- Askar** — harbiy.
- A‘lam** — shariat bo‘yicha gunohkorlarning jazosini aniqlab beradi. Bilag‘on olim — faqihlik unvoni. Buxoro amirligida muftiylar boshlig‘i hisoblangan.
- Bakovli kalon** — amir oshxonasi va uning xodimlarini boshlig‘i.
- Bek** — viloyat hokimi. Xiva xonligida xon va davlat arboblarning qarindoshlari, bolalariga beriladigan faxriy unvon.
- Beklarbegi** — beklarning begi. Bu unvon xonning vorisi yoki ba‘zi viloyatlarning hokimiga berilgan.
- Biy** — turkiy qabilalarning peshvolari.
- Botir** — askar.
- Botirboshi** — botir va bahodirlar boshlig‘i. Besh yuzdan ortiq qo‘shinga boshchilik qilgan. Ba‘zan qurilish hamda ariq qazish ishlarini ham boshqargan.
- Buxchabardor** — Xiva xonining kiyim-boshi mutasaddisi.
- Vazir** — bosh maslahatchi.
- Voliy (noib)** — viloyat va tumanlarda xonning o‘rinbosari. Viloyatning harbiy va ma‘muriy ishlariga boshchilik qilgan.
- Volost** — uyezd tarkibiga kirgan quyi ma‘muriy-hududiy bo‘linma. Turkiston aholisi bo‘lis, vo‘lis deb atagan.
- Daftardor** — katta devondagi tanhodor va suyurg‘ol egalarini ishdan olish va amalga qo‘yish tartibini nazorat qilgan.
- Darg‘alar** — Xiva xonligi davrida Amudaryodan o‘tqazib qo‘yish ishlarini boshqargan. Hozirda Xorazmda kema sardori yoki shatak kema boshlig‘ini shunday deb ataydilar.
- Dasturxonchi** — xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar shaxs.
- Dahboshi** — o‘n nafarlik jangchi dastasining sardori.
- Devonbegi** — xon devonining sardori.
- Demokratiya** — (yunoncha — «demos» — xalq, «kratos» — hokimiyat) fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligidan vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tizim.
- Dodxoh** — xon oldida boshqalarning istak va maqsadlarini bayon etish huquqiga ega bo‘lgan saroy unvonlaridan.
- Dorug‘a** — zakot yig‘uvchi.
- Dorug‘aboshi** — zakotchilarning boshlig‘i. Hosil yig‘ib olishdan oldin xiroj miqdorini aniqlardi.
- Yovar** — soqchilarning boshlig‘i. Guruhi 100 nafar askardan iborat bo‘lgan.
- Jam‘og‘a** — xonning suhbat, qabuli va bazmlarida ishtirok etadigan kishilarni chaqirib kelgan.
- Jibachi** — jiba yasovchi.
- Zakotxona** — zakotdan tushgan mollar to‘planuvchi maxsus idora.
- Imom** — masjid imomi.
- Imomi jilav** — safar va yurishlar paytida xon va riqob ahliga xizmat qiladigan imom.
- Imom xatib** — masjid imomi va jum‘a nomozlarida xutba o‘qib xizmat qilardi.
- Inoq** — xonning xos va sirdosh mulozimi.

**Inoqi xurd** — amir muhrlari saqlanadigan sandiqchaga posbonlik qilgan.

**Konstitutsiya** — (lotincha «kositutio» — tuzilish, tuzuk) — davlatning asosiy qonuni.

**Konfederatsiya** — bir necha davlatlar uyushmasi.

**Kitobdor** — saroy kutubxonasining mudiri.

**Kutvol** — Xiva xonligida harbiy unvon.

**Ko'kaldosh** — Buxoro amirining eng yaqin kishilaridan bo'lib, uning dushmanlari, do'stlari va xayrixohlaridan xabardor bo'lib turgan.

**Liberalizm** — (lotincha «liberalis» — hur fikrli, erkinlik) jamiyat taraqqiyatining ma'lum sohasini erkinlashtirish.

**Mahalla** — O'zbekistondagi ma'muriy-hududiy birlik. O'zini o'zi boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga xos bo'lgan usuli.

**Mahalliy davlat hokimiyati organlari** — joylardagi davlat boshqaruv organlari. Ikki qismga bo'linadi: mahalliy vakillik va ijroiya organlari.

**Mahram dahboshi** — o'n mahramga boshliq.

**Mextar** — xon otxonasining boshlig'i hamda zakotchi. Aholidan zakot sifatida eng yaxshi otlarni olgan.

**Mehtar** — ya'ni katta, ulug'. Xiva xonligida saroy xizmatkorlarining boshlig'i. Asosiy xizmati yerlar solig'i — solg'utni o'z vaqtida to'plashdan iborat bo'lgan.

**Mingboshi** — mo'g'ullar istilosi davridan mavjud, ming nafar askarning boshlig'i. Ma'mur sifatida ming nafar otlig askar beradigan mulkning hokimi. Harbiy yurishlar davrida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olardi. Qo'qon xonligida bu unvonning egasi vazirlikka da'vo qilardi.

**Mirzo** — xonliklar davrida xat, hisob-kitob ishlari bilan shug'ullangan.

**Mirzaboshi** — mirzalarning boshlig'i.

**Mirob** — ariq va suv oqsoqoli.

**Miroxur** — xon otxonasi va otlariga javob bergan.

**Mirshab** — qozixonaning askari va tungi soqchi.

**Mirshabxona sadi** — mirshablarning sardori.

**Monarxiya** — yakka hokimlik.

**Muazzin** — azon aytuvchi.

**Muddaris** — madrasa ustози. Xon tomonidan tayinlanib, yillik maosh olardi.

**Mulozim** — qozixona va mahkamaning oddiy xizmatchisi.

**Munshiy** — Buxoro amiri inoyatlari, duo va salomi, istaklarini yozib, o'qib beradi, amallarga tayinlash yorliqlarini yozib amirga qo'l qo'ydirib egalariiga yetkazishga javobgar shaxs.

**Muftiy** — fatvo beruvchi. Qozilarning huquqshunoslari hisoblangan. Ular ish ko'rganda ishtirok qilishlari, hukmnoma tuzishlari va rivoyatning to'g'riligini tasdiqlash uchun hujjatlarga muhrlarini bosishlari lozim bo'lgan.

**Muftiy askar** — qo'shin muftisi.

**Mushrif** — Buxoro amiri beradigan in'om, hadyalar, ehson va iltifotlarini maxsus daftarga yozib boruvchi.

**Navkar** — askar.

**Naqib** — Qo'qon xonligida oqsoqol, olim faqihlarning yordamchisi. Xiva xonining eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lib, safarlarda unga hamroh bo'lgan.

**Olamiyon** — qozixona, devonxona va boshqa ba'zi mahkamalarning oddiy xizmatchisi.

**Olomon** — xalq.

**Otaliq** — xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiya bergan xonzoda taxtga o'tirgandan so'ng ular ham yuqori mansab va amallarga ega bo'lgan. Buxoro amirligida miroblik va dorug'alik vazifalarini bajargan. Xiva xonligida Inoq boshliq to'daga birlashgan urug' boshligi bo'lgan.

**Oftobachi** — xonning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qilgan.

**Oxund** — bilimli va madrasada o'qiydigan kishi.

**Osh mehtar** — Xiva xonligida xon dasturxoniga tortiladigan ovqatlarni pishirishga mutasaddi, umuman, xon oshxonasiga javobgar shaxs boʻlgan.

**Parvonachi** — unvon egasi oʻzini xonga yaqinligidan foydalanib, xat va arizalarni saroyga olib kirib, u yerdan ketma-ket parvonadek javobini olib chiqar edi.

**Panjsandboshi** — ellik mahramga boshliq.

**Panjohboshi** — ellik nafar harbiy guruhning sardori.

**Parlament** — (fransuzcha «parler» — gapirmoq) — demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi.

**Parlamentarizm** — davlat hokimiyati tuzilishi.

**Partiya** — (lotincha «partio» — boʻlaman, ajrataman) — gʻoyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak boʻlgan, shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi.

**Ponsodboshi** — besh yuz nafar askardan iborat guruhning rahbari.

**Prezident** — (lotincha — oldinda oʻtiruvchi) Respublika davlat boshqaruvi shaklida joriy etilgan davlat boshligʻi lavozimi. Hozirda dunyoda 150 ta davlatda prezidentlik instituti joriy etilgan.

**Rais** — shariat tartib-qoidalari, diniy marosimlar, roʻza tutish, besh vaqt namoz, tahorat, xayri-ehson ishlarining bajarilishi, bozorlarda tosh-tarozining toʻgʻriligi ustidan nazorat qilgan.

**Risolachi** — devondagi vazifalardan boʻlib, elchilar va ularning xat-xabarlariga javob bergan.

**Respublika** — (yunoncha «res» — ish, «publikus» — ijtimoiy, umumxalq) — davlat hokimiyati organlarini saylash orqali yoki umummilliy vakolatli muassasalar (parlamentar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega boʻlgan davlat boshqaruvi shakli.

**Sadr** — Buxoro rabotining bir farsaxlik hududining ichkarisidagi vaqflar hisob-kitobi uning qoʻlida boʻlgan.

**Salomogʻasi** — xalq nomidan xonga salom beruvchi.

**Sarkor** — xon amaldorlarining boshligʻi. Xonga tegishli davlat muassasalari faoliyatlarini va mamlakatdagi qurilish ishlarini nazorat qilgan.

**Sarmunshiy** — munshiyarning sardori.

**Senat** — (lotincha «senatus» — keksa — oqsoqollar kengashi). Oʻzbekistonda 2005-yildan joriy etilgan.

**Siyosat** — davlatni boshqarish sanʼati.

**Sipoh** — askar, sarboz.

**Soatbardor** — xonning soatini saqlovchi.

**Suverenitet** — (fransuzcha «souverainete» — oliy hokimiyat) — hokimiyatning ustunligi va mustaqilligi.

**Sud** — (slavyanacha «sud» — ish) — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi.

**Sudur** — Buxoro rabotining bir farsaxlik hududi tashqarisidagi vaqflar hisob-kitobi uning qoʻlida boʻlgan.

**Soʻfi jilav** — yurish va safarlarda xizmat qiladigan shaxs.

**Tarakachi** — meros qolgan mol-mulklarni meroschilarga boʻlib (taraka) bergan.

**Totalitarizm** — (lotincha «totalis» — yaxlit, toʻliq) — jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan davlatning yalpi toʻla (total) nazorati oʻrnatiladi, kons-titutsiyaviy huquq va erkinliklar tugatiladi. Bir shaxs yoki ijtimoiy guruhning yakkahokimligiga soʻzsiz boʻyliniladi, muxolifat va oʻzgacha fikrlovchilar qatogʻon qilinadi.

**Tugʻbegi** — jangda bayroq koʻtarib yuruvchi.

**Toʻpch** — toʻp otuvchi.

**Toʻpchiboshi** — toʻpchilar boshligʻi. Buxoro amirligida harbiy vazir vazifasini bajargan.

**Toʻqsabo** — oʻzlarining tugʻiga ega boʻlgan harbiy guruhning boshligʻi.

- Udaychi** — xon rikobi oldidan yurib, xonning sha'niga baland ovoz bilan maqtovli so'zlar va hamdu sanolar aytib boruvchi.
- Uyezd** — Rossiya va 1929-yilgacha sobiq SSRIda gubernata tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik.
- Farroshboshi** — saroy xizmatchilarining sardori. Tozalik uchun javobgar shaxs.
- Federatsiya** — (lotincha «fofederatio» — birlashma, uyushma) — davlat tuzilishi shakli.
- Xazinachi** — davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs.
- Xojayi kalon** — fiqh olimining faxriy unvoni.
- Xon** — (qoon — mo'g'ulcha so'z) davlat boshlig'i unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan.
- Chig'atoy begi** — chig'atoy jamoasining boshlig'i. Buxoro amirligi Mirobod tumanining mirobi bo'lgan.
- Chobuqchi** — Buxoro amirligida xazinachi.
- Chuhraboshi** — Buxoro amirligida harbiy unvon.
- Shayx** — din peshvosi.
- Shayx ul-islom** — dindorlarning eng oliy unvonlaridan.
- Sharbatdor** — xonga xos majlislarda va safarlarida xizmat qilgan faxriy unvonlardan biri.
- Shig'ovul** — elchi va choparlarni xon huzuriga boshlab kirgan. Xiva xonligida «buxri»larning faoliyati bilan yaqin bo'lgan. Buxrilar ayg'oqchi, josuslar edi.
- Shotir** — xonning rikobi oldidan yuradigan xizmatchi, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni ta'zimga chorlovchi. Xiva xonligida xon otining jilovidan ushlab yurar edilar.
- Ellikboshi** — elboshi.
- Eshik og'asi** — eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlarining va soqchi mulozimlarining sardori. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozatsiz qo'ymaslikka javob bergan.
- Eshikog'asi** — saroy darvozalarini qo'riqlash ishlarini bajargan.
- Yuzboshi** — harbiy-ma'muriy unvon, yuz kishilik guruhning boshlig'i.
- Yaroqchi** — amir imoratlariga zarur bo'lgan narsalarni sotib olib kelgan.
- Yasovulboshi** — xonning farmoniga muvofiq lashkarlarni o'z vaqtida urushga boshlab borishga mas'ul bo'lgan. Tinchlik vaqtida xonning turli iltimoslarini qabul qilgan va marosimlarda hozir bo'lish va politsiya, qamoqxona va xonni qo'riqlash ishlariga mas'ul bo'lgan.
- Qal'abon (kutvol)** — Qo'qon xonligi chegaralari joylashgan qal'a va istehkomlarning hokimi bo'lib, shu tumanlarning harbiy-ma'muriy, xiroj va boj yig'ish, chegarani muhofaza qilish ishlariga javob bergan.
- Qozi askar** — qo'shin qozisi.
- Qozi jilav** — rikob qozisi bo'lib, safar va yurishlarda xizmat qilgan.
- Qozi mutlaq** — bosh qozi.
- Qozi rais** — Qo'qon xonligida qo'shinlarda askariya muftiysi bergan fatvolarni ijro etilish ustidan nazorat qilgan.
- Qozi kalon** — mamlakat poytaxti va viloyat markazlaridagi qozilarning hamda qozixona ishlari ustidan nazorat qiluvchi.
- Qozi ul-quzzot** — qozilar qozisi (ya'ni, adliya vaziri).
- Qorovul** — xon o'rdasining soqchisi.
- Qorovulbegi** — xon o'rdasining soqchilariga boshliq.
- Qo'rchiboshi** — qo'rg'oshin, borut xaxiralarini tayyorlashga javob bergan. Ba'zi ariqlarning mirobligi ham unga berilgan.

- Qo‘rboshi** — qo‘rxona, ya‘ni qurol-aslaha, yaroq, to‘p yasash ishxonalarining boshlig‘i.
- Qushbegi** — xonning ovchi itlari va lochinlariga hamda ov vaqtida istirohat ishlariga ham javobgar edi.
- Qushbegi kalon** — katta qushbegi.
- Qo‘shbegi** — harbiy qo‘shinning boshlig‘i. Qo‘qon xonligida yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshilik unvonini olishga da‘vo qilardi. Buxoroda eng oliy mansabdor shaxs hisoblangan.
- Qo‘shbegi bolo** — Buxoro amirligidagi qimmatbaho narsalar va amir savdo qiluvchi mollar saqlanadigan «yuqori omborxon»ni boshqargan.
- Qo‘shbegi poyon** — Buxoro amirligidagi zakotdan tushgan narsalar saqlanuvchi «quyi omborxon»ni boshqargan.
- Hidoyachi** — tortiq va sovg‘alarni qabul qilib, xonga yetkazardi.

### QISQARTMA SO‘ZLAR:

- BIKP (b) — Butunittifoq bolsheviklar kommunistik partiyasi.
- BKP (b) — Buxoro bolsheviklar Kommunistik partiyasi.
- BXSR — Buxoro Xalq Sovet Respublikasi.
- MIQ — Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi.
- MQ — Markaziy qo‘mita.
- Revkom — revolyutsion komitetlar (inqilob qo‘mitalari).
- RKP (b) — Rossiya bolsheviklar Kommunistik partiyasi.
- RSFSR — Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi.
- SSRI — Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi.
- Sredazbyuro — O‘rta Osiyo byurosi.
- TASSR — Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi
- Turk MIQ — Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi.
- Turkkomissiya — Turkiston komissiyasi.
- Turkbyuro — Turkiston byurosi.
- XKS (K) — Xalq Komissarlari Soveti (Kengashi).
- XKP (b) — Xorazm bolsheviklar Kommunistik partiyasi.
- XXSR — Xorazm Xalq Sovet Respublikasi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Karimov I. A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston, 1997. — 326 b.
2. *Karimov I. A.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. — T.: O'zbekiston, 1998. — 32 b.
3. *Karimov I. A.* O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. — T.: O'zbekiston, 2005. T. 13. — 445 b.
4. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Konstitutsiyasi. — Samarqand, 1927. — 39 b.
5. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Konstitutsiyasi. — T., 1937. — 31 b.
6. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Konstitutsiyasi. — T., 1977. — 26 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T., 2000. — 41 b.
8. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonuni. — T., 1993 yil 6 may.
9. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni. — T., 1999 yil 11 may.
10. O'zbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni. — T., 2002 yil 4 aprel.
11. *Abduraximova N. A., Ergashev F.* Turkistonda chor mustamlaka tizimi. — T.: Akademiya, 2002. — 240 b.
12. *Alimova D., Golovanov A.* O'zbekiston mustabid sovet tuzimi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari (1917—1990 yy. ). — T.: O'zbekiston, 2000. — 165 b.
13. *A'zamxo'jaev S.* Turkiston muxtoriyati. Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. — T.: Ma'naviyat, 2000. — 168 b.
14. *Ahmedov B.* Amir Temurni yod etib. — T.: O'zbekiston, 1996. — 368 b.
15. *Ziyoyev A.* Amir Temur davrida davlat qurilishi // Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni mavzuidagi xalqaro konferensiya tezislari. — T.: O'zbekiston, 1996. — B. 12—13.
16. *Muhammad Aziz Maarg'iloniy.* Tarixiy Aziziy: (Fargona chor mustamlakachiligi davrida) // So'z boshi va ilovalar mualliflari Sh. Vohidov, D. Sangirova. Mas'ul muharrir A. Qayumov. — T.: Ma'naviyat, 1999. — 112b.
17. *Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X.* Davlat va huquq asoslari. Darslik. — T.: Sharq, 2002. — 354 b.
18. *Sagdullaev A., Aminov B.* va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 1-qism. — T.: Akademiya, 2000. — 272 b.
19. *Rajabov Q.* Buxoro Xalq Respublikasi: monarxiyadan demokratiya sari dastlabki qadamlar (1920-1924 yy. ) // O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari. Davriy to'plam №2. — T.: Sharq, 1999. — B. 149—158.
20. *Vohidov Sh., Xoliqova R.* Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. — T.: Yangi asr avlodi, 2006. — 72 b.

## MUNDARIJA

Soʻzboshi .....	3
1-mavzu. Davlat muassasalari tarixi fanining predmeti, maqsad va vazifalari ....	5
2-mavzu. Oʻzbekiston hududida ilk davlat muassasalarining tashkil topishi .....	9
3-mavzu. IX—XIII asr boshlarida mustaqil davlatlar boshqaruv tizimi.....	14
4-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruv tizimi .....	22
5-mavzu. XVI—XIX asr oxirlarida Buxoro xonligi (amirligi) davlat muassasalari tarixi .....	31
6-mavzu. Xiva xonligining davlat boshqaruv organlari .....	43
7-mavzu. Qoʻqon xonligi davlat idoraviy tizimi .....	48
8-mavzu. Rossiya imperiyasining Turkistondagi boshqaruv tizimi .....	54
9-mavzu. XX asr boshlarida jadidlarning milliy demokratik davlat qurish gʻoyalari .....	72
10-mavzu. Oʻzbekistonda sovet davlat boshqaruv organlarining shakllanishi ...	78
11-mavzu. Oʻzbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi davlat muassasalari ....	86
12-mavzu. Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining tashkil topishi va davlat muassasalari tarixi .....	96
13-mavzu. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.....	100
14-mavzu. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi .....	103
15-mavzu. Oʻzbekistonda sud va sudlov hokimiyati .....	107
16-mavzu. Mahalliy davlat hokimiyati idoralarining tuzilish tartibi va faoliyati .....	110
Yakuniy test savollari .....	114
Atamalar izohli lugʻati .....	121
Qisqartma soʻzlar .....	125
Foydalanilgan adabiyotlar .....	126

**N. A. ABDURAHIMOVA, M. S. ISAKOVA,  
Z. M. SULEYMANOVA**

## **DAVLAT MUASSASALARI TARIXI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasi Bosh tahririyati.  
100083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.

Muharrir *Sh. Bo'tayev*  
Musavvir *J. Gurova*  
Texnik muharrir *A. Salixov*  
Musahhih *M. Qosimova*  
Kompyuterda sahifalovchi *E. Kim*

Bosishga 22.09.07 da ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 90^{1/16}$ . «Tayms»  
garniturasida ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 8,0.  
Nashr-hisob t. 8,2. Jami 1600 nusxa. 264-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MChJ da bosmaxonasida bosildi.  
100182, Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41.